

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘l yozma huquqida
UDK 811.512.133.
811.111

ABDURAZZOQOVA GULNOZA JO‘RAMIRZAYEVNA

**O‘ZBEK TILIDA NON, OSH, TUZ KONSEPTLARINI
IFODALOVCHI FRAZEOLOGIK VA PAREMIOLOGIK
BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI**

**5A120102 – Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi bo‘yicha
Magistr
akademik darajasini olish uchun taqdim etilgan**

DISSERTATSIYA

Namangan – 2018

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

“DAK ga tavsiya etaman”

Magistratura bo`limi boshlig`i

_____ **T.Sattorov**

“ ” _____ **2018-yil**

“DAK ga tavsiya etaman”

kafedra mudiri

_____ **Sh. Abdurahmonov**

“ ” _____ **2018-yil**

ABDURAZZOQOVA GULNOZA JO`RAMIRZAYEVNA

O'ZBEK TILIDA NON, OSH, TUZ KONSEPTLARINI
IFODALOVCHI FRAZEOLOGIK VA PAREMIOLOGIK
BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI

5A120102 – Lingvistika (o`zbek tili) mutaxassisligi bo`yicha

Magistr

akademik darajasini olish uchun taqdim etilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: Uluqov N.M.,
f.f.d., prof.

M U N D A R I J A

Kirish.....	6
1-bob. O`zbek milliy qadriyatlarida non konsepti va uning lingvokulturologik(lingvomadaniy) xususiyatlari...	12
1.1. Konsept va umummilliy konseptlar hamda ularning tadqiqi.....	12
1.2. Non, osh, tuz uzvli frazeologizmlar va paremiyalar – lingvomadaniy boylik	28
Bob bo`yicha xulosalar.....	32
2-bob. O`zbek tilidagi non uzvli frazeologizm va paremalarning lingvokulturologik tahlili.....	33
2.1. Non uzvli frazeologizmlarning lug`aviy-ma`noviy tahlili.....	33
2.2. Non uzvli paremiyalarning semantik va uslubiy-badiiy xususiyatlari.....	43
Bob bo`yicha xulosalar	50
3-bob. O`zbek adabiy tilidagi osh va tuz uzvli frazeologizm va paremiyalarning lingvokulturologik tahlili	51
3.1. Osh uzvli frazeologizm va paremiyalarning lug`aviy-ma`noviy, uslubiy-badiiy tahlili.....	51
3.2. Tuz uzvli frazeologizm va paremiyalarning semantik, uslubiy-badiiy xususiyatlari.....	61

Bob bo`yicha xulosalar	71
Umumiy xulosalar.....	73
Foydalanilgan adabiyotlar.....	75
Ilova. Non, osh, tuz uzvli paremiyalar ro`yhati.....	81

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi. Mustaqillik yillarida milliy o'zligimizni anglash, xalq ma'naviyatini yuksaltirish, o'zbek tilining qo'llanish doirasini kengaytirishga alohida e'tibor berildi. Xususan, «Davlat tilining hayotimizdagi o'rni va ta'sirini kuchaytirish, uni tom ma'nodagi milliy qadriyatga aylantirish yo'lida ilgari tasavvur ham qilib bo'lmaydigan ulkan ishlar amalga oshirildi». Natijada tilning xalq tarixi, madaniyati va ma'naviyatining o'ziga xos ifodasi, yuksak estetik qimmat hamda hadsiz ifoda imkoniyatlariga ega xazina ekanligi yanada oydinlashdi.

Mustaqillik davri o'zbek tilshunosligida antroposentrik paradigmaning shakllanishi psixolingvistika, pragmlingvistika, kognitiv tilshunoslik kabi yo'nalishlar qatorida lingvokulturologiya masalalarini o'rganish, sohaning predmeti va vazifalari, metodlari va tushunchaviy-terminologik apparatini o'zlashtirish, til birliklarida madaniy jihatlarning aks etish tomonlarini aniqlash, o'zbek tilidagi frazeologik hamda parimeologik birliklarni til va madaniyat munosabati nuqtai nazaridan tadqiq qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbek tilshunosligida keyingi yillardagina til va madaniyat munosabati, til tizimidagi milliy o'ziga xos elementlar tadqiqiga bag'ishlangan ishlar shakllanmoqda, lingvokulturologik tadqiqotlar, lug'atlar yaratilmoqda.

Dunyoda milliy qadriyatlari bo'lmagan birorta millat yoki elat yo'q. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi hisoblanadi. Milliy qadriyatlar ana shu millatning borligini, mavjudligini ko'rsatadi va bardavomligining asosi sanaladi.

Bizning o'zbekona milliy qadriyatlarimiz ona yurtga ehtirom, ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, muomalada mulozamat, halimlik, muloyimlik, hayo, andisha kabilarning ustuvorligi bilan xarakterlanadi.

O'zbek xalqi asrlar davomida sayqal topib, rivojlanib, takomillashib, qadrlanib, e'zozlanib kelayotgan bebaho, betakror, bardavom qadriyatlarga ega. Bular sirasida taomlar bilan bog'liq qadriyatlar ham alohida o'rin tutadi.

Nonga bo'lgan hurmat, ehtirom hissi va uni e'zozlash bilan bog'liq o'zbekona milliy qadriyat hamda an'analarning ildizlari qadimiy davrlardan beri avloddan-avlodga, asrlardan-asrlarga o'tib kelmoqda. Bunday buyuk xislatlar qadimiy ma'naviy-ma'rifiy, madaniy merosimiz xalq og'zaki ijodi namunalari, xususan, afsona va rivoyatlar, matal va maqollar, diniy manbalar, yozma adabiyot namunalari asosida shakllangan.

Yer, bug'doy va nonga bo'lgan yuksak hurmat hamda ehtirom Sharq xalqlarida hamon saqlanib qolgan. Nutqimizda faol qo'llanuvchi ona-Zamin, ona-Vatan tushunchalari hamda yerda yotgan bir burda nonni avaylab pokiza joyga olib qo'yish, ko'zga surtish kabi an'analar buning yorqin dalilidir.

Non rizq-u ro'zimiz, bizni balo-qazolardan asraydigan, har qanday kunimizga yaraydigan eng arzon va eng buyuk ne'mat. U – qismat, u –taqdir, unda bor mehr, u – hayot! Shunday ekan, nonni muqaddas bilish, uni asrash azal-azaldan ota-bobolarimizdan bizgacha yetib kelayotgan odatdir. Odatgina emas, qadimiy, merosiy, an'anaviy va bardavom qadriyatdir.

Demak, non, osh, tuz konseptlari eng qadimiy, eng ulug', eng noyob, eng tanqis, eng muqaddas ne'matni va u bilan bog'liq tushunchalarni ifodalashi bilan alohidalik kasb etadi. Ushbu konseptlar zamirida o'zbek xalqiga xos mehmondo'stlik, mehnatkashlik, tantilik, o'ziga xoslik, soddalik kabi odamiylik xislatlari jamlanganki, bu o'zida bir qator lingvomadaniy xususiyatlarni ifoda etadi. Ana shularni e'tiborga olganda mazkur non, osh, tuz konseptlarini ifodalovchi frazeologik va paremiologik birliklarni lingvokulturologik tadqiq etish o'zbek tilshunosligining muhim vazifalaridan biridir.

Non, osh, tuz uzvli maqol va iboralarni tavsiflash va tasniflash xalq dunyoqarashi va qadriyatlarini, milliy tilning milliy-mental xususiyatlarini o'rganishda muhimdir.

Hozirgi globallashuv davrida barcha sohalarda bo'lgani kabi ilm-fanda ham innovatsion g'oyalarga, innovatsion tadqiqotlarga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. "Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv

asosida boshlashimiz kerak”¹. O`zbek tilining milliy qadriyatlari bilan bog`liq frazeologizm va paremiologik birliklarni sotsiolingvistik, lingvopoetik, lingvokulturologik, psixolingvistik, antropolingvistik sohalar aspektida tadqiq etish ham innovatsion yondashuvni talab etadi. Shu nuqtai nazardan bizning “O`zbek tilidagi non, osh, tuz konseptlarini ifodalovchi frazeologik va paremiologik birliklarni lingvokulturologik tadqiq etish” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyamiz ham ilmiy, ham nazariy ahamiyatga molik.

Muammoning o`rganilganlik darajasi. O`zbek tilshunosligida lingvokulturologiya masalalariga bag`ishlangan ilk tadqiqotlar Sh.Safarov, N.Mahmudov, D.Xudoyberganova, Sh.Usmanova kabi olimlar tomonidan olib borilgan. Zoonimlar, zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari D.Tosheva tomonidan tadqiq etilgan. Shuningdek, o`zbek tili frazeologizmlari va paremalari Sh. Rahmatullayev, B.Yo`ldoshev va boshqa yosh tadqiqotchilar tomonidan o`rganilgan bo`lsada, non, osh, tuz konseptlarini ifodalovchi frazeologizmlari va paremalar lingvokulturologik aspektda maxsus o`rganilmagan.

Tadqiqotning obykti va predmeti. Mustaqil izlanishlar asosida Mahmud Koshg`ariy, Rabg`uziy, Alisher Navoiy, Bobur, Gulxaniy asarlaridan, tarixiy va zamonaviy lug`atlardan, jumladan, “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi”, “O`zbek tilining izohli lug`ati”, “O`zbek xalq maqollari”, “O`zbek tilining paremiologik lug`ati”, “O`zbek tilining izohli frazeologik lug`ati” va “Ruscha-o`zbekcha frazeologik lug`at” hamda “O`zbek tilining paremiologik lug`ati” va boshqa manbalardan to`plangan 300 dan ziyod osh uzvli, 200 dan ortiq non uzvli va 100 ga yaqin tuz uzvli paremalar, 50 ga yaqin non uzvli, 30 dan ziyod osh uzvli va 20 dan ortiq tuz uzvli frazeologik birliklar dissertatsiyaning tadqiq obykti hisoblanadi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – Б. 20.

Tadqiqotning maqsadi. O‘zbek tilida *non*, *osh*, *tuz* konseptlarini ifodalovchi frazeologik va paremiologik birliklarni lingvokulturologik tadqiq etish ishimizning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari. Mavzu mohiyati va maqsadidan kelib chiqib ish oldiga quyidagi vazifalar qo‘yildi:

1. Konsept va non konsepti tushunchalarini yoritish.
2. Xalq hayoti bilan bog‘liq konseptlar va lingvokulturemalar haqida fikr yuritish.
3. Non, osh, tuz uzvli frazeologizmlar va paremlar – lingvomadaniy boyluk ekanligini yoritish.
4. Non uzvli frazeologizmlarning lug‘aviy-ma‘noviy tahlilini berish.
5. Non uzvli paremiyalarni semantik va uslubiy-badiiy jihatdan tahlil qilish.
6. Osh uzvli frazeologizm va paremiyalarning lug‘aviy-ma‘noviy, uslubiy-badiiy tahlilini berish.
7. Tuz uzvli frazeologizm va paremiyalarni semantik, uslubiy-badiiy jihatdan tahlil qilish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. O‘zbek tili barabar birliklari sirasida shaklan va ma‘noviy jihatdan alohida o‘rin tutuvchi *non*, *osh*, *tuz* konseptlarini ifodalovchi frazeologizm va paremlar to‘plandi va lingvokulturologik aspektda tadqiq etildi.

Tadqiqot usullari. Mavzuni nazariy va amaliy jihatdan yoritishda lug‘aviy-ma‘noviy, uslubiy, lingvokulturologik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. . Dissertatsiya xulosalari va materiallaridan lingvokulturologiya va unga doir ilmiy, amaliy masalalarni o‘rganishda, oliy o‘quv yurtlarida “Tilshunoslik nazariyasi”, “Adabiyotshunoslik nazariyasi”, “Uslubiyat”, “Badiiy tahlil asoslari”, “O‘zbek folklori” kabi fanlarda maqol, matal va frazeologizmlarga doir masalalarni o‘qitishda, ilmiy-ommabop risolalar tayyorlashda, maqol, matal, frazeologizmlarning lingvokulturologik lug‘atini tuzishda, dialektal lug‘atlar tuzishda umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida “Non aziz”, “Non – muqaddas ne‘mat”, “Nonni

e'zozlang!' va boshqa mavzularda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazishda manba sifatida foydalanish mumkin.

Ishning sinovdan o'tishi. Dissertatsiya Namangan davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida yig'lishi (2018-yil 24-may)da muhokama qilinib, himoyaga tavsiya etilgan.

Dissertatsiya natijalarining e'lon qilinishi. Ilmiy tadqiqot ishining asosiy mazmuni yuzasidan Respublika oliy o'quv yurtlari va NamDU ilmiy to'plamlarida quyidagi maqolalar e'lon qilingan:

1. Общечеловеческие ценности связанные с концептом “хлеб” и их языковое выражение в узбекском языке // Журнал. Современные инновации. – Россия. Г. Иванова: Проблемы науки, 2016. – №8.

2. Нон билан боғлиқ этнографизмларнинг лингвокультурологик ва этнолингвистик хусусиятлари // Ўзбекистонда филология илми ва таълими: натижа ва истиқбол: Республика филолог-олимлари анжумани материаллари. – Самарқанд, 2016. 11-12-ноябр – Б. 58-59.

3. Нон ҳақидаги паремияларнинг лингвомаданий хусусиятлари // Илм уммонидан қатрлар: Илмий мақолалар тўплами. – Наманган, 2016. 7-китоб. – Б. 10-12.

4. Нон номларининг айрим диалектал вариантлари хусусида // Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари: А.Нурмонов хотирасига бағишлаб ўтказилган Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Андижон, 2017. – Б. 134-135.

5. Нон узвли паремияларнинг лингвокультурологик хусусиятлари // ЎЗМУ хабарлари. Мирза Улуғбек номидаги Ўзбекистон миллий университети илмий журнали. Тошкент, 2017. – Б. 349-350.

6. Нон узвли фраземаларнинг луғавий-маъновий хусусиятлари // Филология фанлари номзоди, доцент Каримжон Юсуповнинг 100 йиллик юбилейи муносабати билан ташкилланган “Филологиянинг долзарб муаммолари ва контрастив тилшунослик” мавзусидаги Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Фарғона, 2018. – 1-китоб, Б. 283-286.

Dissertatsiyaning tuzilishi. Dissertatsiya “Kirish”, “O`zbek milliy qadriyatlarida non konsepti va uning lingvokulturologik xususiyatlari”, “O`zbek tilidagi non uzvli frazeologizm va paremalarning lingvokulturologik tahlili”, “O`zbek adabiy tilidagi osh va tuz uzvli frazeologizm va paremiyalarning lingvokulturologik tahlili” kabi uch asosiy bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalar ro`yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 80 bet.

1-BOB. O'ZBEK MILLIY QADRIYATLARIDA NON KONSEPTI VA UNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

1.1. Konsept va umummilliy konseptlar hamda ularning tadqiqi

Lingvokulturologiya – tilshunoslikning alohida sohasi. Kishilar, xalqlar, mamlakatlar o`rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro-madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o`zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o`ziga xos ko`rinishi kabi qator masalalarni kun tartibiga qo`ymoqda. Bu esa tilshunoslik va madaniyatshunoslik o`rtasidagi alohida, o`z yo`nalishi va predmetiga ega bo`lgan yangi soha – lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo`lmoqda.

“Til – madaniyat” tushunchasiga bo`lgan qiziqishning tobora ortishi esa terminologik qatlam tarkibiga kiruvchi tushunchalarni aniqlashtirishni dolzarb masala darajasiga ko`tarmoqda. “Til – madaniyat” tushunchasi insoniyat haqidagi barcha fanlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, chunki insonni uning tilidan tashqarida o`rganish mumkin emas. Shunday ekan, til milliy madaniyatning mavjudligini va asosiy ifoda shaklini o`zida namoyon etadi.

Til, madaniyat, etnosning o`zaro munosabati masalasi yangi hodisa emas. XIX asrning boshlaridanoq bu muammoni nemis olimlari – aka-uka Grimmlar o`rganishga harakat qilganlari ma'lum. “Til – madaniyat” tushunchalarining uzviy aloqadorligi dastlab. V. fon Gumboldtning ishlarida ko`rinadi.¹ Uning fikricha, til “xalqning ruhiyati”, xalqning “asl ko`rinishi”dir. Madaniyat, avvalo, tilda aks etadi. Shunday ekan, madaniyat faqat til orqaligina namoyon bo`ladi. Til madaniyatning asl ko`rinishi, realligidir, til orqaligina inson madaniyatga kirib boradi, degan fikrlari muhim ahamiyatga ega bo`ldi. Biroq lingvokul-

¹ Bu haqda qarang. Гумбольдт В.Фон. Язык и философия культуры. – М., 1985. – С.451.

turologiyaning fan sifatida ilmiy asoslanishi M.M.Pokrovskiy, G.V.Stepanov, D.S.Lixachev va Y.M.Lotman, F.I.Busayev, A.N.Afanasyeva, A.A.Potebnya ishlaridan boshlandi.¹

Lingvokulturologiya madaniyatshunoslik va tilshunoslik kesishgan nuqtada shakllangan til tadqiqining yangi sohasidir. Lingvokulturologiya madaniyat va tilning o'zaro aloqasini, o'zaro ta'sirini, tilda o'z aksini topgan xalq madaniyatining ko'rinishlarini tadqiq etadi. Lingvokulturologiya tilni madaniyatning fenomeni, tashuvchisi sifatida o'rganadi. Mazkur fan doirasida leksik darajaning til birliklari semantikasidagi madaniyatshunoslikning tarkibiy qismlari va madaniy ma'nolar o'rganiladi.

Lingvokulturologiya tilshunoslik va madaniyatshunoslik fanlari hamkorligida, ammo tilshunoslikning ustuvorligida yuzaga kelgan eng yosh yo'nalishdir, shuning uchun ham bu yangi yo'nalish bevosita til haqidagi ilm bag'rida dunyoga kelgan. Lingvokulturologiyada (kognitiv tilshunoslikda ham, umuman, antropologik paradigmada) "olamning lisoniy manzarasi", "lisoniy shaxs", "konsept" kabi bir qator asosiy tushunchalar mavjud.² Bu tushunchalar va, demakki, terminlar haqida tilshunoslikda juda ko'p yozilgan bo'lishiga qaramasdan, hali-hamon ularning ayrimlari talqinida bir xillikka erishilgan emas. Masalan, "olamning milliy lisoniy manzarasi" terminini qo'llashda va talqin qilishda deyarli bir to'xtamga kelingan: "Tillar qancha bo'lsa, olamning shuncha milliy lisoniy manzarasi mavjud, bu tillarning har biri jamoaviy etnik ongning koinotdagi inson mavjudligini anglash va kategoriyalashtirish borasidagi ko'p asrlik faoliyatining noyob natijalarini aks ettiradi".³ Ammo "lisoniy shaxs", "konsept" terminlari haqida bunday deb bo'lmaydi.⁴ A.M.Nadyojkin konsept haqidagi ilmiy talqinlarda juda ham mavhumlik, har xillik mavjudligini ko'rsatib o'tadi, konsept nazariyasi

¹ Сайидрахимова Н., Қобулова У. Лингвокультурология – тилшуносликнинг алоҳида соҳаси // Ўзбек тили ва адабиёти, 2015. – №4. – Б. 87-91.

² Светоносца Т.А. Когнитивная лингвистика и лингвокультурология: черты и различия // Филологические науки в МГИМО. Сборник науч. Трудов. №27 (42). М.:МГИ-МО-Университет, 2007. – С.39-46; Воркачев С.Г. Кўрсатилган мақола, 64-72-бетлар.

³ Корнилов О.А. Языковые картины мира как производные национальных менталитетов. – М.: ЧеРо, 2003. – С.140.

⁴ Qarang. Иванцова Е.В. О термине "языковая личность": истоки, проблемы, перспективы использования // Вестник Томского государственного университета. Филология. №4 (12). 2010. – С.24-32; Надёжкин А.М. «закат» концепта // Вестник Нижегородского университета им. Н.И.Лобачевского. №6 (2). 2011. – С.452-454.

metodologik jihatdan jiddiy tadqiq etishga muhtoj ekanligini aytadi. Kognitiv tilshunoslik va pragmatika muammolari bilan jiddiy shug'ullangan o'zbek tilshunosi professor Sh.Safarov ham negadir konsept haqida gapirar ekan, uning lingvomadaniy va etnomilliy jihatlariga yetarli e'tibor bermaydi.¹ To'g'ri, konsept tafakkurga oid, mazmuniy, mental tushuncha, lekin uni milliy-madaniy unsurdan tamoman xoli bo'lgan hodisa sifatida qarash anchayin munozaralidir. Bu masala tadqiqiga bag'ishlangan bir qator asarlar yaratgan S.G.Vorkachev hatto "lingvokonseptning yetakchi farqlovchi belgisi uning etnomadaniy belgili bo'lishi"ni ta'kidlaydi.² Professor Nizomiddin Mahmudov konseptga rus tilshunosligida berilgan ko'pdan-ko'p ta'riflar orasida V.A.Maslova tomonidan ilgari surilgan ta'rif haqiqatni aniqroq aks ettirishini ta'kidlaydi. V. Maslovaning talqinicha, konsept, "bu lingvomadaniy o'ziga xoslik qayd etilgan va muayyan etnomadaniyat egalarini u yoki bu tarzda tavsiflovchi semantik tuzilmadir".³

Lingvokulturologik tadqiqotlarda aynan konseptning ifodalanishi muammolariga juda katta e'tibor qaratilmoqda, internet materiallari bilan tanishganda, masalan, Rossiyadagi tilshunosliklarda bu yo'nalish nihoyatda keng tarqalganini ko'rish mumkin, bu boradagi ishlarni sanab, sanog'iga yetish ham mushkul. Hatto so'nggi yillarda yoqlangan nomzodlik dissertatsiyalarining juda katta qismi aynan u yoki bu tilda konseptning lingvokulturologik tadqiqiga bag'ishlangan. Masalan, ularning ayrimlari: O.V.Golovan. "Semantiko-assotsiativnaya struktura konsepta "voyna" ("Семантико-ассоциативная структура концепта "война", 2003); L.N.Venediktova "Konsept "война" в языковой картине мира (сопоставительное исследование на материале английского и русского языков)" ("Концепт "война" в языковой картине мира (сопоставительное исследование на материале английского и русского языков)" 2004); Z.A.Motigullina "Концепт "судба" в татарской и английской языковой картине мира" ("Концепт "судба" в татарской и английской языковой

¹ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 17-18.

² Qarag'ang. Vorkachev S.G. Lingvokonceptologiya i mezhkulturnaya kommunikatsiya: istoki i celi // Filologicheskie nauki, 2005. – № 4. – С.76.

³ Махмудов Н. Тилининг мукамал тадқиқи йўллари излаб // Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. – №5. – Б. 3-16.

картине мира”, 2006); L.X. Shayaxmetova. “Концепт “ут” и его отражение в лирике R.Minnulina” (“Концепт “ут” и его отражение в лирике Р.Миннулина” 2007); L.R. Garipova. “Концепты татарской языковой картины мира: репрезентации в лексеме “dönya” (“Концепты татарской языковой картины мира: репрезентации в лексеме “денья”, 2007) va boshqalar.¹

Konsept termini tilshunoslikda oʻtgan asrning 80-yillarigacha *tushuncha* soʻziga sinonim sifatida ishlatilgan boʻlsa,² uning hozirgi vaqtdagi izohi kengroq maʼno kasb etganini koʻrish mumkin.

Rus tilshunosi L.V.Adonina *konsept* terminiga bagʻishlangan maqolasida bu terminning taniqli tilshunoslar tomonidan qayd etilgan 12 ta taʼrifini keltiradi. Shuningdek, uning maʼlumotiga koʻra, *konsept* termini oʻn nuqtai nazardan tasnif qilingan. Masalan, konsept standartlashishiga koʻra universal, etnik, guruhga oid va shaxsiy konseptlarga; qoʻllanishiga koʻra ilmiy, badiiy, maishiy konseptlarga; ifodalanishiga koʻra leksik-frazeologik, grammatik, sintaktik va matniy konseptlarga boʻlinadi va h.k.

Konsept termini oʻzbek tilshunoslari N.Mahmudov, Sh.Safarov hamda A.E.Mamatov tomonidan batafsil izohlangan.³ Fikrimizcha, konsept koʻp qirrali va koʻp qatlamli mental tuzilmadir. Shuningdek, u bir vaqtning oʻzida psixologik, kognitiv-semantik va lingvokulturologik jihatlarni namoyon etadi. Zero, konseptning kognitiv va lingvokulturologik tadqiqotlar obyekt sifatida tavsiflanayotganligi ham shundan dalolat beradi. Shu sababli konseptning tadqiqotchilar tomonidan subyektiv, ijtimoiy, lingvomadaniy, badiiy konseptlar sifatida tiplarga ajratilganligini⁴ yagona mohiyatga turli jihatlardan yondashuv sifatida baholash

¹ Qarang. Зиятдинова Г.И. Концепт “сугыш (война)” в татарской языковой картине мира: АКД. – Казань, 2009. – С.4.

² Демьянков В.З. Понятие и концепт в художественной литературе и в научном языке // Вопросы филологии – Москва, 2001. – №1. – С.35-47.

³ Qarang. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик – Жиззах: Санзор, 2006; Маматов А.Э. Тилга когнитив ёндашувнинг мохияти нимада? / Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари (проф. А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағишлаб ўтказилаётган илмий-амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2012. – Б. 212; Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. – № 5. – Б. 3-16.

⁴ Qarang. http://rts.slavist.t/index.php?option=com_content&view=full&id=149&Itemid=80

mumkin. Zotan, til tizimi yuqoridagi sifatlarni o`zida jamuljam etgan nihoyatda serqirra hodisalardan biri hisoblanadi.¹

Y.N. Shvedova konsept tushunchasi ortida ijtimoiy yoki subyektiv tarzda anglanuvchi, inson hayotining muhim moddiy, aqliy, ruhiy tomonini aks ettiruvchi, o`z tarixiy ildizlariga ega bo`lgan, xalqning umumiy tajribasini aks ettiradigan mazmun turishini qayd etadi.²

Konsept termini XXasrning 90-yillarida fanda keng qo`llanila boshladi. Konsept so`zi lotin tilida “conceptus” so`zidan olingan bo`lib, uning gumanitar fanlardagi lug`aviy ma`nosi “tushuncha” demakdir.

Konsept zamonaviy termin bo`lib, dastlab falsafa, lingvistika, psixologiya, adabiyotshunoslik, kulturologiya kabi gumanitar fanlarda qo`llanilgan. Ular falsafa, lingvistika, psixologiya, adabiyotshunoslik, kulturologiya shular jumlasidandir. Konsept terminini zamonaviy ilmda rus tilshunosi S.A.Askoldov ilk bor qo`llagan. U konseptga “bu bir tur yoki boshqa turdagi tushunchalar haqida fikrlash jarayonini o`zida aks ettiradigan birlikdir”³ deb izoh bergan. Agar biz bu fikrga to`xtalib, konsept termini bilan inson tushunchasini bog`laydigan bo`lsak, inson atrofida gavdalanadigan dolzarb fikrlar yig`indisini bir so`z bilan ifodalashini tushunish mumkin.

E.S.Kubryakova ta`kidlaganidek, “Konsept termini tafakkurni anglash, ma`lumotlarni saqlash va qayta ishlash kabi muammolar bilan shug`ullanuvchi kognitiv psixologiya hamda kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya fanlari uchun soyabon vazifasini bajaradi”. Konsept tafakkur birligi hisoblanib, uning asosida tushuncha, ma`no va obraz yotadi hamda u yuksak darajadagi mazmunga egadir. Suqrotning “O`zingni angla” degan serma`no fikri har bir tarixiy davrda yangicha ma`no kasb etadi. Tafakkur qilish va anglashda insonning, eng avvalo,

¹ Худайберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. док. ... диссер. автореф. – Тошкент, 2015. – Б. 11-12.

² Qarang. Шведова Н.Ю. Русский язык. Избранные работы. – М.: Языки славянской культуры, 2005. – С.603.

³ Каримов У.Н. Концепт тушунчаси ва унинг бадиий адабиётдаги моҳияти // ЎзМУ хабарлари, 2017. – №1/5. – Б. 416-417.

etnik kelib chiqishi, atrof-muhit, o'zi yashab turgan turmush tarzi sharoiti ta'sirida amalga oshadi.

N.D.Aryutunova konseptni falsafa fanida amaliy tushuncha bo'lib, milliy an'ana, hayotiy tajriba, din, ideologiya, folklor, san'at obrazlari kabi ko'plab faktorlar va fikrlash jarayoni o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi. Konsept "inson va dunyo o'rtasida bog'liqlik o'rnatadigan madaniy qatlamni" o'zida namoyon qiladi deb tushunadi. D.S.Lixachev ta'riflashicha, konsept so'zning lug'aviy ma'nosi bilan insonning o'z milliy qarashlari o'rtasidagi to'qnashuvi natijasida hosil bo'ladigan fikrlash jarayonining mahsulidir, – degan fikrni olg'a surgan.

S.G.Vorkachev bu tushunchani "Konsept – tildagi o'z ifodasi va lingvokulturologik spetsifikasiga ega tushuncha, tasavvur va bilimlar to'plamidir", deydi. "Konsept milliy til va milliy tafakkurga tegishli elementdir. Abstraktlikning yuqori bosqichida semantik shakllanish konseptning o'ziga xosligidir". Ushbu bildirilgan fikr Y.S. Stepanovanning bildirgan fikriga hamnafas, "konsept bu madaniyat elementlaridan biri kishi tafakkurida shakllangan shaklidir, xuddi shu shaklda madaniyat kishining mental dunyosiga kirib boradi".

Konseptni inson milliy mentalitetining o'zagi deb hisoblashimiz mumkin.

D.U.Ashurova fikriga ko'ra, "konsept deb hamma tushunchalarni ham atash noto'g'ri, balki dunyo va milliy madaniyat sohalarida muhim rol o'ynaydigan tushunchalargina konsept deb atalishi mumkin"¹.

Aniqrog'i konsept har bir jamiyatning o'ziga xos etik, estetik, mantiqiy va milliy an'anaviy turmush tarzi xususiyatini ifodalovchi termin. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, o'zbek tilshunos olimlari ham kognitiv tilshunoslikning asosiy tushunchalaridan bo'lmish konseptni tadqiq etishda e'tiborga loyiq ishlarni amalga oshirmoqdalar. Ushbu ketma-ketlikni O'.Yusupovning fikrlari bilan

¹ Каримов У.Н. Концепт тушунчаси ва унинг бадиий адабиётдаги моҳияти // ЎзМУ хабарлари, 2017. – №1/5. – Б. 416-417.

to'ldirish mumkin: "Konsept bilan tushunchani aysbergga o'xshatish mumkin. Agar konsept aysberg bo'lsa, uning suvdan chiqib turgan qismi tushunchadir".

Shu o'rinda inson, uning turmush tarzi, xushmuomalalik, xotira, ana'ana, mehmondo'stlik, tabiat va h.k. konseptlar kognitiv va lingvomadaniy nuqtai nazardan o'rganilmoqda. Misol tariqasida shuni aytib o'tishimiz mumkinki, Professor B.Mengliyev "Konsept-so'z-tushuncha" zanjiri haqida nomli maqolasida,

Rus kognitiv tilshunosligida konseptni tadqiq etuvchi ikki asosiy yo'nalish mavjud: lingvokognitiv va lingvomadaniy yo'nalishlar.

Keyingi yillarda, tilshunoslar bunday umumlashgan tahlil tizimi vositasi sifatida yangi shakllangan kognitiv tilshunoslik, uning yo'nalishlari va tahlil birligi – *konsept* nomi bilan bog'lashmoqda.

Tilda mavjud bo'lgan konseptlar majmuasi olamning lisoniy tasvirini belgilab beradi. Har bir borliq haqidagi tasavvur aniq konseptlarga asoslanadi. Ayrim tilshunoslarning fikricha, borliqni inson til orqali tasavvur qiladi va konsept borliqning obyektini hisoblanib, o'z nomiga egadir va inson ongida olam haqidagi tasavvurni aks ettiruvchi haqiqatdir.

Lingvokognitiv yo'nalishda konseptni jamiyat tushunchalari birligi sifatida qarash hamda uni markaziy va periferik qismlarga bo'lib o'rganish mavjud. Bunday qarash Kubryakova, Z.Popova, I.Sternina va boshqalarning tadqiqotlarida ko'zga tashlanadi.

Kognitiv tilshunoslikning vazifasidan kelib chiqib, uning asosiy birligi – *konseptning* qanday birlik ekanligi, uning ifodalanishi, strukturasi, uning mohiyati xususida biroz to'xtalish joiz.

Ilmiy jamoatchilikka ma'lumki, konseptni lingvokognitiv, psixolingvistik, lingvomadaniy voqelik, madaniyatning asosiy birligi, deb talqin qiladilar. Bizning nazarimizda, konsept geshtalt, freym-strukturalar, so'zning assotsiatsiyalari va konnotatsiyalari, tildagi kategoriyalar, matn, so'z, lisoniy va nolisoniy vositalar yordamida ifodalanadi.

M.I.Rasulova, G.Sh.Otaxanovalar strukturasi ko‘ra konseptning etimologik qatlamga, shuningdek, yadro va periferiyalarga ham egaligi va konseptni belgilashda yagona qarash hali ishlab chiqilmaganligini ta’kid-lashadi.¹

Boshqa bir tilshunoslar esa konseptni maydonlarga bo‘lib o‘rganish metodlarini taklif etishadi.Ularning nazariyasi bo‘yicha konsept yadroviy zona va periferik zonalarga bo‘linadi. YAdroviy va periferik zonalarning mutanosibliigi konsept strukturasi belgilab beradi.²

M.Galieva esa konseptning xususiyatlarini, uning kognitiv-konseptual belgilarini talqin qilish davomida konseptning aniq bir elementi birinchi o‘ringa chiqishini ta’kidlaydi.³

Tilshunoslikda *konsept* mohiyatiga ko‘ra madaniy, lingvomadaniy, psixolingvistik, kognitiv, emotsional, ilmiy xususiyatlarga egaligi e’tirof etiladi. Shu o‘rinda alohida ta’kidlash kerakki, konseptning mavjudlik doirasi, ya’ni til va fikrlashga madaniyat sohasi ham qo‘shiladi. Lingvomadaniy konsept endi kognitiv tilshunoslik emas, balki lingvomadaniyatshunoslik birliklari bilan namoyon bo‘ladi. Konseptni lingvomadaniy nuqtai nazardan olib qarasak, konsept madaniyatning bazaviy birligi hisoblanib, uning tarkibini konseptni madaniyat birligi deb hisoblashga asos bo‘la oladigan belgilar, ya’ni etimologiyasi, konsept tarixi, zamonaviy assotsiatsiyalari, munosabat (baholash)⁴ va boshqalar tashkil etadi.

Psixolingvistikada konseptni o‘rganish turlicha bo‘lib, tadqiqotlar murakkabligi va ko‘p qirraligi bilan ajrab turadi. Konsept insonning psixik hayoti

¹ Rasulova M.I. Проблемы лексической категоризации в разносистемных языках. –Ташкент: Фан, 1996. – 145с.; Атаханова Г.Ш. Номинации “Возрасть человека” в когнитивно-прагматическом и лингвокультурологическом аспектах (на материале английского языка): Автореф. ... канд.филол.наук. – Ташкент: 2006. – 21 с.

² Попова З.Д., Стернин И.А. Понятие “концепт” в лингвистических исследованиях. – Воронеж: Изд-во Воронежского ун-та.1999. – 126 с.

³ Галиева М.Р. Вербализация концептосферы Word / Сўз / Слово в английской , узбекской и русской языковых картинах мира: Автореф. ... канд.филол.наук. – Тошкент, 2010. – 28 с.

⁴ Арутюнова Н.Д. Об объекте общей оценки // Вопросы языкознания. – М., 1985. – №3. – С.13.

qonuniyatlariga bo‘ysunuvchi, shaxsning bilish va muloqot jarayonida dinamik xarakterga ega perseptiv, kognitiv va affektiv hosila sifatida talqin qilinadi.¹

Konseptning lingvomadaniy va kognitiv ta’riflari chambarchas bog‘liqdir, chunki bilish tafakkur, til va madaniyat orqali amalga oshiriladi. Tilshunoslikning bu ikki yo‘nalishi bilimning antroposentrik² paradigmasiga tegishli bo‘lib, biz ushbu axborotda konseptni o‘rganishni faqat kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan sharhlashga harakat qildik. Bundan tashqari, konseptning funksional-semantik tahlili ham borki, u alohida tadqiq qilinishni talab etadi.

Lingvomadaniy yondashuv milliy konseptosferaning xususiyatni madaniyatdan ong tomonga bo‘lgan yo‘nalishini o‘rganadi. Bu yo‘nalishda Y.S.Stepanov, V. I.Karasik, V.A.Maslova, D.U.Ashurova va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Bu yo‘nalishda konseptlar madaniyatning asosiy birligi hisoblanib, obrazli, pragmatik va stilistik hodisa sifatida o‘rganilgan.³

Lingvokognitiv yo‘nalishda E.S.Kubryakova, Z.D.Popova, I.A.Sternin va boshqalarning tadqiqotlarida konseptni jamiyat tushunchalari birligi sifatida qarash hamda uni markaziy va periferik qismlarga bo‘lib o‘rganish kuzatiladi.⁴

Oxirgi o‘n yillik ichida filologiya fanida konsept eng faol qo‘llanuvchi terminga aylandi. Konsept nafaqat tilshunoslik, balki u adabiyotshunoslik, mantiq, falsafa va madaniyatshunoslik fanlarida ham qo‘llanadi, biroq konsept termini hozirgacha aniq bir ta’rifga ega emas va turli sohalarda turlicha ta’riflanadi. “Konsept – tafakkur kategoriyasi bo‘lib, o‘ziga xos murakkab qurilishga ega”⁵

¹ Залевская А.А. Психологический подход и проблеме концепта // Методологические проблемы когнитивной лингвистики. – Воронеж: ВГУ, 2001. – С.36

² Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки, 2001. – №1. – С.64-72.

³ Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования. – М.: Языки русской культуры, 1997.-824 с.; Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – М.: Гнозис, 2004. – 390 с.; Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Изд.центр. “Академия”, 2007. – 208 с.; Ашурова Д.У.Кўрсатилган асар. 11-12-б.

⁴ Кубрякова Е.С. Об установках когнитивной науки и актуальных проблемах когнитивной лингвистики. – Москва, 2004. – С.10-14.; Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. – М.: АСТ: Восток-Запад, 2007. – 314 с.

⁵ Попова З.Д., Стернин И.А. Кўрсатилган асар, 29-б.

Rus tilshunosi V.Z.Demyankov *konsept* terminining lotin, fransuz, italyan, nemis, ingliz va rus tillarida qoʻllanishini koʻrib chiqib quyidagi xulosalarga kelgan:

a) dastlab, “konsept” termini lotin tilida *conceptus* “*ibtidoiy, boshlangʻich holat*” maʼnolarida qoʻllangan. Italyan va ispan tillarida konsept (*concetto, concepto*) badiiy matnlarda azaldan uchrab kelgan va koʻpgina idiomalarda uchraydi;

b) nemis tilida esa konsept (*konzept, koncept*) termini “*xom qolip*”, yaʼni rus tilidagi “*konspekt*” maʼnosida qoʻllangan. Ingliz tilida esa konsept (*concept*) falsafiy termin sifatida ishlatiladi. Rus tilida konsept 1920-yillardan boshlab, 1970-yillargacha “*tushuncha*” terminining sinonimi sifatida qoʻllangan.

Yuqoridagi qarashlarni oʻrganib chiqib, V.Z.Demyankov konsept terminining lotin tilidagi maʼnosini asos qilib olib, “*boshlangʻich maʼno*” degan mazmuni bildirishini taʼkidlaydi.¹

Shuni aytib oʻtish joizki, “tushuncha”, “soʻzning leksik maʼnosi” va “konsept” soʻzlari maʼno jihatdan bir-biriga juda yaqin. Ammo zamonaviy ijtimoiy fanlarda bu soʻzlar turli maʼnoda qoʻllaniladi. V.Z.Demyankovning taʼkidlashicha, “tushuncha” va “konsept” soʻzlari oʻrtasidagi farq quyidagicha aks etgan: tushuncha tafakkurning mantiqiy shakllaridan biri hisoblanib, insonlar uning yordamida voqelikni anglaydilar.²

Soʻzning leksik maʼnosi va konseptning farqi ularning kategorial mavqei-da koʻrinadi, yaʼni soʻzning leksik maʼnosi tilning semantik maydoni birligi hisoblanadi, konsept esa inson tafakkuri mahsuli boʻlib, nutq orqali fikrni bayon qilish jarayonini amalga oshirishda ishtirok etadigan ifoda formasi hisoblanadi. Konsept termini soʻz maʼnosining mohiyatidan kengroqdir, chunki konseptlar millat tarixining rivojlanishi mobaynida ham oʻz strukturasi va shu strukturani

¹ Демьянков В.З. Понятие и концепт в художественной литературе и научном языке // Вопросы филологии. – Москва, 2001. – № 1(7). – Б. 45.

² Демьянков В.З. Кўрсатилган асар, 35-б.

tashkil qiluvchi belgilarni yo‘qotmaydi. Konsept strukturasi qo‘shimcha konsept belgilari paydo bo‘lgani sari kengayaveradi.¹

Konsept semantik jihatdan so‘zning leksik ma’nosiga nisbatan boyroqdir. Buning asosiy sababi, konseptning mental birlik sifatida talqin qilinishidir.

Konsept doimo shaxs bilan bog‘liq. Konsept o‘z ichiga so‘zning leksik ma’nosiga xos ravishda intellektual, hissiy, estetik axborotni olishi, terminga xos ensiklopedik axborotni qamrab olishi mumkin. Ammo konsept na leksik ma’no va na tushuncha emas. Uning farqini quyidagi talqinda ko‘rish mumkin. Konsept – bu alohida bir xalq, ijtimoiy sinf, alohida maktab yoki aynan bir individning borliqdagi predmet yoki hodisaga bo‘lgan qarashlari asosida yuzaga kelgan mental hodisadir.²

Demak, so‘zning leksik ma’nosi va konsept tafakkur va kognitiv xususiyat bilan bog‘liq hodisa bo‘lib, ongda borliqning aks etishi natijasidir. Biroq konsept kognitiv ong mahsuli bo‘lsa, so‘zning leksik ma’nosi lisoniy ong mahsulidir. Konsept bilan so‘zning leksik ma’nosi o‘rtasidagi farq shundaki, konsept konseptosfera birligi hisoblansa, so‘zning leksik ma’nosi tilning semantik maydoni birligidir. Konseptning mohiyati kengroq bo‘lib, u o‘zida faqatgina ma’no komponentlarini emas, inson hayotiy tajribasida orttirilgan bilimlari, ongdagi axborot yig‘indisi, u yoki bu predmet yoki hodisa haqidagi *ensiklopedik bilimlari* majmuidan iborat.

Lingvistik adabiyotlarda konsept terminiga turlicha ta’riflar beriladi. Tilshunoslikda birinchilardan bo‘lib, konseptni o‘rgangan olimlardan biri S.A.Askoldovdir. U konseptga potensial, dinamik struktura sifatida baho beradi. Uning fikricha, konseptning eng muhim funksiyalaridan biri o‘rinbosarlik funksiyasidir. Konsept real predmetlar bilan birgalikda shu predmetning ba’zi tomonlari yoki real haqiqatning o‘rnini bosishi mumkin.³

¹ Комаров Е.В. Метафорическое взаимодействие концептуальных полей “человек” и “природа” в современном английском языке: Дис. ...канд.фил.наук. – Спб.:1998. – С.14.

² Болотов В.И. Из истории науки. А.А.Потебня и когнитивная лингвистика // Вопросы языкознания. – Москва, 2008. – №2. – С. 82.

³ Аскольдов С.А. Концепт и слово / Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Москва: Академия, 1997. – С.267.

Ba'zi olimlarning fikricha, konsept inson o'rganayotgan obyektning butun borliqdagi ko'rinishlaridir. Konsept deganda, madaniy ahamiyatga ega aqliy faoliyat va falsafiy bilish asosi bilan bog'liq hodisa tushuniladi. E.S.Kubryakova, Y.G.Pankrats va V.Z.Demyankovlarning "Краткий словарь когнитивных терминов" lug'atida berilgan ta'rifiga binoan ideal mavhum birliklar, ma'nolar sifatida ta'riflanadi. Bu birliklar inson faoliyatining natijalari hamda bilish jarayonlarini anglatadi. Konsept shaxs tomonidan borliqning u yoki bu qismini anglab, tasavvur qilish orqali to'plangan axborotdan iborat. Konseptlar kuzatilyotgan hodisalarni jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan yagona, aniq kategoriya va sinflarga jamlaydi.¹

Mental birlik sifatida konseptlar tipologiyasiga binoan individual, guruhiy va umummilliy konseptlarga bo'linadi. Tarkibi bo'yicha konseptlar sxema, tushuncha, freym va shu kabilarga ajratib o'rganiladi. Konseptning lisoniy ifodalanishini leksema, frazeologik birliklar, sintaktik konstruktsiya va hattoki, matn va matn majmuasida ko'rish mumkin.²

Konsept mental birlik hisoblanib, tafakkur elementi hamdir. N.D.Arutyunova konseptni mantiqiy-falsafiy ta'limot doirasida talqin qilib, konseptni inson va borliq o'rtasidagi bog'lab turuvchi madaniy qatlam deb tushunadi.³

A.A.Zalevskaya konseptni insonning psixik hayoti qonunlariga bo'ysunuvchi, shaxsning bilish va muloqot jarayonida dinamik xarakterga ega perseptiv-kognitiv-affektiv hosila sifatida talqin qiladi.⁴

D.S.Lixachev konseptni ma'noning "algebraik" ifodalanishi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, inson o'zining yozma va og'zaki nutqida ushbu ifodalanishni qo'llaydi. Inson konseptning barcha tomonlarini qamrab ola olmaydi,

¹ Ахманова О.С.Словарь лингвистических терминов. – Москва: Ком.Книга, 2007. – С.90.

² Попова З.Д., Стернин И.А. Понятие «концепт» в лингвистических исследованиях. – Воронеж: Изд-во Воронежского Ун-та, 1999. – С.17-21.

³ Арутюнова Н.Д. Введение // Логический анализ языка: Ментальные действия. – Москва: Наука, 1993. – С.3.

⁴ Залевская А.А. Психологический подход к проблеме концепта // Методологические проблемы когнитивной лингвистики. – Воронеж: ВГУ, 2001. – С.39.

ba'zan uni o'z bilimi, hayotiy tajribasi, kasbi va boshqalar nuqtai nazaridan talqin qiladi.¹

Til materiali orqali konseptni o'rganishga N.D.Arutyunova asos solgan. Olima konseptni o'rganishning mantiqiy tarafini ilgari surdi. 1991 – yildayoq uning muallifligida tilning mantiqiy tahliliga oid to'plami nashr qilindi². Unda haqiqat, ozodlik, yaxshilik va yomonlik, haqiqat va yolg'on, go'zallik, xotira va boshqa madaniy konseptlarga ta'rif berilgan.³

Z.D.Popova va I.A.Sterninlar esa, inson tafakkur qilishi jarayonida yangi konseptlarni topib, shu konseptlar yordamida tafakkur qiladi va konseptlar erishilgan bilimlarni qo'llash natijasidir degan g'oyani ilgari suradilar.⁴

Darhaqiqat, bizningcha ham, konseptlar inson ongida borliqni bevosita sezgi organlari orqali idrok etish, insonning amaliy faoliyati, eksperimental bilish va nazariy bilish (ilmiy) faoliyati, tafakkur jarayoni – verbal va noverbal faoliyatlar asosida vujudga keladi.

N.N.Boldirev nuqtai nazaridan, konsept strukturasi umummilliy komponent hamda guruhiiy, ya'ni ma'lum bir ijtimoiy kelib chiqishi, yoshiga qarab, kasbiy va boshqa guruhlariga oid, hududiiy, ya'ni u yoki bu hududning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi alomatlar va individual komponentlar tashkil qiladi.⁵

Konseptning aniq strukturasi mavjud emas va har bir shaxs konseptni o'zicha sathlarga bo'lib idrok qiladi.⁶

Konsept inson ongida mavhum ma'no bo'lib vujudga keladi, borliqqa bo'lgan konseptual qarashni shakllantiradi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, bir xil konseptlar turli madaniyatlarda har xil tarixiy, milliy mental, moddiy va ma'naviy madaniyatning rivojlanish bosqichlari izlarini o'zida saqlab qoladi. Turlicha

¹ Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка // Русская словесность: Антология /Под.ред. В.П.Нерознака. – М.: Академия, 1997. – С.280.

² Арутюнова Н.Д. Введение // Логический анализ языка: Ментальные действия. – Москва: Наука, 1993. – С.176.

³ Арутюнова Н.Д. Кўрсатилган асар, 58-б.

⁴ Попова З.Д., Стернин И.А. Кўрсатилган асар, 3-б.

⁵ Болдырев Н.Н. Кўрсатилган асар, 25-б.

⁶ Пименова М.В. Концептуализация и объективация истины и правды // Язык. История.Культура: К 50-летию Кемеровского Государственного Университета: Тез.докл. – Кемерово, Графика, 2003. – С.11.

madaniyatlarning o‘zaro aloqadorligida milliy konseptlarning munosabati ham namoyon bo‘ladi.

Konseptning markaziy doirasini aniqlash mumkin, ammo u bir strukturaga ega emas. Konseptning izohi, uning ta’rifi, konseptual sathlarining belgilari, ularning konsept doirasida joylashishi haqida so‘z yuritsa bo‘ladi, lekin konseptning aniq bir muayyan strukturasi mavjud emas.

D.U.Ashurova konseptni mantiqiy, milliy xususiyatga ega bo‘lgan bir hodisa sifatida talqin qilib, shu konseptning negizini aynan shu o‘rganilayotgan predmet yoki hodisa haqidagi bilim tashkil qilsa, ifodalanishini esa til vositalarining (leksik, frazeologik, paremiologik va h.k.) mutanosibli tashkil qilishini aytadi. Konsept deb hamma tushunchalarni ham atash noto‘g‘ri, balki dunyo va milliy madaniyat sohalarida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan elementlarga konsept deb atalishi mumkin.¹ Masalan, oddiy “cho‘mich” so‘zini olsak, u hech qanday konsept maqomiga ega emas, chunki uning funksiyalari chegaralangan.

O‘.Q.Yusupov konseptni “tashqi yoki ichki dunyodagi biror bir narsa yoki hodisa haqidagi ongimizdagi bilimlar majmuasi, u haqidagi obrazlar va unga bo‘lgan ijobiy, salbiy, neytral munosabatlar, ya’ni baho-lashlardir”², – deb belgilaydi.

Y.S.Stepanov o‘zining rus tili madaniyatiga oid asarida³ konseptga quyidagicha sharh beradi: “Konsept – bu insonning madaniy bilish tushunchasi bo‘lib, mantiqiy maqomga ega”, deya ta’kidlaydi⁴.

Konseptlarni ifodalash til birliklarini tanlash asosida amalga oshiriladi. Odatlanilmagan birlamchi nominant (nutqiy gap) larni odatlanilgan ikkilamchi nominant (maqol) lar bilan almashtirish yangi fikrni e’tirof etilgan umumxalq

¹ Ашурова Д.У. Связь вузовских курсов с современными направлениями лингвистики // Филологиянинг долзарб муаммолари: Маъруза тезислари. – Тошкент, 2008. – Б.11.

² Юсупов Ў.Қ. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультуре атамалари хусусида // Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида: Илмий амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2011. – Б.49.

³ Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования. – М.: Языки русской культуры, 1997. – С.40

⁴ Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования. – М.: Языки русской культуры, 1997. – 40-б.

tabiatli qarashlar bilan bog`lash so`zlovchining nutqiy intensiyasi ro`yobini yengillashtiradi va samarasini kuchaytiradi¹.

Maqollardan ko`zda tutilgan maqsad ko`p qirrali va polifonik xarakterga ega bo`lib, uni quyidagicha tip va turlarga ajratish mumkin:

- 1) fikrning asosliligini ta`minlashda metodologik vazifa;
- 2) fikrning ifodaviyligini ta`minlashda obrazlilik vazifasi;
- 3) fikrning ta`sirchanligini ta`minlashda intensivlik vazifasi;
- 4) fikrning “yumshoq” ligini ta`minlashda evfemistik vazifa;
- 5) personajlarning qarashlari, ruhiy holatini yorqinroq berishda psixologik vazifa;
- 6) matnning yaxlitligini ta`minlashda struktur vazifa;
- 7) kitobxonning tuyg`ulariga ta`sir qilishda estetik vazifa;
- 8) fikrni lo`nda va aniq qabul qildirishda perseptiv vazifa;
- 9) voqelikni maqol bilan bog`lab tushuntirishda kognitiv vazifa;
- 10) til va tafakkur uyg`unligini ta`minlashda lingvokulturologik vazifa va hokazolar².

O`zbek tilshunosligida xalq maqollari, matallari va aforizmlarini tilshunoslik nuqtai nazaridan o`rganish va ularning lug`atlarini tuzish bo`yicha ham muayyan ishlar amalga oshirilgan.

Sh.Shomaqsudov va Sh.Shorahmedovlarning maqollar yuzasidan “Nega shunday deymiz: O`zbek maqollarining izohli lug`ati”, frazeologizmlar yuzasidan Sh.Rahmatullayev tomonidan “O`zbek tilining izohli frazeologik lug`ati” yaratilgan. Bundan tashqari, O`zbek xalq maqollari bo`yicha ham bir necha manbalar yaratilgan.

Rus tilshunosligida filologiya fanlari nomzodi S.S.Jabayevaning “Mehmondo`stlik” konseptining milliy-madaniy o`ziga xos ifodalanishi” («Национально-культурная специфика реализации концепта «гостепри-

¹ Qarang: Ўзбек тили ва адабиёти, 2017/ № 4: Магировская О.В. Вторичная номинация концепта в современном английском языке (на материале пословиц и загадок): АКД. 10.02.04/ Магировская Оксана Валериевна Красноярск, 2001. – С.14.

²Каландаров Ш. Мақолларнинг бадиий матндаги вазифалари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2017. – № 4.

имство»), Y.D.Konicheva “M.Y.Saltikova-Shedrin ertaklari kontekstida “Таом va ichimlik nomlari” leksik-semantik guruhi” («Лексико-семантическая группа «Наименования пищи и напитков» в контексте сказок М.Е.Салтыкова-Щедрина»), A.R.Shxumishxovaning “Таом” tushunchalari nominatsiyasi ko‘lami” («Номинации понятийной сферы «пища»), I.V.Voytushekning “Til va nutqda “suv” konseptining mundariyasi ba manbalari” («Содержание и средства объективации концепта «вода» в языке и речи») mavzusidagi dissertatsiyalari bajarilgan.¹ Lekin o‘zbek tilshunosligida non, osh va tuz uzvli hamda boshqa frazeologik va paremiologik birliklar yuzasidan maxsus linvokulturologik tadqiqotlar amalga oshirilmagan.

¹Шхумишхова А.Р. Номинации понятийной сферы пища: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Майкоп, 2011. – 24 с; Конычева Ю.Д. Лексико-семантическая группа Наименования пищи и напитков в контексте сказок М.Е. Салтыкова-Щедрина: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 2002. – 24 с; Жабоева С.С.Национально-культурная специфика реализации концепта гостеприимство: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Челябинск, 2004. – 24 с; Войтушек И.В. Содержание и средства объективации концепта вода в языке и речи: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Челябинск, 2002. – 24 с.

1.2. Non, osh, tuz uzvli frazeologizmlar va paremiyalar – lingvomadaniy boylik

Tilimizda xalq hayoti bilan bog`liq, ya`ni butun bir xalqning madaniyati, milliyligi, orzu umidlari yoki tirikchilik manbai ekanligini belgilab beruvchi bir nechta konseptlar mavjud. Ular suv konsepti, taom konsepti, osh konsepti, non konsepti, tuz konsepti.

Non, osh, tuz tushunchalari barcha xalqlarda birday aziz, mukarram, ulug`. Deyarli ko`pgina xalqlarda, jumladan, o`zbek xalqida uyga mehmon kelsa dasturxonga birinchi bo`lib non qo`yadilar. Diplomatik, hamkorlik aloqalar munosabati bilan tashrif buyurgan mehmonlarga ham non, tuz bilan peshvoz chiqadilar. O`zbek xalqida osh taomlarning shohi desak mubolag`a bo`lmaydi. Chunki palov ham o`zbek mehmondo`stligining ramzi hisoblanadi, shuning uchun ham o`zbek xonadoniga mehmon kelsa, palov damlaydilar, o`zbekning to`yidan tortib, hatto azali kunlarida ham dasturxon k`orki bo`lgan palov damlanadi.

O`zbek tilida va bir qator boshqa xalqlarda non konsepti eng qadimiy, eng ulug`, eng noyob, eng tanqis, eng muqaddas ne`matni va u bilan bog`liq tushunchalar, qadriyatlar majmuini ifodalashi bilan alohidalik kasb etadi. Non konsepti zamirida o`zbek xalqiga xos mehmondo`stlik, mehnatkashlik, tantilik, o`ziga xoslik, soddalik kabi odamiylik xislatlari, o`zbekona urf-odatlar, an`analar bilan bog`liq qadriyatlar sirasi jamlanganki, bu o`z navbatida, bir qator lingvomadaniy xususiyatlarga ham ega.

Non so`zi Vatan kabi muqaddas, ona singari aziz, ulug`, eng yuksak tushunchadir. Tandiri bor kulba bu – eng kichik Vatan! Inson Ona, Vatan kabi yuksak tushunchalarni qanchalik g`urur, iftixor bilan takrorlasa, non so`zini tilga olganida ham ana shunday yuksak tuyg`ularni his etadi, chunki endigina atakchechak qilib tili chiqayotgan jajji bolajon dastlab “ba-ba-aba(ona)” deb o`zini dunyoga keltirgan zotni taniy boshlasa, “na-na-nanna” deb ilk ozuqa, tirikchilik manbai, rizq-u ro`zi bo`lgan muqaddas ne`matni taniydi va undan oziqlana

boshlaydi. Demak, ona qanchalik muqaddas, ulug` bo`lsa, non ham ana shunday aziz va mukarramdir.

Non bu rizq-u ro`zimiz, non bu bizni balo-qazolardan asraydigan, har qanday kunimizga yaraydigan eng arzon va eng buyuk ne`mat. U – qismat, u – taqdir, unda bor mehr, u – hayot! Nonni muqaddas bilish, uni asrash azal-azaldan ota-bobolarmizdan bizgacha yetib kelayotgan odatdir. Odatgina emas, qadimiy, merosiy, an`anaviy va bardavom qadriyatdir.

Nonga bo`lgan hurmat, ehtirom hissi va uni e`zozlash bilan bog`liq o`zbekona milliy an`analarning ildizlari qadimiy davrlardan beri avloddan avlodga, asrlardan asrlarga o`tib kelmoqda.

Non jahondagi ko`p xalqlar qatori, o`zbek xalqiga xos bir qator qadriyatlar bilan bog`liq milliy an`analar ramziga ham aylangan: non – mehmondo`stlik, hurmat, rizq-u ro`z, hayot, to`kinlik, tinchlik ramzi. Nonni aziz-u mo`tabarligi, uning muqaddasligi, nonning uvog`i ham non ekanligi bolaning yoshligidan ongiga singdirilgan. Bularning barchasi tilda bir qator non uzvli frazeologizm va paremiyalarning yuzaga kelishiga sabab bo`lgan.

Sharq xalqlarida non, osh, tuz konseptlarining muqaddasligi, ulug`ligi, ushbu konseptlarning xalq hayotidagi o`rni juda ham yuksakligi tilimizda bir qator non, osh, tuz uzvli frazeologizmlar va paremalarning vujudga kelishida muhim omil bo`lgan.

O`zbek tilshunosligida maqol, matallar va frazeologizmlar yuzasidan juda ko`plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, maqollar haqida Sh.Shomaqsudov va Sh.Shorahmedovlarning “Ma`nolar mahzani”, To`ra Mirzayev va boshqalarning “O`zbek xalq maqollari”, Sh.Shomaqsudov va Sh.Shorahmedovlar tomonidan tuzilgan “Nega shunday deymiz” deb nomlangan o`zbek xalq maqollarining izohli lug`ati, M.Afzalov va boshqalar tomonidan tuzilgan “O`zbek xalq maqollari” hamda frazeologizmlar yuzasidan Sh.Rahmatullayevning “O`zbek tilining izohli frazeologik lug`ati”, M.Sodiqovanning “Ruscha-o`zbekcha frazeologik lug`at”, M.Abdurahimovning “O`zbekcha-ruscha aforizmlar lug`ati”, O`zbek tilining izohli lug`ati” jildlarida

non, osh, tuz uzvli frazeologizm kabilar. Lekin non, osh, tuz uzvli frazeologizm va paremiyalar yuzasidan ularni alohida to`plab ish qilinmagan va non, osh, tuz uzvli frazeologizm va non, osh, tuz uzvli paremalarni til tomondan tadqiq etilmagan.

Non, osh, tuz konseptlari milliyligimiz, madaniyatimiz belgisidir. Non, osh va tuz konseptlari o`zaro taomligi, oziq-ovqat ekanligi, rizq-nasiba, tirikchilik ma`nolari bilan birlashadi. Ushbu tushunchalar eng ulug`, eng aziz ne`mat sifatida xalqimizning qon-qoniga singib ketganki, hatto mana shu konseptlar zamirida **tilak bildirish** (osh bo`lsin!), **duo** (noni ko`paysin, noni butun bo`lsin, bitta noni ikkita bo`lsin), **qarg`ish** (non ko`r qilsin, non ursin, bergan tuziga rozi bo`lmaslik, tuzim ko`r qilgur) ma`nolari ham shakllangan.

Non boylik: *Foydasi shuki, bolam, bozordan non sotib olmayman. Kunda ikkita non o`zimga qolsa, shu katta davlat...* (Oйбек, ҚУТЛУҒ ҚОН, 311-б.)

Non, osh, tuz konseptlari hayotimizning asosini, negizini, mag`zini, yadrosini tashkil etadi. Shunga ko`ra, ushbu konseptlar asosida bir necha xil frazeologizmlar shakllangan. Non, osh, tuz uzvli frazeologizmlar ovqat, rizq, duo, qarg`ish ma`nosini bildirishiga ko`ra ham bir umumiy maydonda birlashadi:


Oziq-ovqat ma`nosida: *Tuz bermoq, tuzini yemoq(ichmoq), tuz totmaslik, tuzini ichib, tuzlug`iga tupurmoq;*

Rizq-u ro`z: *Noni butun, noni yarimta, nonini tuya qilmoq, bitta noni ikkita bo`lmoq, non topmoq, non yemoq, sheriklik osh, tuz tortgan ekan;*

Duo-tilak: *Osh berganga yosh bersin, qozon to`la osh bersin, noni ko`paysin, noni butun bo`lsin, bitta noni ikkita bo`lsin, osh bo`lsin;*

Qarg`ish: *non ko`r qilsin, non ursin, bergan tuzimga rozi emasman, tuzim ko`r qilgur.*

Non, osh, tuz uzvli frazeologizmlar ovqat, rizq, duo, qarg`ish ma`nosini bildirishiga ko`ra bir umumiy maydonda birlashadi:



1-rasm. Non, osh, tuz uzvli frazeologizmlarning umumiy konseptal jihatlari.

Bob bo`yicha xulosalar

1. Non, osh, tuz uzvli poremalar hamda frazeologizmlar o`zbek xalqini milliy taomlari, yeguliklari va ularni tayyorlashda faol qo`llanadigan unsur hamda ular bilan bog`liq milliy, madaniy, etnik, ijtimoiy, axloqiy qarashlarini ifodalovchi lingvokulturologik birliklardir.

2. O`zbek tilidagi non, osh, tuz konseptlarini ifodalovchi frazeologik va paremiologik birliklarning lingvokulturologik tadqiqi o`zbek xalqining betakror milliy, etnik, etik an`analarining lisoniy va madaniy o`ziga xosligini tadrijiy takomilini va yashovchanligini o`rganishda muhim ahamiyatga molikdir.

3. O`zbek tilidagi non, osh, tuz konseptlarini ifodalovchi frazeologik va paremiologik birliklar xalqimizning ilk davrlaridayoq yuzaga kelgan bo`lib, xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, etnik hayotidagi o`zgarishlar bilan uzviy bog`liq tarzda takomillashib, sayqallanib, boyib borgan va hozirgi darajaga yetib kelgan hamda milliy qadriyatlarini ifodalovchi lingvokulturema maqomini olgan.

2-BOB. O`ZBEK TILIDAGI NON UZVLI FRAZEOLOGIZM VA PAREMIYALARNING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

2.1. Non uzvli frazeologizmlarning lug`aviy-ma`noviy tahlili

Ikki va undan ortiq so`zning barqaror munosabatidan tashkil topgan, ma`nosi odatda, bir so`zga, ba`zan so`z birikmasi, gapga teng keladigan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi, ko`chma ma`noli barqaror (turg`un) birikma **ibora** yoki **frazeologizm** deyiladi¹.

Frazeologizmlar tilshunoslikda **frazema**, **frazeologik birikma**, **ibora** deb ham yuritiladi.

Frazeologizmlar adabiy tilning badiiy va so`zlashuv uslubida keng, ko`proq qo`llanadi va nutqni ta`sirchan, obrazli ifodalashga xizmat qiladi.

O`zbek tilida non uzvli frazeologizmlar salmoqli o`rin tutadi: *nonini tuya qilmoq, noni butun, noni yarimta, bitta noni ikkita bo`lmoq, non yemas, non bermas, nonini halollamoq, non topmoq, non gadoyi, non yemoq, non sindirmoq, birovning nonini yarimta qilib qo`ymoq, non-u qoq bilan kun kechirmoq, o`z ko`machiga kul tortmoq, suvga tushgan nondek shilqillab qolmoq, non yemaslik, non ursin, non ko`r qilsin, noni ko`paysin, birov bilan non-qatiq bo`lmoq, nonni moy bilan yemoq, non qorinning ketidan yurmaydi, xamir uchidan patir, birovning noni qorin og`ritar, non-namak bo`lmoq, nondan benasib bo`lmoq* kabilar.

Non uzvli frazeologizmlarning har biri o`ziga xos ma`no-mundarijasiga ega.

Non(i)ni tuya qilmoq – mazkur ibora “O`zbek tilining izohli lug`ati” va boshqa lug`atlarda qayd etilgan bo`lib, “bo`sh-bayovligidan foydalanib, birovga tegishli haqning ma`lum qismini olmoq, o`zlashtirmoq, aldab-suldab haqini o`zlashtirmoq” ma`nolarini bildirib, salbiy baho (uslubiy bo`yoq) semasi bilan qoplangan, birikmaga teng, fe`l frazema. “*Bo`shanglik qilsam, nonimni tuya qilib berishlari aniq*”, -o`yladi Yo`lchi. (Ойбек, Танланган асарлар)².

¹Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Barkamol fayz mediya, 2016. – B. 113.

²Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 3-ж. – Б. 57.

Non(i) butun – (ot + sifat) ushbu ibora “O`zbek tilining izohli lug`ati” va “O`zbek tilining frazeologik lug`at” ida qayd etilgan bo`lib, “*tirikchilik, yashash uchun zarur narsalari but, muhayyo, hech narsadan kamchiligi yo`q, bekam-uko`st, to`kis*” ma`nolarini bildirish bilan birga ijobiy baho (uslubiy bo`yoq) ham ifodalangan, birikmaga teng, sifat frazema. *Sartarosh u dunyo, bu dunyo xor bo`lmaydi. Hamma vaqt noni butun (dedi kampir Shodiga)* (Э.РАИМОВ, АЖАБ ҚИШЛОҚ).

Noni yarimta mazkur ibora “O`zbek tilining izohli lug`ati”da qayd etilgan bo`lib, “*biror sherik yoki raqobatchi tufayli topish-tutishi kamaygan, yetishmay qolgan*”¹ degan ma`noni anglatadi, birikmaga teng, sifat frazema. Varianti: **Non(i) yarimta bo`ldi** kimning- **non(i)ni yarimta qilmoq** kim kimning - tirikchilik uchun zarur ayrim narsalardan mahrum bo`lmoq; biror sherik yoki raqobatchi tufayli topish-tutishi kamaygan, yetishmay qolgan.

Bitta noni ikkita bo`ldi – mazkur ibora lug`atlarda qayd etilmagan, “*tinmay mehnat qilishi natijasida tirikchiligi yaxshilanmoq, ro`zg`ori but bo`lmoq*” ma`nolari ijobiy baho (uslubiy bo`yoq) semasi bilan qoplangan, gapga teng, fe`l frazema. *Nima, Qobilov kelib, nonimiz yarimta bo`lib qoldimi, aksincha, qo`lni-qo`lga berib ishlasangiz, bitta noningiz ikkita bo`ladi.* (С.Махкамов, Шогирд).

Non yemas – mazkur ibora lug`atlarda qatd etilmagan, badiiy asarlarda uchraydi. Xalqimizda “*pishiq, ziqna, ortiqcha sarf-harajatga toqati yo`q inson*”ga nisbatan mana shunday ibora qo`llanadi. Frazemaning ifoda plani birikmaga teng, pishiq, ziqna ma`nolari bilan birga salbiy baho (uslubiy bo`yoq) ham ifodalangan, sifat frazema. *Avvalgi rahbarlar bilan oramiz yaxshi edi. Bunisi yangi odam, o`lgudek non yemas ko`rinadi. O`sha kuniyam So`poq damlab qo`ygan oshga turmay ketdi-qoldi.* (Ў. ҲОШИМОВ, ИККИ ЭШИК ОРАСИ, 236-б.)

Non bermas iborasi ham lug`atlarda qayd etilmagan, belgi bildiradi. Ziqna, haddan ortiq pishiq insonga nisbatan aytiladi. Birikmaga teng, ziqna, “*haddan tashqari pishiq*” ma`nosi bilan birga salbiy baho semasi bilan ifodalangan, sifat frazema.

¹ Ўзбек тилининг изохли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 3-ж. – Б. 57.

Non topmoq (ot+fe'l) mazkur ibora lug'atlarda qayd etilmagan, badiiy asarlarda uchraydi, “*mehnat qilib, ishlab, tirikchilik uchun pul topish*” semasiga ega, birikma shaklida, fe'l frazema, frazemaning salbiy yoki ijobiy baho sema ifodalashi kontekst mazmunidan kelib chiqadi. Varianti: **nonini topib yemoq**. *Eh-ha, bu bolalar qachon ulg'ayadi-yu qachon o'zining nonini topib yeydigan bo'ladi!* (F. Fuлом, Менинг ўғригина болам). *Men bu yerga so'filik qilib, maktab tutib non topgani kelgan emasman, padari buzrukvorim o'zlariga to'q kishi. Men qishloqqa ilm-ma'rifat urug'ini sochgani kelganman.* (A. Қаҳҳор, Ўтмишдан эртақлар, 153-б.) *U dastlab qamoqqa tushganida o'g'rilik bilan non topish, tirikchilik qilish oson emasligini angladi.* (Т.Малик, Шайтанат, 4-ж., 240-б.) *Ocharchilik boshlanib, bir burda non topish uchun boshqalar Makkaga borib kelishga ham rozi bo'lgan paytlar uning dasturxonida non bo'lardi.* (N. Eshonqul, Urush odamlari, 33-b.) *Urush – biz halol peshona teri bilan non topib yeyishni, qo'sh haydash, ekin ekishimizni istamaydi.* (N. Eshonqul, Urush odamlari, 65-b.) *Negaki, peshona teri bilan topilgan non halol bo'ladi.* (G'azal to'qish ham ish ekanmi? “Allomalar ibрати”, 32-40-b.).

Non gadoyi frazemasi “O'zbek tilining izohli lug'ati”da qayd etilgan. Varianti: **Non gadoyi bo'lib qolmoq**. “Nonga zor”, “kambag'al-qashshoq”¹ degan ma'nolari bilan birga salbiy baho semasi bilan qoplangan, birikmaga teng, sifat frazema. *U yo o'zini o'ldirardi, yo xizmatkor yigit bilan bir yurtga qochib, kambag'allikda, non gadoyi bo'lib yashardi.* (Ойбек, Танланган асарлар). *Oqpodshohning urushi boylarga huzur-halovat keltirdi, lekin fuqaroni non gadoyi qildi.* (Ойбек, Қутлуғ қон, 176-б.)

Non yemoq frazemasi “O'zbek tilining izohli lug'ati” va frazeologik lug'atlarda qayd etilgan. Ma'nosi: “*kim biror narsadan foydalanib tirikchilik o'tkazmoq, kun kechirmoq*”. Varianti: **nonini yemoq** kim nimaning. “*Oshnangiz ig'vo bilan non yeb yurgan mansabparast bir odam*”, - dedi Shukurjon. (O.Ёқубов. Ота изидан)

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 3-ж. – Б. 57.

Doim hovli, yer janjalidan non yeb yuradigan bir ellikboshi, afandining yo`lini to`sib, ko`rgan tushini aytib berdi. (Латифалар).

Odam qoni oqqan joyda mehr-oqibat, baraka ko`tariladi. U yerning nonini yegan qonxo`r bo`ladi, deyar edi otam bechora. (N. Eshonqul, Urush odamlari, 27-b.)

Non sindirish (ushatish) mazkur frazema ‘O`zbek tilining izohli lug`ati’da qayd etilgan. Nikoh to`yi marosimlarining bir qismi: qiz tomon, ya`ni uning otionalari sovchi yuborgan tomonga o`z roziligini bergach, sovchilar keltirgan dasturxon ochilib, shu rozilik belgisi sifatida non sindirilishi va to`y bilan bog`liq masalalarning belgilanishi, hal qilinishi¹. – *Ha-a, mening qizimni aytayapsizmi? Keldi, keldi, hali-hozircha eskichasiga non sindirib qo`ydik. – Non sindirdilaringizmi?* (Т. Мурод, Отамдан қолган далалар, 129-б.)

Birovning nonini yarimta qilib qo`ymoq (отбить хлеб (у кого) frazemasida “Ruscha-o`zbekcha frazeologik lug`at”da qayd etilgan. “*ishini, daromadini tortib olmoq*” ma`nosiga teng. Fe`l frazema, kengaygan birikma. *Dadam ketmonni tez va yaxshi peshlashi ustiga xat bilishi, nazarimda, bozorboshidagi usta Turdialining nonini yarimta qilib qo`ydi.* (А.Қахҳор, Ўтмишдан эртақлар, 107-б.)

Non-u qoq bilan kun kechirmoq (перебиваться с хлеба на квас) frazemasida “Ruscha-o`zbekcha frazeologik lug`at”da qayd etilgan bo`lib, so`zlashuv tilida qo`llanadi. Ushbu frazemaning mazmun planida “*ro`zg`orini zo`rg`a tebratmoq*”, “*qiyinchilikda, qattiqchilikda yashamoq*” ma`nolari ifodalangan², fe`l frazema. *Bizning xorimizda faqat Motining ahvoli durustroq xolos, chunki u boy xo`jayinning qo`lida turadi, qolgan hammamiz non-u qoq bilangina yashaymiz.*

O`z ko`mach³iga kul tortmoq frazemasida “O`zbek tilining izohli lug`ati”da qayd etilgan bo`lib, “o`z manfaati uchun ishlamoq, o`ziga o`zi qayg`urmoq” ma`nolari ifodalangan. Fe`l frazema. *Har kim o`z ko`machiga o`zi kul tortadigan..*

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 3-ж. – Б. 57.

² Содикова М. Русча-ўзбекча фразеологик луғат. Тошкент: Фан, 1972. – Б. 135.

³ Кўмач – иссиқ кулга кўмиб пишириладиган нон. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 2-ж. – Б. 455.

bir zamonda inson bolasi ota-onasidan bemahal ajralar ekan, unga bundan og'ir kulfat yo`q. (П.Турсун, Ўқитувчи)

Suvga tushgan nondek shilqillab qolmoq frazemasini lug'atlarda qayd etilmagan, uning mazmun planida "bo'shashmoq" ma'nosi ifodalangan, birikmaga teng, fe'l frazema. *Bir necha kunlardan beri Safar bo'zchi xursand edi. Mulla Abdurahmonning xizmatidan chiqishga o'zim sababchi bo'ldim, deb o'ylar; o'z so'zi bilan mulla Abdurahmon kabi bir kishining suvga tushgan nondek shilqillab qolishiga "Ko'rpangga qarab oyoq uzat, mullavachcha!" deb o'zicha kulib qo'yar edi.* (А. Қодирий, Меҳробдан чаён, 154-б.)

Non ursin iborasi "O'zbek tilining frazeologik lug'ati"da qayd etilgan bo'lib, nonni o'rta qasam ichishni bildiradi. O'zbek xalqi orasida qasam ichish yoki qarg'ash hollarida nonni o'rta qasam qo'yishadi, chunki u muqaddas, undan yuqori ne'mat yo`q ekanligini hamma birday tushunadi. Non lafzi halollik, to'g'rilik, iymonu vijdon ramzi hamdir. Non qo'yilgan joyda yolg'on so'zlamalik, nonni ushlab ichilgan qasamga minbad xiyonat qilmaslik buning isbotidir.

Varianti: **non ursin agar.**

– *Nima qilay, -dedim jiqqa yosh to'la ko'zlarimni ko'ziga qadab. – Ont ichaymi! Non ursin! Kutmasam, non ko'r qilsin, Kimsan aka!* (Ў. Ҳошимов, Икки эшик ораси, 90-б.)

– *Bilmayman. Non ursin agar, bilmayman! Kechirasiz...* (А. Қаҳҳор, Сеп, 196-б.)

Noniga sherik bo'lmoq iborasi lug'atlarda qayd etilmagan. Badiiy matnlarda uchraydi. КИМНИНГ; *Usta Mo'minning o'zi besh jon, biz to'rt jon. Bularning noniga sherik bo'lishimiz na ammamga, na uning eriga hech qanchalik malol kelmasa ham, "mehmonning izzati uch kun", dadam diqqat, ertalab chiqib ketganicha kechqurun kelardi.* (А. Қаҳҳор, Ўтмишдан эртақлар, 164-б.)

Usta Mo'min o'zi ayolmand odam, shunday ochlik zamonda bironing noniga sherik bo'lish insofdanmi? (А. Қаҳҳор, Ўтмишдан эртақлар, 161-б.)

Gadoydan non tilaydigan frazemasini lug'atlarda uchramaydi, badiiy matnda kuzatishimiz mumkin. Gadoydan non tilaydigan frazemasining semantik tarkibida

“*qashshoq, haddan tashqari kambag`al*” ma`nolari salbiy baho (uslubiy bo`yoq) semasi bilan qoplangan, birikmaga teng, sifat frazema. *Qiziq ekansan, oyog`idagini yechib beradimi, bu yerdagilar hammasi – gadoydan non tilaydigan qashshoqlar; – juftingni qanoting ostiga olib ucha ket, lochin!* (Ойбек Қутлуғ қон, 228-б.)

Birov bilan non-qatiq bo`lmoq – (быть с кем-либо в дружеских, приятельских отношениях, сдружиться) Mazkur ibora “Ruscha-o`zbekcha frazeologik lug`at”da qayd etilgan bo`lib, “*kim bilandir yaqin tanish bo`lib ketmoq, do`st bo`lmoq*” ma`nolarini ifodalaydi. Varianti: non-qatiq; non- qatiq bo`lmoq.

Nonni betashvish yemoq frazemasi lug`atlarda uchramaydi, badiiy matnda kuzatishimiz mumkin, “*hotirjamlikda yashamoq, tinchlikda hayot kechirmoq*” mazmuniga ega, fe`l frazema. *Manzura shubhasiz, qaynona-qaynotasining umri o`tgan, erining kindik qoni to`kilgan shu eski hovlini, bir tishlam nonni betashvish yemoq baxtini tanlagan bo`lardi.* (Т.Малик, Шайтанат, 4-жилд, 284-б.)

Non-namak bo`lmoq – *suhbatda bo`lmoq, birgalikda ovqatlanmoq; biror o`tirishda, mehmonda birga bo`lmoq*¹.

Suvga tushgan nondek shilqillab qolmoq – “*bo`shashmoq, xafsalasi pir bo`lmoq*”. *Bir necha kunlardan beri Safar bo`zchi xursand edi. Mulla Abdurahmonning xizmatidan chiqishga o`zim sabab bo`ldim, deb o`ylar; o`z so`zi bilan mulla Abdurahmon kabi bir kishining suvga tushgan nondek shilqillab qolishiga “Ko`rpannga qarab oyoq uzat, mullavachcha!” deb o`zicha kulib qo`yar edi.* (А. Қодирий, Мехробдан чаён, 154-б.)

Non-u qoqqa bog`lamoq – (Садиться (сесть) хлеб и (на) воду) mazkur frazema “Ruscha-o`zbekcha frazeologik lug`at”da keltirilgan bo`lib “o`zini qantarmoq, yeyishdan, ichishdan siqmoq” degan mazmunga teng.

Pulga non topilmaydigan iborasi lug`atlarda qayd etilmagan, badiiy matnda uchraydi. “*Qiyin zamon, og`ir sharoit*” degan ma`noni bildiradi. *Narx-navo ko`tarilib ketdi. Qimmatchilik hademay pulga non topilmaydigan qahatchilikka aylandi.* (А.Қаххор, Ўтмишдан эртаклар, 132-б.)

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2010. – 4-ж. – Б.58.

Non(i)ni halollamoq iborasi lug'atlarda ko'rsatilmagan. "Topgan pulini, yoki birovdan ko'rgan yordami evaziga mehnati bilan javob qaytarish" kabi ma'nolarni bildiradi. Birikmaga teng, fe'lli birikma.

Non yemaslik – ushbu frazema lug'atlarda keltirilmagan. Badiiy mantda kuzatiladi. *Anvar ikki muftining g'iybatlarini yaxshi bilsa ham, Abdurahmonning bu g'iybatida ishtiroki borligini sezmas edi. Faqat yaqindan beri Sultonali mirzo Abdurahmonning bunda ishtiroki borligiga voqif bo'ldi. Hatto shu to'g'rida Anvarga ba'zi so'zlarni ham aytdi. "Mulla Abdurahmondan **non yemaymiz**, sizga qarshi qattiq quturgan ikki itimiz bor edi, endi uchinchisini o'zingiz keltirganga o'xshaysiz...".* (A.Қодирий, Мехробдан чаён, 146-б.)

Yuqoridagilardan tashqari, badiiy matnlarda non uzvli frazeologizmlarni kuzatish mumkin:

*Valixon so'fi dadamdan bir-ikki kun arazlab yurdi-yu, oradan o'tgan gap tarqalib ketsa **maktabdorlik nonidan benasib bo'lishdan** qo'rqdi shekilli, bir kuni do'konga keldi.* (A.Қахҳор, Ўтмишдан эртақлар, 92-б.)

*Sizning yo'rig'ingiz boshqa. O'zingiz yaxshi ko'rib, o'qib kelyapsiz. Sizga o'xshaganlar ko'paysa mendaqalarga **non qolmaydi**.* (Т. Малик, Шайтанат, 4-жилд, 161-б.)

*Bir sidra kiyim-kechak, kunlik yeyish uchun **bir burda noni bilan** odamning baxtli bo'lishi mumkinmi?* (Т.Малик, Шайтанат, 4-жилд, 334-б.)

*Shu gapingga **noma'qulni nonini yebsan!** Olib tush pastga!* (Т. Мурод, Отамдан қолган далалар, 195-б.)


*Kunjara bersam, yemasa nima qilayin? **Zog'ora non otligga yo'q bo'lsa, nima qilayin?*** (Т. Мурод, Бу дунёда ўлиб бўлмайдди, 283-б.)

Tuyaning ko'ziday non anqoga shapig' – mazkur ibora lug'atlarda qayd etilmagan. Ma'nosi tirikchilik og'ir degan birikmaga teng. (**анқога шапиг'-ниҳоятда тансиқ, кам**) *Замонни ўзинг кўриб турибсан, тириклик тошдан қаттиқ, туянинг кўзидай нон анқога шапиг.* (Ғ. Ғулом, Менинг ўғригина болам, 158-б.)

Non uzvli frazeologizmlarni ma'no ottenkasiga ko'ra quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Ijobiy ma'nodagi non uzvli frazemalar: *noni ko'paysin, noni butun, nonni moy bilan yemoq, bitta noni ikkita bo'lmoq, nonini halollamoq, non topmoq, non sindirmoq.*

2. Salbiy ma'nodagi non uzvli frazemalar: *non ko'r qilsin, non ursin, nonini tuya qilmoq, noni yarimta, non yemas, non bermas, non gadoyi, birovning nonini yarimta qilib qo'ymoq, non-u qoq bilan kun kechirmoq, nondan benasib bo'lmoq.*



1. 2-rasm. Non uzvli frazeologizmlarning ma'no ottenkasiga ko'ra turlari.

Non uzvli frazemalarni shakl va ma'no munosabatiga ko'ra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

Frazeologik omonimiya frazemalarning ifoda planidagi, ya'ni shakldagi, tuzilishdagi tenglik hodisasidir.

Erkin birikma bilan frazema (turg'un birikma) o'rtasidagi shakliy tenglik hodisasi frazeologik omonimiya emas, *frazeologik omonimlik* sanaladi. Bunday holatda "omonimiya" va "omonimlik" terminlari o'zaro farqlanadi. Chunonchi:

1. Non yemoq (erkin birikma) – "*qornini to'ydirmoq*", "*ovqatlanmoq*" ma'nosida qo'llanadi; *Har kim o'z choynagidan choy ichar, o'z noni bilan mayizini yeyar, bir-biroviga oling-oling yo`q edi.* (G'.G`ulom, Shum bola, 107-b.) **Non yemoq** (turg'un birikma, frazema) – "*biror narsadan (voqea, janjal, chaqmacha qarlik) foydalanib, tirikchilik o'tkazmoq*" ma'nosida. Keltirilgan misollarda, ya'ni erkin va turg'un birikmalar o'rtasida shakliy tenglik borligini ko'ramiz. Bunday shakliy tenglik omonimlik sirasiga kiradi.

2. Non sindirish (yoki *ushatish*) (erkin birikma) – "*yeyish, oziqlanish, qorin to'ydirish maqsadida non sindirish*" ma'nosini bildiradi; *Nonni ushat, choyni*

ich, qo`makaylik qilmay yaxshi chaynab yeya ber, bolam. (G`. Gulom, Shum bola, 107-b.) **Non sindirish (ushatish)** (turg`un birikma, frazema) – “*marosim, nikoh to`yi marosimlarining bir qismi*” ma`nosida¹. Ushbu shakliy tenglik ham omonimlik sirasiga kiradi. – *Ha-a, mening qizimni aytayapsizmi? Keldi, keldi, hali-hozircha eskichasiga non sindirib qo`ydik.* – **Non sindirdilaringizmi?** (T. Мурод, Отамдан қолган далалар, 129-б.)

3. **Nonni moy bilan yemoq** (erkin birikma) – “*nonni boshqa yegulik bilan (odatda qaymoq, sariyog` bilan) qo`shib yeyish*” ma`nosini bildiradi; **Nonni moy bilan yemoq** (turg`un birikma, frazema) – “*yegani oldida, yemagani ketida bo`lmoq*”, “*mo`l-ko`lchilikda, farovon hayotda yashamoq*” ma`nolarini bildiradi. Bu shakliy tenglik ham omonimlik hisoblanadi.

Frazemalarning ma`no munosabati asosida frazeologik sinonimiya va frazeologik antonimiya hodisalari yuzaga keladi.

1. Frazeologik sinonimlar. Bir xil umumiy ma`noga ega, ma`no nozikligi, uslubiy bo`yog`i va boshqa jihatlariga ko`ra farqlanuvchi frazeologik birliklar. Masalan, *non gadoyi, nonu qoq bilan kun kechirmoq, quruq non va suvga tang`imoq, pulga non topilmaydigan, zog`ora non otliqqa yo`q* (kambag`al); *nonini tuya qilmoq, birovning nonini yarimta qilib qo`ymoq* (birovning haqini o`zlashtirmoq); *non ursin, non ko`r qilsin* (qarg`ish, qasam ichish); *noni butun, nonni moy bilan yemoq* (to`q, farovon yashash);

2. Frazeologik antonimlar. Ikki frazemaning o`zaro zid ma`no ifodalashidir. Bunday hodisani non uzvli frazeologizmlarda ham uchratishimiz mumkin: *noni yarimta – noni butun; nonu qoq bilan kun kechirmoq – nonni moy bilan yemoq; noni butun – non gadoyi.*

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2010. – 3-ж. – Б.57.

2.2. Non uzvli paremalarning semantik va uslubiy-badiiy xususiyatlari

Maqol, matal va aforizmlar tilshunoslikda **paremalar** deb yuritiladi.

Grammatik jihatdan gap hoida shakllangan, alohida ritmik-melodik xususiyatlarga ega, xalq donishmandligi mahsuli bo'lgan barqaror birikmalar **maqol** sanaladi.

Grammatik jihatdan gap hoida shakllangan, hayotiy voqelikni ixcham, lo'nda, ta'sirchan ifodalovchi xalq donishmandligi mahsuli bo'lgan, o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llanuvchi barqaror birikmalar **matal** deyiladi.

Xalq maqollari ajdodlarimizning badiiy tafakkuri samarasi bo'lib, muayyan voqelikdan chiqargan hukm-xulosalarini ifoda etishda turli badiiy obrazlardan, usul va vositalardan foydalanganlar. Maqollar poetikasi masalasi muhim va murakkab bo'lib, bu janrning ixcham shaklga ega bo'lishi, biroq ijtimoiy-falsafiy mazmuni chuqur ekani bilan belgilanadi. Bu murakkablik ixcham shaklda chuqur mazmuni ifodalash bilan bog'liqdir.

Maqollarning poetik formasi she'riy o'lchov, hijo, qofiya. Assonans, ellipsis kabi badiiy vositalarning qo'llanishini tekshirishni talab qiladi.

Maqollarda tasviriy ifoda vositalaridan foydalanilganda, matnning badiiy-estetik ta'sirchanlik funksiyasi ortadi. O'zbek maqollari nutqda faollashganda, nutq jarayonini go'zallashtiradi, obrazli ifoda tinglovchida o'ziga xos badiiy zavq paydo qiladi. Badiiy-estetik ta'sirchanlikni yuzaga chiqarishda o'xshatish, sifatlash, ritmik-sintaktik parallelizmlar, alliteratsiya, anafora, saj, giperbola, antiteza, metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi ko'plab badiiy vositalarning o'rni katta¹.

Ko'chim turlaridan metafora maqollarda ko'p qo'llanadi. Maqollar negizida ko'pincha metafora turadi. Ma'lumki, metaforada bir predmetning belgi-xususiyatlari ikkinchi predmetga tashqi o'xshashlik asosida ko'chiriladi. Ular

¹ Темирова М. Ўзбек ва қирғиз халқ мақолларининг типологик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2017. – №1.

o`rtasidagi o`zaro o`xshashlik o`xshatish (tashbeh)dan farqli bo`ladi. Metaforaning o`xshatishdan farqi ham o`xshatish vositasining ishtirok etmasligidir.

Xalq donoligining obrazli ifodasi – maqollar murakkab poetik butunlik bo`lib, bir necha komponentlarning uzviy birikmasidan tashkil topadi. Maqolga xos obrazlarni xalq atrofdagi borliq hodisalar, real hayot voqealaridan olib yaratganligi jihatidan ular o`ziga xos milliydir.

O`zbek xalq og`zaki ijodi maqol va matallarga boy. O`zbek tili paremalari sirasida non uzvli maqol va matallar ham salmoqli o`rin tutadi. Non uzvli paremiyalarning ko`pida nonning ulug`ligi, muqaddas va mo`tabarligi xalqona ta`kidlanadi hamda uqtiriladi: *“Non – asli non”*, *“Nondan ulug` narsa yo`q”*, *“Non aziz”* kabi.¹

Xalq maqollarida aytilishicha, *“Non – imondan aziz”*. Bugina emas, non – hayot, tirikchilik asosi, shu bois ham uning hididan azizroq, xushbo`yroq hid yo`q: *“Non hidida hayot bor, Har mag`zida mamot bor”*.

Aksariyat bir necha variantli paremiyalarda nonning uvog`i ham azizligi uqtiriladi: *“Non – ushog`i bilan non”*, *“Nonning ushog`i (uvog`i) ham non”* // *Non ham non, uvog`i (ushog`i) ham non*, *“Non bolasi – nonushoq”* kabi.

Ko`rinadiki, mazkur matal variantdorligi *ushog`* va *uvoq* so`zlari variantdorligi asosida yuzaga kelgan bo`lib, semantik jihatdan bir umumiy mazmunga ega.

Xalq maqollarida nonning kelib chiqishiga ham alohida e`tibor berilgani holda, uning asosi bo`lgan donni ham e`zozlash, qadrlash lozimligi xalqona qiyoslar bilan ta`kidlanadi: *“Bir boshog` don – Bir savat non”*, *“Don ayagan donga etar, Non ayagan – nonga”*, *“Donni yiqqan donodir”*² kabi.

Barcha xalq maqollari kabi bu non uzvli maqollarda ham mazmuniy quymalik, kenglik, purma`nolilik hamda badiiyat mujassam. Birinchidan, tahlilga

¹ Бердиёров Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремнологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – Б. 151, 152. Барча маталлар шу манбадан олинган.

² Ўзбек халқ мақоллари: (Тўплам). / (Редкол.: К.Имомов ва бошқ.; Тўпловчилар: Т.Мирзаев, Б.Саримсоқов, А.Мусоқулов). – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашр., 1989. – Б. 365, 370. Барча мақоллар шу манбадан олинган.

tortilgan maqollarga sa’j – nasriy qofiyadoshlik o’zgacha ko’rk bag’ishlagan, mohiyatan aloqador *non, don* ohangdosh so’zlarining turli shakllarda takror-takror qo‘llanishi ularning badiyatini ta’minlagan.

Masalan, “*Non yemasning ishiga boq!*”, “*Non pishguncha kulcha kuyadi*” kabi bir necha maqollar to’g’ri va majoziy, ya’ni tag ma’noga ham ega. Chunonchi, “*Non pishguncha kulcha kuyadi*” maqolini “*Katta to’qoch pishguncha kichik to’qoch kuyibdi*” varianti ham bor. *To’qoch* so’zi *kulcha non* degan ma’noni anglatadi. Mazkur paremiya asli “*Tandirga yopilgan katta nonga issiq o’tguncha kulcha qizaradi, non qizarguncha kulcha kuyib ketadi*”, degan mazmuni anglatadi. Olimlar bu maqolning majoziy ma’nosini “... akasi uylanguncha ukasi yoxud opasi erga tekkuncha singlisi shoshib ketadi. Shunday hollarda mazkur maqolni istehzo, hazil-mutoyiba tarzida qo‘llaydilar”, – deb izohlaganlar. Bizningcha, uning majoziy mazmuni kengroq: bunda birlamchi, asosiy ishni bajarguncha ikkinchi bir yumushning kechikishi, qolib ketishiga ishora bor.

“*Non nonvoyda, kaliti – osmonda*”, “*Non qo’ynimda: it keynimda*”, “*Non qadrini och bilar, kiyim qadrini – yalang’och*” kabi maqol-u matallarda nonni topish qiyin va mushkulligi xalqona qiyoslar bilan ta’kidlanib, insonni mehnatsevarlikka, halollikka chorlov kuzatiladi: “*Non emoqchi bo’lsang, o’tin tashishdan erinma!*”, “*Ter to’ksang, don to’kasan, Don to’ksang, non to’kasan*”, “*Hunar bo’lsa qo’lingda, non topilar yo’lingda*”, “*Hunari yo’q – non gadoyi*”, “*Hunarmandning noni butun*”, “*Mardning noni butun*” kabi.

O’zbek tilida non uzvli maqol va matallarning ko’pligi boshqa xalqlar qatori o’zbeklarda ham qadim-qadimdan nonni eng aziz, eng muqaddas, eng ulug’, eng bebaho ne’mat sifatida qadrlanishi bilan bog’liq milliy qadriyatlar natijasidir. Yana shuni ta’kidlash joizki, xalqimiz juda ko’p yuksak insoniy hislatlarni ham non uzvli maqollar vositasida ana shunday ulug’ ne’matlarga ishora qilish, qiyoslash asnosida uqtiradi.

Bu turkumga mansub ayrim matallarda eng aziz, eng muqaddas ne’mat misolida hayotiy qiyoslar bilan kishilarni kamtarlik, kamgaplik kabi ijobiy

xislatlarga undov ham kuzatiladi: “*Nonni katta tishlasang ham, gapni katta gapirma!*”, “*Nonsiz yashab bo‘lmas, gapni oshab bo‘lmas*” kabi.

Xalq paremiyalarida nonni qadrlash, e’zozlashga chorlov bilan bir qatorda ayash lozimligi, shundagina u baraka qilishi ta’kid bilan uqtiriladi: “*Oshni ayasang – oshga, Non ayasang – nonga*”, “*Nonning ikki kunligini ye, go’shtning bir kunligini*”, “*Nonni uvatma, qadrini otma*” kabi.

Non uzvli paremiyalarga sintaktik parallelizm o’zgacha badiiylik baxsh etgan. Yonma-yon qo‘llangan gaplar, sintagmalarning bir xil sintaktik qurilishga ega bo‘lishi **parallelizm** (yunon. *parallelos* – yonma-yon boruvchi) deyiladi.¹ Masalan, “*Ovchi non qidirar, Konchi – kon*”, “*Non – nonda, kaliti – osmonda*”, “*Non ham non, uvog‘i (ushog‘i) ham non*”, “*Nonsiz yashab bo‘lmas, gapni oshab bo‘lmas*”, “*Non mo‘lligi – el to‘qligi*” kabi. Ko‘rinadiki, bu paremiyalar bir xil modeldagi sintaktik birliklarning parallelizmi asosiga qurilgan. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, non uzvli paremiyalarda oddiy bir xil tuzilgan jumlar takrori emas, ularning mazmunan va mantiqiy bog‘liqligi, birda ifodalangan voqelikdan ikkinchisi yuzaga kelishi kuzatiladi.

Parallelizmlar paremiyalardagi didaktik mazmunga, fikrga izoh berish barobarida, ta’sirchanlik va ohangdorlikning ortishiga, yorqin va jozibali bo‘lishiga xizmat qilgan. Maqollarga badiiy oro, bezak bergan.² Demak, maqollardagi parallelizmlar xalq donologi, mohirligi va chechanligi mahsulidir.

Boshqa xalq maqollarida bo‘lgani kabi non uzvli maqollarda fikrni qisqa va lo‘nda ifodalash **lakonizm** kuzatiladi. Bu ellipsis vositasida ifodalangan. **Ellipsis** (yun. *ellepsis* – tushish, tushirilish) ma’lum gap bo‘laklarining muayyan maqsadda tushirilishi.³ Masalan, “*Ovchi non qidirar, Konchi – kon*”, “*Nonning ikki kunligini ye, go’shtning bir kunligini*”, “*Non qadrini och bilar, kiyim qadrini yalang‘och*”, “*Son tegmaganga son tegdi, zog‘ora tegmaganga – non*”, “*Don ayagan donga*

¹ Йўлдошев М., Ядгоров Қ. Бадий матнинг лисоний таҳлили. – Тошкент, 2007. – Б.76.

² Қаранг. Мамажонов А., Шукуров Ш. Параллелизм – нотиклик санъатининг муҳим омили // Ҳозирги ўзбек тилшунослиги ва адабиётшунослигининг долзарб муаммолари (Ўзбекистон Республикасининг 10 йиллиги ҳамда АндДУнинг 70 йиллигига бағишланган аюбғулумхонлик анжумани материаллари). – Андижон, 2001. – Б.8.

³ Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007. – Б.70-71.

yetar, non ayagan – nonga”, “Nasiya nonning ham kuyugi bo`lar, ham kesagi”, “Borning bolasi mol deb turar, yo`qning bolasi – non”, “Hunar oshxo`rga osh berar, nonxo`rga – non”, “Yaxshi joningga o`rtoq, yomon – noningga” maqollari qo`shma gap shaklida bo`lib, ikkinchi sodda gap tarkibida kesim (qidirar, ye) ellipsisga uchragan. Demak, ellipsis asosida mazkur maqollarda ixchamlik va ifodalilik yuzaga kelgan.

Non uzvli maqollar tahlilidan ko`rinadiki, nonni e`zozlash, qadrlash, suyish, ulug`lash kabi umummilliy ezgu qadriyatlar yuksak chechantik, donolik, mahorat va hayotiy tajribalar mahsuli sifatida tug`ilgan maqol va matallarda avloddan-avlodga o`tib kelmoqda. Bu ezgu an`ana yana bardavom yashaydi.

O`zbek tilida non uzvli maqol va matallarning ko`pligi boshqa xalqlar qatori o`zbeklarda ham qadim-qadimdan nonni eng aziz, eng muqaddas, eng ulug`, eng bebaho ne`mat sifatida qadrlanishi bilan bog`liq milliy qadriyatlar natijasidir. Yana shuni ta`kidlash joizki, xalqimiz juda ko`p yuksak insoniy xislatlarni ham non uzvli maqollar vositasida ana shunday ulug` ne`matlarga ishora qilish, qiyoslash asnosida uqtiradi.

Fikrni ta`sirli, ifodali, uslubiy jihatdan tasviriy qilib berishda o`zbek xalq maqol va matallarida antonimlardan foydalaniladi. Qarama-qarshi tushunchalarni zidlash yo`li bilan berish ta`sirchanlikni oshiradi. Buni non uzvli paremalarda ham kuzatish mumkin: “**Avval** – non, **keyin** – in`om”, “**Boyning** jon bergani bilinmas, **kambag`alning** – non bergani”, “**Butun** non – **azobi** jon, **yarim** non – **huzuri** jon”, “**Yaxshi** joningga o`rtoq, **yomon** – noningga”, “**Yaxshi** qiz erta turib soch tarar, **yomon** qiz erta turib non so`rar”, “**Kambag`al** non deydi, **boy** – qon”, “**Mehnatli** non – shakar, **mehnatsiz** non – zahar”, “**Och** o`lganning qo`ynidan **to`q** to`qoch qidirar”, “**G`ayratliga** – buyuk o`lja, **g`ayratsizga** kuyuk kulcha”, “**Boyning** ko`zi xonda – **g`aribning** ko`zi – nonda”.

Bulardan tashqari, non uzvli paremalarda **tardiaks** ham kuzatiladi: “**Nonni** mehnat topgan, mehnatni non topgan”.

O`zbek tilida **eskirgan so`zlar** qo`llangan maqollarni ham kuzatish mumkin: “**Kolxoz bilan el boy bo`ldi, yegani non-u moy bo`ldi**”.

Tilimizga yangi soʻzlar kirib kelishi natijasida non uzvli paremlar tarkibidagi ayrim soʻzlar ham **istorizm-tarixiy soʻzlarga** aylangan: “*Omoch chiqdi – koʻmoch keldi*”.

Inversiya hodisasi kuzatiladi: “*Otasini qilgan xor, burda nonga boʻlgan zor*”.

Non uzvli paremlarda variantlilik. Muayyan maʼnoga ega boʻlgan til birligining shakllan turlicha yuritilishi, yaʼni tovushlar tizimi (yoki fonetik), leksik, morfemik jihatdan birmuncha farq qilgan holda bir necha shaklda qoʻllanishi shu til birligining variantlari hisoblanadi. Jumladan, maqol va matallar ham semantik (yaʼni maʼno) jihatdan bir xil, ammo fonetik va morfologik jihatidan ikki va undan ortiq koʻrinishga ega boʻladi.

Oʻzbek tilida non uzvli paremlarda ham variantlilik kuzatiladi:

Boyning koʻzi – xonda, yoʻqning koʻzi – nonda // Boyning koʻzi – xonda, gʻaribning koʻzi – nonda.

Non – nonda, kaliti osmonda // non – novvoyda, kaliti – osmonda.

Nonni tovaning qizigʻida yop // nonni tandirning qizigʻida yop.

Yotar qursoqqa – yorti non // yotar qursoqqa yarti non.

Kulchali bola – suyumli // kulchali bola suyumli kelar.

Har supraning noni boshqa // har supraning noni bor.

Ochga bir non – qalqon // ochga bir non qalqon boʻlib koʻrinar.

Boyning koʻzi – xonda, yoʻqning koʻzi – nonda // boyning koʻzi – xonda, gʻaribning koʻzi – nonda.

Yarimta nonim – oromi jonim // yarimta non – rohati jon.

Son tegmasga son tegdi, savat-savat non tegdi // son tegmaganga son tegdi, zogʻora tegmaganga – non.

Frazemalar va paremlar tilning barqaror birliklari sifatida umumiylikka ega. Shu bois kuzatishlarimizga koʻra, til taraqqiyoti davomida ularning bir-biriga oʻtishi ham kuzatiladi.

Frazemalar asosida vujudga kelgan paremlar yoki paremlardan yuzaga kelgan frazemalar: “*Bedavlatning noni yarim*”, “*Hunari yoʻq – non gadoyi*”, “*Oʻz*

ko`mochingga kul tortma”, “*Non gadosi bo`lsang ham, yurt gadosi bo`lma*”, “*Hunarmadning noni butun*”, “*Mardning noni – butun*”, “*Non yemasning ishiga boq*”;

Non uzvli paremalarni mazmun-mohiyatiga ko`ra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1) **pand-nasihati mazmunidagi maqollar:** “*Non yemoqchi bo`lsang, o`tin tashishdan erinma*”, “*Yovga noningni bersang ham, siringni berma*”;

2) **ota-onani qadrlashga undovchi maqollar:** “*Otasini og`ritgan el ichida xor bo`lar, onasini og`ritgan parcha nonga zor bo`lar*”;

3) **tejamkorlik undovchi maqollar:** “*Qo`ynida noni borning, qorni to`q*”, “*Oshni ayasang – oshga, Nonni ayasang – nonga*”, “*Bir boshog` don – bir savat non*”;

4) **tekinxo`rlikni qoralovchi maqollar:** “*Beli og`rimaganning non yeyishini ko`r*”;

5) **mehnatsevarlikni ulug`lovchi maqollar:** “*Ishlab yegan zog`orang tanangga yog`dek yoqar*”, “*Ishlasang, nonni katta tishlaysan, Ishlamasang, kesak tishlarsan*”, “*Ketmon chopdim – non tishladim*”, “*Sen ishni quvsang, non seni quvar*”;

6) **kamtarlikka undovchi maqollar:** “*Katta gap gapirma, Katta non tishla*”;

7) **vatanparvarlikka undovchi maqollar:** “*Non gadosi bo`lsang ham, Yurt gadosi bo`lma*”, “*Noning borida el tani, kuching borida yo`l tani*”, “*Nonga e`tibor – elga e`tibor*”;

8) **saxiylik va baxillik haqidagi maqollar:** “*Xasisdan don tilaguncha, Gadoydan non tila*”, “*Mulladan jon chiqsa chiqar, non chiqmas*”, “*Baxildan pul chiqmas, patirdan qil chiqmas*”;

9) **sabr, qanoatga undovchi maqollar:** “*Bitta non bilan to`yadigan qorin yarimta non bilan ham to`yadi*”, “*Yarimta nonim – oromi jonim*”, “*Butun non – azobi jon, Yarim non – huzuri jon*”.

Bob bo'yicha xulosalar

1. Har qanday xalq hayotdagi voqea-hodisalarni, jarayonlarni obrazli, ta'sirchan ifodalashga harakat qiladi va bunda ko'proq o'zi yaxshi bilgan, tasavvur qiladigan narsa-buyumlarni ifodalovchi lug'aviy birliklardan va lisoniy ramzlardan keng foydalanadi. Buning dalilini o'zbek tili frazeologiyasida alohida leksik-semantik guruhni tashkil etuvchi non uzvli frazeologizmlarda ham ko'rish mumkin.

2. O'zbek xalqi non uzvli frazeologizmlarda ezgu niyatlarga yo'g'rilgan olqish, duolarini va razil, jirkanch, ikkiyuzlamachi kimsalarga nisbatan qarg'ishlarini ifodalagan.

3. Non uzvli frazeologizmlarning ma'no doirasi juda keng bo'lib, bu ma'nolar non lug'aviy birligining *eng aziz ne'mat, eng tansiq yegulik, mehmondo'stlik, hurmat, to'kinlik, tinchlik, rizq-u ro'z, boylik, mehnat mahsuli, hayot bardavomligi* kabi semalari asosida shakllangan.

4. Non uzvli paremlar mazmun mohiyatiga ko'ra, kishilarni, xususan, yoshlarni mehnatsevarlik, halollik, kamtarlik, insoniylik kabi ijobiy xislatlarga chorlovchi milliy qadriyatlarning lisoniy ifodasidir.

5. Non uzvli paremlar boshqa o'zbek maqol matallari kabi sa'j, tazod, o'xsahitish, sifatlash va ellipsis kabi badiiy tasviriy vositalar bilan sayqallangan.

6. Non uzvli paremlar o'zbek xalqining ulug', aziz, mo'tabar, muqaddas ne'matga xos qarashlari, urf-odatlari, an'alarining lisoniy va madaniy ifodasi sifatida milliy konseptlar sirasiga mansub lingvokulturologik birliklardir.

3-bob. O`zbek adabiy tilidagi osh va tuz uzvli frazeologizm va paremiyalarning lingvokulturologik tahlili

3.1. Osh uzvli frazeologizm va paremiyalarning lug`aviy-ma`noviy, uslubiy-badiiy tahlili

Osh so`zining lug`aviy ma`nosi “O`zbek tilining izohli lug`ati”da berilgan bo`lib, quyidagi ma`nolarni bildiradi:

1) osh forscha yovg`on sho`rva, xo`rda; ovqat;

2) umuman har qanday ovqat, taom;

3) palov. *Osh damlamoq. Ilgarilari lag`mon yoki osh yeyish uchun nuqul korxonadan tashqariga chiqishga majbur bo`lar edik. Gazetadan. – O`ltiring, o`ltiring, mehmon! – dedi usta Farfi. – Oshga sabzi bosildi-pishdi. A.Qodiriy, O`tgan kunlar*¹.

O`zbek pazandaligida guruchdan tayyorlanadigan taomlar asosini palovlar tashkil etadi. Birinchidan, palov o`zbek xalqining eng sevimli taomi bo`lib, uni bayramlarda, katta yig`ilishlarda, tug`ilgan kunlarda, to`ylarda, hatto ta`ziyalarda ham tayyorlanadi. Ikkinchidan, palov tansiq taom sifatida g`oyat ishtahabaxsh serlazzat va to`qtutardir. Uni og`ir ishni boshlashdan oldin yoki keyin tayyorlaydilar. Yosh go`daklardan tortib qariyalargacha barcha yesa bo`laveradigan ovqatdir.

Uchinchidan, palov o`zbek mehmondo`stligining ramzi hisoblanadi, uni aziz mehmonga atab alohida hafsala bilan damlaydilar, katta-kichik mehmon-navozliklar palov oshisiz o`tmaydi. To`rtinchidan esa o`zbek oshpazligining o`ziga xosligini va milliy koloratni palovsiz tasavvur etib bo`lmaydi, necha yuzlab taomlar orasida palov milliy pazandalikning shoh taomi hisoblanadi.

Demak, xalqimizda osh azal-azaldan dasturxon ko`rki, o`zbek mehmondo`stligining ramzi, milliy taom ekanligi alohida ahamiyat kasb etadi.

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 3-ж. – Б.168.

Bularning barchasi esa tilimizda bir qator osh uzvli frazeologizmlarning yuzaga kelishiga sabab bo`lgan. Jumladan, *osh bo`lsin, oshga tushirmoq, osh qilmoq, og`zidagi oshni oldirmoq, oshiga pashsha tushirmoq, oshiga tuz solmoq, og`zi oshga yetmoq, oshiga sherik bo`lmoq, oshini yarimta qilmoq, oshini tatitmaslik, osh bermoq, maslahat oshi,*

Osh bo`lsin iborasi “O`zbek tilining izohli lug`ati”da qayd etilgan bo`lib, “yegan-ichganing tatisin, singsin, yoqsin” kabi tilak bildirish ma`nolarida ishlatiladi¹. Gapga teng, fe`l frazema. *Qulluq, osh bo`lsin! – dedi.* (T. Murod, Отамдан қолган далалар, 204-б.)

Og`zi oshga yetmoq *E sho`rlik, og`zing oshga yetganda burning qonadi-ya.* (С. Аҳмад, Хукм, 48-б.)

Qani endi u hozir yonida bo`lsa, yurt tinchigan, dehqonning og`zi oshga yetib, ro`zg`origa baraka kirgan vaqtlarni ko`rsa. (С. Аҳмад, Хукм, 258-б.)

Osh bermoq kim kimga to`y-marosim munosabati bilan katta qozonda palov damlatib, ziyofat o`tkazmoq. Varianti: *osh berildi.*²(206-б.)

Osh qilmoq – 1) hazm qilmoq, singdirmoq; 2) birovning molini, pulini yeb ketmoq, o`zlashtirib yubormoq³.

Tayyor osh mehnatsiz daromad. *Senlar esa... tayyor oshga ega bo`lding, tayyor oshga! Shunday ekan, tayyor oshni ye endi. Og`zingdagi oshni yut endi.* (T. Murod, Бу дунёда ўлиб бўлмайдди, 402-бет.)

Chekkagirlar to`dadan uloq ololmaydi. Chekkada turib, tayyor oshni poylaydi. (T. Murod, Ot kishnagan oqshom, 50-b.)

Oshga pashsha tushdi iborasi “yaqin kishilar shuhbati nomaqbul kishining kelishi bilan bo`lindi, buzildi” degan ma`noni bildiradi. Gapga teng, fe`l frazema.

Osh(i)ni oshab, yoshini yashamoq kim [o`zining] umrning poyoniga yetay deb qolmoq, ko`p qismini yashab bo`lmoq. Variantlari: yosh(i)ni yashab, osh(i)ni oshamoq. **Sinonimi:** yosh(i) bir joyga borib qoldi, yosh(i) qaytib qoldi.

¹ Ўзбек тилининг изохли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2008. – 3-ж. – Б.168.

² Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Қомуслар Бош таҳририяти, 1992.

³ Ўзбек тилининг изохли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедиясиб 2008. – 3-ж. – Б.168.

Og`zidagi oshini oldirmoq iborasi “*qo`ldan chiqarmoq, boy bermoq*” degan ma`noni bildiradi. Birikmaga teng, fe`l frazema. *Omad deganlari salomini-da bermaydi. Og`zimizdagi oshimizni-da oldirib qo`yamiz.* (T. Murod, Ot kishnagan oqshom, 99-b.)

Bu nima, og`zidagi oshni birovga oldirish? (Oybek, Qutluq qon, 43-b.)

Tayyor oshga bakovul – Boshqalar mehnat samarasidan o`zi hissa qo`shmay foydalanmoq.

Tayyor oshga qoshiq solmoq kim boshqalar mehnati samarasidan foydalanmoq. (246-b.)

So`k oshiga surnay amaldagi ish dovruc qilinganiga arzimligini bildirib aytiladigan ibora.

So`kkan(i) – so`k oshi, urgan(i) – ur oshi. Kimningdir urishga, so`kishga haqli ekanini bildirib aytiladigan ibora.

Oshiga sherik bo`lmoq *Yo`ldosh chavandozga ziyon bermadim, oshiga sherik bo`lmadim.* (T. Murod, Ot kishnagan oqshom, 44-b.)

Ovozimni balandlatdim – onamizdan gap eshitdim:

Kekirdagingni ko`p cho`za berma, oshingni yeyin! (T. Murod, Oтамдан qolgan dalalar, 112-b.)

O`zbek xalq og`zaki ijodi maqol, matal va iboralarga boy. O`zbek tili paremiyalari va frazeologizmlari sirasida osh uzvli maqol va iboralar ham alohida ahamiyatga ega. Biz izlanishlar davomida 300 ga yaqin osh uzvli paremiyalar va 30 dan ziyod osh uzvli frazeologizmlarni to`plashga muvaffaq bo`ldik.

Arizabozlar bo`lmasa, kattalar biz avom el og`zidagi oshni yulib oladi!
(T. Murod, Ot kishnagan oqshom, 82-b.)

Boshqa maqollarda bo`lgani singari osh uzvli paremiyalarda ham fikrni qisqa va lo`nda ifodalash kuzatiladi. Bu hodisa ellipsis deyiladi. Masalan, “*Osh bergan oshini olar, tosh bergan – toshini*”, “*Osh berganga osh ber, tosh berganga – tosh*”, “*Osh bo`lsa, qozon topilar, jon bo`lsa – jahon*”, “*Jon bo`lsa, jonon bo`lar, osh bo`lsa – qozon*”, “*Jon bo`lsa, jahon topilar, osh bo`lsa – qozon*”, “*Insofli odam oshini yer, insofsiz odam – boshini*”, “*Ishchan oshini yer, dangasa –*

boshini”, “*To`g`ri oshini yer, egri boshini*”, “*Hunar oshxo`rga osh berar, nonxo`rga – non*” kabi.

So`z san`atining mahsuli sifatida maqollar ham badiiyat hodisalaridir. Ularda bir so`zning o`nlab ma`no qirralari, badiiy tasvir vositalari, poetik ko`chimlarining barcha namunalarini uchratish mumkin.

Maqollar o`zbek xalq og`zaki ijodining ommaviy janrlaridan biridir. Asrlar davomida og`izdan og`izga o`tib kelgan maqollar xalqimizning dunyoqarashi, jamiyatga bo`lgan munosabati, tarixi va ruhiy holatini ifodalaydi.

Maqollarda hayotiy tajribalar natijasida kelib chiqqan qimmatli fikrlarning xulosasi ifodalanadi. Maqollar ko`pincha poetik shaklga ega bo`ladi. Ular o`zining ixcham, pishiq va puxtaligi bilan ham xalq og`zaki ijodining boshqa turlaridan farq qiladi.

Barcha paremiyalar singari osh uzvli paremiyalarda ham xalqning mehnatsevarligi, ayniqsa, bir-biriga ko`maklashib, kengashib qilingan mehnat serunum bo`lishi haqida uqtiriladi: “*Betashvish bosh qayda, mehnatsiz osh qayda*”, “*Yoz bo`lsa-yu, qish bo`lmasa, osh bo`lsa-yu, ish bo`lmasa*”, “*Yozda boshi pishmaganning, qishda oshi pishmas*”, “*Yozda boshi qaynamaganning, qishda oshi qaynamas*”, “*Ishdan qochding – oshdan qochding*”, “*Ishyoqmasga osh berma*”, “*Ishyoqmasga osh yoqmas*”, “*Ishi yo`qning oshi yo`q*”, “*Ishlab topganing – osh, ishlamay topganing – tosh*”, “*Ishlab topganning oshi – lazzatli*”, “*Ishlagan osh tishlar, ishlamagan tosh tishlar*”, “*Ishlaganning og`zi oshga tegar, ishlamaganning boshi toshga tegar*”, “*Ishlamasdan osh yegan dardga yo`liqar*”, “*Ihsiz boshim – ohsiz boshim*”, “*Ishchan oshini yer, dangasa – boshini*”, “*Mehnatli osh – osh bo`lur, mehnatsiz osh – tosh*”, “*Mehnatsiz topilgan oshdan, mehnatda topilgan tosh yaxshi*”, “*Mehnatsiz turmush – tuzsiz osh*”, “*Tek turmaganga osh ber, ikki qo`liga ish ber*”, “*Nomard oshda, mard ishda bilinar*”, “*Oson yerda osh qayda*”, “*Ish oshga tortar, yalqovlik – boshga*” kabi.

Bundan tashqari, osh uzvli paremiyalarda so`zlash madaniyati haqida ham fikr yuritiladi: “*Osh kelsa, yegin, so`z kelsa, degin*”, “*Oshni katta oshasang ham, gapni katta gapirma*”, “*Oshning – sozi, gapning – ozi*”, “*Gap bilan osh pishmas*”,

“Til yugurigi – boshga, oyoq yugurigi – oshga”, “Odam so`zi bilan sinalar, osh – tuzi bilan”, “Ochiq til osh yedirar, achchiq til tosh yedirar”, “Tuzsiz oshning epi oson, tuzsiz gapning epi qiyin”, “Yaxshi osh berguncha, yaxshi so`z ber”, “Yaxshi og`izga – osh, yomon og`izga – tosh”, “Oyoq yugurigi – oshga, til yugurigi boshga” kabi.

Fikrni ta`sirli, ifodali, uslubiy jihatdan tasviriy qilib berishda xalq maqol va matallarida antonimlardan ko`p foydalaniladi. Qarama-qarshi tushunchalarni zidlash yo`li bilan berish ta`sirchanlikni oshiradi. Buni, ayniqsa, o`zbek xalq maqollarida uchratish mumkin. Antonimlar maqol va matal janrlarida ham muhim uslubiy vosita sanaladi – hayotiy tajriba umumlashmalarini maqol va matallar tiliga xos uslubda ta`sirchan ifodalash imkonini yaratadi. Osh uzvli paremiyalarda zid ma`noli so`zlar ham keng qo`llanilgan, bu o`z navbatida, ularning ta`sirchanligini oshiradi: *“Osh – kattadan, suv – kichikdan”, “Buyurgan oshga tish tegar, yoz tegmasa, qish tegar”, “Yozning yuvindisi – qishga osh-qatiq”, “Yomon og`izga – tosh, yaxshi og`izga – osh”, “Yomon og`riqqa – yaxshi osh”, “Yomon qiliqdan – ko`zga yosh, yaxshi qiliqdan – og`izga osh”, “Yomonga osh berguncha, yaxshiga bosh ber”, “Yomonning oshiga borguncha, yaxshining ishiga bor”, “Yosh kelsa – ishga, qari kelsa – oshga”, “Insofli odam oshini yer, insofsiz odam – boshini”, “Ishchan oshini yer, dangasa – boshini”, “Kamtar bo`lsang, osh ko`p, manman bo`lsang, tosh ko`p”, “Mard ish ustida bilinar, nomard – osh ustida”, “Mehnatli osh – osh bo`lur, mehnatsiz osh – tosh”, “Minnatli oshdan beminnat musht yaxshi”, “To`gri oshini yer, egri boshini”, “Oz qayg`uni osh bosar, ko`p qayg`uni do`st bosar”, “Yaxshi og`izga – osh, yomon og`izga – tosh”, “Tor yerda osh yeguncha, keng yerda musht yegan yaxshi”, “Ochning ko`zi ekmakda, to`qning ko`zi hikmatda” kabilar.*

Osh uzvli paremalarni semantik jihatdan quyidagicha guruhlash mumkin:

1) mehnatsevarlikni ulug`lovchi va unga chorlovchi: *“Ish bor yerda-osh bor”, “Ish oshga tortar, yalqovlik boshga”, “Ishlab topganning oshi – lazatli”,*

“Ishlaganning og`zi oshga tegar, ishlamaganning boshi toshga tegar”, “Mehnatli osh – osh bo`lur, mehnatsiz osh – tosh”, “Oson yerda osh qayda?”;

2) so`zlash madaniyati xususidagi maqollar: *“Osh kelsa, yegin, so`z kelsa, degin”, “Oshni katta oshasang ham, gapni katta gapirma”, “Oshning ta`mi tuz bilan, odamning ta`mi so`z bilan”, “Yomon og`izga – tosh, yaxshi og`izga – osh”, “Tuzsiz oshning epi oson, tuzsiz gapning epi qiyin”, “Yaxshi osh berguncha, yaxshi so`z ber”, “Ortiqcha tuz oshni buzar, ortiqcha so`z boshni uzar”*

3) ahillik, totuvlik haqidagi maqollar: *“Og`ayni biriksa, bosh ko`payar, ovsin biriksa, osh ko`payar”, “Boshi yo`qning oshi yo`q”, “Og`a-ining totuv bo`lsa, ot ko`p, opa-singling totuv bo`lsa, osh ko`p”;*

4) yalqovlik, dangasalikni qoralovchi maqollar: *“Ishga – no`noq, oshga – o`rtoq”, “Ishga – cho`loq, oshga – qo`noq”, “Ishdan qochding – oshdan qochding”, “Osh quli – ish kasali”, “Yalqovning oshi – yovg`on”, “Bilmas kishiga ish yo`q, ishsiz kishiga osh yo`q”;*

5) sabr, qanoat xususidagi maqollar: *“Oz oshim – g`avg`osiz boshim”, “Oz oshga indov yo`q”;*

6) kattalarga hurmat va izzat haqidagi maqollar: *“Yosh kelsa – ishga, qari kelsa – oshga”;*

7) ochko`zlik, badnafslilik haqidagi maqollar: *“Och kishiga osh qo`ysang, betingga qaramas”;*

8) tejamkorlikka chorlovchi maqollar: *“Osh qolsa – davlat, ish qolsa – mehnat”;*

9) axloqiy pand-nasihat ruhidagi maqollar: *“Qarindoshingni oshga chaqir, choshga chaqirma”, “Tor yerda osh yeguncha, keng yerda musht yegan yaxshi”, “Qo`lidan ishini olsang, og`zidan oshini olasan”;*


10) donolik va nodonlik xususidagi maqollar: *“Ayron – osh bo`lmas, nodon – bosh bo`lmas”;*

11) do`stlik haqidagi maqollar: *“Do`stsiz boshim – tuzsiz oshim”, “To`yar oshni ko`z taniydi, oshnani ko`ngil taniydi”;*

12) mehmondo`stlik haqidagi maqollar: “Yo`qcha guruch osh bo`lur, mehmon ko`ngli shod bo`lur”, “Yaxshi mehmon osh ustiga, yomon mehmon bosh ustiga”;

13) baxillik va ochko`zlik xususidagi maqollar: “Bermasning oshi pishmas, pishsa ham, qozondan tushmas”, “Birovga bersam – esiz oshim, uyda tursa – sasir oshim”;

14) halollik haqidagi maqollar: “Ko`ngil tortgan osh halol”, “Minnatlik oshdan, beminnat musht yaxshi”, “Oshing halol bo`lsa ko`chada ich!”.



3-rasm. Osh uzvli paremlarning semantik tavsifi.

Osh uzvli paremlarning variantlashuvi:

Ish vaqtida – ayyor, osh vaqtida – tayyor // ish desa – ayyor, osh desa – tayyor;

Yig`lagan ko`zga yosh, tilagan og`izga osh // yig`lagan ko`zga yosh, yegan og`izga osh;

Yomon xotin oshga o`rtoq, boshga – to`qmoq // yomon oshga o`rtoq, boshga –to`qmoq;

Insofli odam oshini yer, insofsiz odam – boshini // insofli oshini yer, insofsiz – boshini;

Oz oshim – g`avg`osiz boshim // ozgina oshim – g`avg`osiz boshim.

Osh uzvli paremiyalar badiiy matnlarda:

– Chavandoz bova!-dedi. – Oshingni yesa-da mard yesin, boshingni yesa-da mard yesin! Bunday tantilikdan keyin, haq sizdan aylansin!-dedi. (Tog`ay Murod, Ot kishnagan oqshom, 37-b.)

Metafora tildagi universal hodisa. Ko`chirish, asosan metafora, metonimiya, funksional va sinekdoxa usullari asosida yuzaga keladi. Qorishiq holda (metafora-funksional, metafora-metonimiya, metonimiya-funksional tarzida) ham uchraydi.

M.Mirtojiev mazkur hodisani quyidagicha tasniflaydi: Hosila ma`no hosil qiluvchi ma`no referentlarining o`zaro o`xshashligiga qarab metafora, aloqadorligiga qarab metonimiya, biri butun va ikkinchisi uning bo`lagi bo`lishiga qarab sinekdoxa, birining vazifasini ikkinchisi olishiga qarab vazifadoshlik, birining hosilasi ikkinchisi bo`lishiga qarab tobelilik kabi ko`rinishlarda belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, metafora narsa-predmet, belgi va harakatning o`zaro tashqi o`xshashlik asosida ko`chishiga asoslanadi. Shuningdek, metaforik ko`chim jonsiz predmet, narsa va hodisalarni jonlantirish natijasida ham sodir bo`ladi va bir sezgi a`zosi tomonidan his etilgan narsa-predmet, harakat, jarayonning metaforik asosda boshqa bir sezgi a`zosi faoliyatiga sababchi bo`lishiga ham asoslanadi.¹

Leksikologiyaga doir adabiyotlarda to`g`ri ta`kidlanganidek, yangi ma`noning hosil bo`lishi nom ko`chishi asosida yuz berishi e`tirof etilgani (ya`ni bunda nom ko`chishi nazarda tutilgani) holda, ko`pchilik ishlarda bu hodisa

¹ Тошева Д. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори дис. автореф., 2018. – Б.114.

«ma'no ko'chishi», «ma'no ko'chishi natijasida yangi ma'no hosil bo'lishi» deb ta'riflanadi. Aslida ma'no ko'chishi hodisasi yo'q.¹

Metafora – narsa, belgi yoki harakatga xos atamaning (so'zning) o'zaro o'xshashligi bo'lgan boshqa narsa, belgi, harakat haqidagi tushuncha uchun ham qo'llanishi, shu tushunchaning ham nomiga o'tishi (aylanishi)dir.²

Aristotel: «Metafora – so'z ma'nosini o'zgartirgan holda turdan xilga yoki xildan turga, xildan xilga yoki analogiyalarga asosan ko'chirish», – deb yozadi.³

O'zbek tilshunosligida metafora, xususan, uni yuzaga keltiruvchi omillar, uning yondosh hodisalar bilan munosabati, matndagi o'rni, lisoniy va badiiy vazifasi masalasi keng tadqiq etilgan.⁴

Metafora kognitiv nuqtai nazardan qaralsa, oddiygina ko'chim emas, balki insongagina xos olamni anglash vositalaridan biridir. Inson tabiat, xususan, o'simliklar va hayvonot dunyosini hamda jamiyatni o'zaro qiyoslash, o'xshatish, ya'ni metaforalar vositasida ko'radi, angelaydi.

Matal maqollar qatori non tuz osh bilan bogliq o'xshatishlar ham shakllangan. Turg'un o'xshatishlar ham xalqning lisoniy va madaniy qarashlari mahsulidir.

Suvga tushgan (bo'lka) nonday, nonday;

Frazeologik birliklar haqida tushuncha. Frazeologizmlar xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli ma'lumotlar manbai. Frazeologizmlarning milliy-madaniy semantikasi. Realialar bilan bog'liq frazeologizmlar. Frazeologizmlarda muayyan xalq miflari, udumlari, rivoyatlari, taomillari, urf-odatlar, ma'naviyati, axloqi va h.k. haqidagi tasavvurlarining mujassamlashishi. Frazeologizmlarning mifologema va arxetiplar bilan aloqasi.

¹ Каранг. Жамоа. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 220.

² Жамоа. Ўзбек тили лексикологияси, 21-б.

³ Аристотель. Риторика. Поэтика. – М.: Лабиринт, 2000. – С. 170-171.

⁴ Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент, 1975; Шукуров И. Перенос значение слов в современном узбекском языке: Автореф. дис. канд филолог. наук. – Ташкент, 1978; Қобулжонова Г. Метафоранинг системавий талқини: Филол. фан. ном. ... диссер. автореф. – Тошкент, 2000. – 23 б.; Қобулова У. Метафорик матнда интеграл ва дифференциал семалар муносабати (ўзбек халқ топишмоқлари мисолида): Филол. фан. ном. ... диссер. автореф. – Тошкент, 2007. – 24 б.; Усмонова С. Метафора // Ўзбек тили ва адабиёти, 1964. – № 4. – Б. 34-35.

Mashhur V.I.Dal shunday deydi: “Maqollarning tag ma’noga ega birlik sifatida qabul qilinishi ulardagi xilma-xil mazmuni va keng ko‘lamdagi fikrni yoritishga imkon beradi”.

N.Uluqov, H.Solixo‘jaevalar fikricha, hikmatlar hayotdan tug‘iladi, har qanday hikmatu maqol-u matalning mantiqiy asosi hayot.¹

¹ Улуков Н., Солихўжаева Х. Ҳабиб Саъдулла шеърларининг лингвопоэтикаси. – Наманган: “Наманган” нашриёти, 2017. – Б. 68.

3.2. Tuz uzvli frazeologizm va paremiyalarning semantik, uslubiy-badiiy xususiyatlari

Tuz eski o`zbek tiliga *namak* til birligi sifatida fors-tojik tilidan o`zlashgan. Lekin u *namak* shaklida mustaqil birlik sifatida hozirgi o`zbek tilida faol qo`llanmaydi. Faqat *nonu namak* sifatida boshqa so`zlar bilan birgalikda keladi. Hozirgi o`zbek tilida mana shu *nonu namak* ning kalkasi sifatida *nonu tuz* birikmasi yasalgan.

Namak so`zi Orxun-Yenisey yozma manbalarida, Mahmud Koshg`ariy lug`atida, “Tafsir” da, Qipchoq tili lug`atida qayd etilmagan. Alisher Navoiy asarlarida va lug`atida *namak*¹ ko`rinishida uchraydi.

*Malohattin ul la`l koni namak,
Ajab ermas andin rivoyat malih*

(ФК.110).

Eski tojik tilida *namak*, hozirgi eroniy tillarda: tojik tilida *namak*, fors tilida *namak*, afg`on tilida *namak* kabi shaklda iste`molda bo`lgan. Ushbu so`z tarixan yasama bo`lib, u *nam+ak* kabi morfologik tarkibga ega. Bunda mazkur moddaning tabiiy belgisi, xususiyati uning doimo nam, namliroq bo`lishi asosida *namak* (ya`ni namli, nami bor) deb atalgan. So`z tarkibidagi -ak yordamchi morfemasi asos anglatadigan ma`noning kamligini, kichikligini ko`rsatadi².

Tuz “O`zbek tilining izohli lug`ati”da quyidagicha izoh etilgan:

1) kimyoviy. Molekulalari tarkibiga kislota qoldig`i bilan bog`langan metal atomlari kirgan murakkab moddalar.

2) shu birikmaning ovqat uchun ishlatiladigan bir turi(natriy xlorid). *Osh tuzi. Qoratikan tuz. Mayda tuz. Yirik tuz. Oshga tuz solmoq.*

¹ Навоий асарлари учун қисқача луғат. – Тошкент: Фан, 1993. – Б.199.

² Бафоев Б. Кўхна сўзлар тарихи. – Тошкент: Фан, 1991. – Б.135.

3) umuman, ovqat, yegulik-ichgulik narsa. *Jazirama kunlarda tong sahardan kechqurun qorong`u tushguncha tuz totmay och yurish ko`p odamning sillasini quritardi..* P.Qodirov. Yulduzli tunlar.

4) *ko`chma* Kimsaning boshqa odamga bergan, yedirgan-ichirgan (yegan-ichgan) ovqati. *Tuz bermoq. Tuzini yemoq (ichmoq)*¹

O`tmishda tuz juda ham qimmat bo`lganligi sababli, tuz pul vazifasini ham bajargan. Bugungi kunga kelib, tuzning narxi juda arzon, yuzaki qaragnimizda ko`pincha oziq-ovqat yoki oziq-ovqatga solinadigan mahsulot sifatida ishlatiladi. Xalq og`zaki ijodi, manbalardagi dalillar tuz leksemasining kengligi, u o`tmishda aziz, ardoqli bo`lganligi yoki tuz uzvli maqollarning ma`no doirasi kengligidan dalolat beradi. Tuz deganda olgan narsasiga javobgarlik, mas`uliyatlilik, halollik, tuz totigan joydan, shaxsdan qarzdorlik, yaqinlik kabi yuksak qadriyatlarni tushunamizki, bu tushunchalar tuzning azal-azaldan qadri baland bo`lganligini bildiradi.

Mana shunday yuksak tushunchalar tufayli tilimizda *tuz* uzvli frazeologizmlar ham shakllangan: *tuz bermoq, tuzini ichmoq, tuz totmoq, tuzini oqlamoq (yoki halollamoq), yarasiga tuz sepmoq, tuzini ichib tuzlug`iga tupurmoq, bergan tuziga rozi bo`lmaslik, tuzim ko`r qilgur, tuz yalab, tuz tatimaslik, tuz totimaslik, tuz totmaslik, tuz-namak bo`lmoq, oftobda tuz yalamoq, tuz ichmoq, tuz tortmoq, tuz-nasiba, tuzlamoq;*

Tuz bermoq – “*kim kimga xonadonida ovqat bilan ta`minlamoq*” ma`nosi bilan birga ijobiy baho (uslubiy bo`yoq) ham ifodalangan, birikma shaklida, fe`l frazema.

Tuz(i)ni ichmoq – “*kim kimning xonadonida ovqatidan bahramand bo`lmoq*” ma`nosi bilan birga ijobiy baho ifodalangan, birikmaga teng, fe`l frazema. Varianti: *tuz ichmoq; tuz(i)ni yemoq.*

Tuz totmoq frazemasining varianti: *tuz(i)ni totmoq, “rizqlanmoq, ovqatlanmoq”* degan ma`nolarni bildiradi. Birikmaga teng, ijobiy bo`yoqdorlikka ega.

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2008. – 4-ж. – Б.179.

Men ikki kun tuz totayin dedim – totolmadim. Tomog`imdan tuz tugul, suv o`tmadi. (Т. Мурод, Отамдан қолган далалар, 161-б.)

Tuz(i)ni oqlamoq (yoki halollamoq) frazeması “O`zbek tilining izohli lug`ati” da qayd etilgan. “*Kim kimning sarf-mehnat zoe ketmaganini o`z faoliyati bilan isbot qilmoq*”. “*Kimsaning bergan osh-tuzi, boqqani, parvarish qilgani zoe ketmaganini isbot qilmoq, yaxshilikka yaxshilik qaytarmoq*” degan ma`noni bildiradi. **Bergan tuzimni halollamasang, bugun kecha enangdi o`zim olib yotaman...**(N. Eshonqul, Urush odamlari, 6-b.)

Tuz totmaslik iborasi lug`atlarda qayd etilmagan. Nimadir sabab bilan ovqatlanmaslik, och qolishlik. *Biz un so`rab borgandik...uch kun tuz totmagan edik.* (Н.Эшонқул, Бевақт чалинган бонг, 291-б.)

Lekin ovqatdan shubhalangan Mirzo Ulug`bek hanuz tuz totgani yo`q. (O.Yoqubov, Ulug`bek xazinası)

Uch kundan beri isitmalab, tuz totmay yotgan bu odamning tirikmi yo o`lik ekanini dastlab bilmadi. (Т. Малик, Шайтанат, 4-жилд, 207-б.)

Жойидан қимир этмайди. Кўз очмайди, туз тотмайди. (Т. Мурод, Отамдан қолган далалар, 82-б.)

Yarasiga tuz sepmoq iborasi “*gap yoki xatti-harakat bilan dardini kuchaytirmoq*” ma`nolarni bildiradi. *Bolam, shu mushtipar, shu baxtsiz onangning yarasiga tuz sepmasang, yurak-bag`rini qon qilmasang, dadang keltirgan xabarni aytaman.*(Ойбек, Танланган асарлар).

O`shanda imom shu gaplar bilan kifoyalanib, chiqib ketgan edi. Oz gapirsa ham yurakni tilib, tuz sepib qo`yganday bo`lgandi. (Т.Малик, Шайтанат, 4-жилд, 264-б.)

Tuz(i)ni ichib tuzlug`iga tupurmoq(tuplamoq) // Tuz(i)ni ichib, tuzlug`(i)ga tuflamoq frazeması *kim kimning nontepkilik qilmoq, yaxshilikka yomonlik qaytarmoq* ma`nosini anglatadi. Variantlari: *tuz(i)ni ichmoq, tuzlug`(i)ni bulg`atmoq; tuz(i)ni yeb, tuzlug`(i)ga tupurmoq; tuz(i)ni yeb, tuzlug`(i)ga tuflamoq.*

Sendaga, hukumatning tuzini ichib, tuzlig`iga tuflaydigan nontepki kerak emas. (С. Аҳмад, Хукм, 300-б.)

Tuzim ko`r qilgur iborasi qarg`ish ma`nosida qo`llanadi. *Bahridan o`tdim! Tarlon ko`r bo`ladi, Tarlonni tuzim ko`r qiladi...*(Т. Мурод, Ot kishnagan oqshom, 123-б.)

Tuz yalab iborasi “O`zbek tilining izohli lug`ati” da qayd etilgan bo`lib, “*hech narsa yemay-ichmay, qorinni juda-juda ochqatib, och holda*” degan ma`noni bildiradi¹. *Xatib domla panjshanba kunidan tuz yalab, ziyofatga borishga hozirlanadi.* (А.Қодирий, Обид кетмон.)

Tuzimni yalab frazemasida yuqoridagi *tuz yalab* iborasi bilan omonimlik hosil qiladi, ushbu frazemalarning omonimligi esa kontekstda yuzaga chiqadi. “*biror kimsaning mehmoni bo`lib, taomidan yemoq*” degan ma`noni bildiradi. *Uyimga kelib tuzimni yalab, eshigimdan yaltiroq to`n kiyib chiqsalar, hammaning og`zi yumiladi.*(Ойбек, Қутлуф қон, 219-б.)

Tuz tortmoq iborasi “O`zbek tilining izohli lug`ati”da qayd etilmagan, badiiy matnlarda uchraydi. “*Rizqi qo`shilgan, ana shu joyda rizqi bor*” degan ma`noni bildirib, ijobiy baho semaga ega, birikmaga teng, fe`l frazema: *Mayli, tuz tortgan ekan, kiraman, – dedi. Lekin birovingniyam betingga qayrilib qaramayman!* (Т. Мурод, Бу дунёда ўлиб бўлмайдим, 300-б.)

Tomog`idan tuz o`tmadi iborasi “*nimadir sabab bilan ishtahasi bo`lmaslik, ovqatlana olmaslik, yoki biror narsadan qo`rqanidanmi, kayfiyati yo`qligidanmi ovqatlana olmagan inson*”ga nisbatan mana shunday ibora qo`llanadi. Gapga teng, fe`l frazema. *Ko`nglim hadiksiradi. Tomog`imdan tuz o`tmadi.* (Т. Мурод, Ot kishnagan oqshom, 83-б.)

Tuz(i)ni totmoq frazemasida “*kim qayerning shart-sharoiti bilan bevosita, amalda sinashta bo`lmoq*” ma`nosiga teng.

Tuz(ini) yemoq: tuz(i)ni ichmoq iborasi “*kim kimning xonadonida ovqatidan bahramand bo`lmoq*” ma`nosini anglatadi. Varianti: *tuz ichmoq; tuz(i)ni yemoq.* Birikmaga teng, fe`l frazema.

¹ Ўзбек тилининг изохли луғати, 4-ж., 179-б.

***Tuz* uzvli frazemalarda variantlilik ham kuzatiladi:**

Variantlanish – barcha til birliklariga (fonemaga ham), shu jumladan, frazeologik birlikka ham mansub hodisa. Ko'p variantli iboralarning asosiy qismini ikki va uch variantli iboralar tashkil qiladi. Umuman, frazeologik birliklarda variantlilik boshqa til birliklaridagiga nisbatan kuchli bo'lib, bir iboraning variantlari soni o'ntagacha yetadi.

Frazeologik birliklarda bir iboraga bir necha variantni birlashtirish ularning:

a) turli-tuman o'zgartishlar sababli biri ikkinchisidan o'sib chiqqan bo'lishi, barchasi bir manbaga birlashuvi;

b) asosida ayni bir obrazning yotishi, (bu obrazning variantlarga ko'ra so'nish-so'nmasligidan, qay darajada uqilishidan qat'iy nazar);

v) ayni bir lug'aviy ma'noni anglatishi (o'zaro ma'no qirrasida, nutqiy, stilistik belgisida farq qilish-qilmasligidan qat'iy nazar); g) o'zaro o'sib chiqqan variantlar tarkibida umumiy so'z-komponentning bo'lishi asosga olinadi.

Variantlanish tufayli bir ibora boshqa bir iboraga aylanmaydi, bir iboraga xos obraz birligi, lug'aviy ma'no birligi saqlanadi. Variantlanish iboraga xos yaxlitlikning o'zi doirasida, shu yaxlitlik yo'l qo'ygan darajada voqe bo'ladi. Aks holda yo ibora yo'qqa chiqadi, yoki boshqa bir ibora barpo qilinadi¹.

Frazeologik variantlarda leksik variantlar va grammatik variantlar farqlanadi. Ibora tarkibida mustaqil turkum so'zi bilan ifodalangan komponentni o'zgartib hosil qilingan variantga leksik variant deyiladi. Bunda so'z-komponent:

- 1) almashtiriladi;
- 2) qo'shiladi;
- 3) tashlanadi.

Bulardan eng murakkabi – leksik almashtirish asosidagi variantlanish.

Frazemalarning shakl va ma'no munosabati asosida frazeologik omonimiya va frazeologik paronimiya yuzaga keladi.

¹ Ш.Раҳматуллаев Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 13-14.

Frazeologik omonimiya frazemalarning ifoda planidagi shakldagi, tuzilishdagi tenglik hodisasidir. *Tuz* uzvli frazeologizmlarda bunday hodisani kuzatishimiz mumkin:

1. *Tuz yalab* – “*hech narsa yemay-ichmay, qorinni juda-juda ochqatib, och holda*”: *Xatib domla panjshanba kunidan tuz yalab, ziyofatga borishga hozirlanadi.* (A.K.)

2. *Tuz yalab* – “*biror kimsaning mehmoni bo`lib, taomidan yemoq*”: *Uyimga kelib tuzimni yalab, eshigimdan yaltiroq to`n kiyib chiqsalar, hammaning og`zi yumiladi.*(O.)

Erkin birikma bilan frazema (turg`un birikma) o`rtasidagi shakliy tenglik hodisasi frazeologik omonimiya emas, frazeologik omonimlik sanaladi. Bunday hodisa *tuz* uzvli frazeologizm va erkin birikmalar o`rtasida ham kuzatiladi:

1. *Tuzlamoq* (erkin birikma) – “*tuz sepib qo`ymoq, tuz sepmoq, tuzga bulamoq*” ma`nosida;

2. *Tuzlamoq* (erkin birikma) – “*tuz sepib yoki namakobga solib, uzoq vaqt buzilmaydigan yegulik tayyorlamoq*”. *Oshko`klar va ularning ildizlari.. sabzavotlarni tuzlash, marinovka qilish va konservalashda juda ham bebahodir.* Gazetadan.

3. *Tuzlamoq* ham frazema sifatida “*gap bilan biror kimsani boplamoq, mot qilmoq*” ma`nosida, ko`proq so`zlashuv tilida qo`llanadi.

4. *Tuzlamoq* (turg`un birikma) “*boplab aldamoq, firib bermok, laqillatmoq*” ma`nosida qo`llanadi. *Qars ikki qo`ldan chiqar ekan! Ikkalamiz bir bo`lsak, Sultonni tuzlaymiz.* (Ch.)

Tuz uzvli paremalarni mazmun-mohiyatiga ko`ra quyidagicha guruhlash mumkin:

1) **insoniylikka undov, chorlov ma`nosida:** “*Bir kun tuz ichgan joyga, qirq kun salom qil*”

2) **me`yor va me`yorsizlik ma`nosida:** “*Tuz o`lchov bilan*”, “*Tuzsiz oshni it ichmas*”, “*Tuzsiz xamir tandirda turmas*”, “*Yemak tuz bilan, tuz o`lchov bilan*”;

So`zlashda ham, taomda ham, barcha narsalarda me`yor bo`lishi tuz tarkibli paremalarda yorqin ifodalangan.

Tuz uzvli paremalar quyidagi badiiy tasvir vositalari asosida sayqal topgan:

Ellipsisda biron bir bo`lak, ba`zan morfologik ko`rsatkich, ba`zan esa fonetik birlik ma`lum bir sababga ko`ra tushirib qoldiriladi. Tushirilgan birlik garchi tuzilishi jihatdan mavjud bo`lmasa-da, mantiqiy jihatdan ma`lum bo`ladi. Demak, tushirilgan birlik matnga o`ziga xos badiiylik bera oladi. Tuz uzvli paremalarda ham ellipsis hodisasi ko`p uchraydi, ellipsis tuz zuvli paremalarda tasviriylikni oshirish, ta`sirchanlikni kuchaytirishga yordam beradi: *“Ot tuz deydi, yigit – qiz”, “Tuya tuz deb yig`lar, yigit – qiz deb”, “Ovqatni tuz mazali qilar, odamni – so`z”, “Odam so`zi bilan sinalar, osh – tuzi bilan”;*

“Mehnatsiz turmush – tuzsiz osh” maqolida o`xshatish san`ati orqali insonlarni mehnat qilishga chorlangan va mehnatsiz o`tkazilayotgan umrni, hayotni go`yoki tuzsiz oshga o`xshatilgan, tuz taomga maza ta`m berganidek, mehnat ham hayotni go`zal qilishi ta`kidlangan. *Do`stsiz boshim – tuzsiz oshim* maqolida ham do`stsiz yashashni, do`sti yo`q insonni go`yoki tuzsiz oshga o`xshatilmoqda, tuzsiz taom bo`lmaganidek, do`stsiz inson ham haqiqiy inson emasligi tasvirlangan.

Antiteza grekcha *antithesis* qarama-qarshi qo`yish so`zidan olingan bo`lib, badiiy asarda voqea yoki tushunchalarni bir-biriga qarshilantirish orqali bir-biriga zid tushunchalarni yaqqol ifodalash va ularga qiyosiy xarakteristika berish vositasi. Antiteza tuz uzvli paremalarning ham ta`sirchanligini oshirishga xizmat qilgan: *“Bor yerda bol ham arzon, yo`q yerda tuz ham qimmat”, “Tuzsiz oshning epi oson, tuzsiz gapning epi qiyin”*.

Osh, tuz tarkibli frazeologizmlarning tilda shakllanishi juda qadimgi davrlarga borib taqaladi. Bunday maqollarning quyidagi asarlarda ham uchrashi fikrimizni tasdiqlaydi:

Non, osh, tuz uzvli paremiyalar Muhammad Sharif Gulxaniyning *“Zarbu-l-masal”* asarida ham keltirilgan:

“Og`iz bo`lma, oyoq bo`l”, eshitmadingmuki, “Oyoq yugurugi oshga, og`iz yugurugi boshg`a”.

Qadimgi buzurg mashoyixlardin bizga bir masal qolibdurki: “*Erga begsang oshingni, erlar silar boshingni, itga bersang oshingni, itlar g`ajir boshingni*”.(13b)

Bahaddiki vujudi vayronasi ma`mur bo`lub, obodonliqg`a yuzlandi, Kulonkir sultonning ilgarigi mehmonidin qolg`on oshi bor erdi, ani Ko`rqushning oldig`a qo`ydi, aydi: “*Oz oshga imdod yo`q*”. Anda Ko`rqush aydi:

– Karam na erdi, baxillik so`zin deding, ey shoh,

Oz oshni berguncha mundin ziyoda o`tu olov. (Z.13).

“*Oz oshim – g`avg`osiz boshim*”, deb yolg`uz inoyat qiling. Anda Ko`rqush aydi:

– *Osh egasi bilan totlig`.*

Kulonkir sulton:

– Xo`b bo`lur, *oshga deganda quruq kalla yugurur*, – deb qo`l uzataberdi.

Anda Kordon aydi:

– Er tilagan yerda aziz va yana aytibdurlarki: “Qizni oshiqiga ber”. Va yana bu masaldurkim: “*Qiz saqlaguncha tuz saqla*”...(Z.23)

Alqissa, Ko`rqushning mahr solishig`a va Kuykunak olishig`a bir necha qushlar hayron qolib, bir-birlarig`a aytishur erdilarkim: “*Beli og`rimaganning non yeyishiga boq*”.

“***Bir kun tuz ichgan joyingga qirq kun salom ber***”. Tuz qadimdan qimmat, aziz, ardoqli bo`lganligi sababli hozirga kelib ham uning qimmati bilan bog`liq qadriyatlar saqlangan. Xalq rivoyatlarida keltirilishicha, kunlardan bir kuni o`g`ri kechasi bir odamni uyiga o`g`rilikka tushadi, u yerto`ladan o`ziga kerakli narsalarni olib chiqib ketmoqchi bo`lganida qorong`uda ko`ziga nimadir yaltirab ko`rinadi. O`g`ri ajablanib, haligi narsani yalb ko`radi va biladiki, bu narsa tuz ekan. Shuning uchun u bu xonadondan o`grilik qila olmay qaytib chiqib ketadi. Tuzning qanchalik qadri baland, insonlar ongida tuzga nisbatan mana shunday tasavvurlar shakllanganligini mana shu kichik rivoyatdan ham bilib olsa bo`ladi.

Tuz-namak tushunchasi tuzga nisbatan kengroq tushunchalarni ifodalaydi. Bitta narsani topsa, teng bo`lishib yeyish, yoki ulfatchilik qilish, tuz-namakni bir nechta semalari bor ekan. Birga ovqatlanish, umumiy do`st bolib ahil-inoqchilikda bo`lish, uzoq vaqt topganini bo`lishish, baham korish semalariga ega.

Tuzini ichib tuzlugiga tupurmoq- kochma ma`noda, metafora. Oz manosida ham ishlatiladi.(tuz ichgan shaxs bitta, tuz bergan shaxs ikkinchi oddam, ikki shaxs munosabati bor, salbiy ottenkalik, buni shakllanishi tarixiy, bu maqolni hozirgi zamonga ham, avvalgi davrga ham o`girsak boladi, koproq kochma manoda qollanadi. ta`limga)

Til tizim sifatida uzluksiz harakatda, rivojlanishda bo`lib turadi, bu uning ijtimoiy mohiyatidan kelib chiqadi: til va jamiyat, til va ong, til va tafakkur o`rtasidagi ikki tomonlama aloqadorlik ularning bir-biriga ta`sirini belgilaydi – jamiyatda bo`lib turadigan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, iqtisodiy va ma`rifiy sohalardagi islohotlar tilning lug`at boyligida yangi-yangi so`z va atamalarning yuzaga kelishini, ayni paytda ma`lum so`z-leksemalarning eskirib, tarixiy kategoriyaga aylanishini taqozo qiladi. Bu jarayon tilning lug`at boyligida istorizm, arxaizm va neologizm kabi leksik birliklarni yuzaga keltiradi.¹

Non, osh, tuz tarkibli paremalarda ham quyidagicha istorizmlar kuzatiladi: **“Qalqonbozlik qiladi to`ppa oshi, nayzabozlik qiladi ugra oshi”**, **“Amirning oshidan – faqirning mushti yaxshi”**, **“Oz oshga yasovul bo`lma”**, **“Ketmon chopmoq – olmoq-solmoq, qo`sh haydamoq – bormoq-kelmoq, o`roq o`rmoq – o`ynamoq, hay-hay ishning og`iri, xamir qilmoq, non yopmoq”**, **“Kolxoz bilan el boy bo`ldi, yegani non-u moy bo`ldi”**, **“Ochko`zga bir non qalqon bo`lib ko`rinar”**, **“Omoch chiqdi – ko`moch keldi”**, **“Sovut kiyib ma`rakada jon bergan, ketmon urib kecha-kunduz non bergan”**, **“Tayyor oshga bakovul, yetim qizga yasovul”**.

Non, osh, tuz uzvli paremalarni ishlatilish doirasiga ko`ra quyidagicha guruhlashimiz mumkin:

¹ Jamolxonov H. Hozirgi o`zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. – B. 204.

1. Qoʻllanish doirasi chegaralanmagan paremlar millat vakillarining barchasi uchun umumiydir, ular barchaning nutqida bir xil darajada qoʻllanadi, barchaga tushunarli boʻladi: *“Oshing halol boʻlsa, koʻchada ich”, “Doʻstsiz boshim – tuzsiz oshim”, “Yoz boʻlsa-yu, qish boʻlmasa, osh boʻlsa-yu, ish boʻlmasa”, “Ish desa – ayyor, osh desa – tayyor”, “Osh qadrini och bilar, kiyim qadrini – yalangʻoch”;* *“Beli ogʻrimaganning non yeyishini koʻr”, “Hunar boʻlsa qoʻlingda, non topilar yoʻlingda”, “Bir kun tuz ihgan joyga qirq kun salom ber”, “Tuzini yeb tuzligʻiga tupurma”;*

2. Qoʻllanish doirasi chegaralangan paremlar, asosan, muayyan dialekt yoki sheva birligi boʻlib, umumtil va adabiy til doiralarida qoʻllanmaydi. Masalan, *“Osh ozga qoldi, bosh tozga qoldi”, “Qarindoshingni oshga chaqir, choshga chaqirma”, “Non – avliyo, osh – paygʻambar”, “Non chopon emas, ammo issiq tutadi”, “Osh totugʻi – tuz”, “Oshga – qatiq, betga – soliq”.*

Bob bo'yicha xulosalar

1. O'zbek tili lug'at boyligida osh uzvli frazeologizmlar va paremlar hamda ularning variantlari ham umummilliy konseptlarni ifodalovchi lingvokulturemlar sifatida alohida salmoqqa va ma'no mundarijasiga ega.

Bu osh, ya'ni palov o'zbek xalqi kundalik ijtimoiy hayotida muhim o'rin tutishi bilan izohlanadi.

2. Osh uzvli frazeologizm va paremlar ham yuzaga kelish davriga ko'ra tarixiy bo'lib, asrlar davomida shaklan va mazmunan boyib takomillashib o'zbek xalqining to'y, aza va boshqa milliy marosimlariga xos azaliy qadriyatlarini ifodalovchi va ularni kelgusi avlodlarga yetkazuvchi, bardavomligini saqlovchi umummilliy, lingvomadaniy vositadir.

3. Osh uzvli maqol va matallar, iboralar semantik jihatdan o'zbek xalqining oshga bo'lgan hurmat-ehtiromini va uning vositasida oilani, mehmonni qadrlash, mehnatni, kasb-hunarni sevish, ardoqlash, halol yashash kabi xalqona pand-u o'g'itlar, tasavvurlarning obrazli ta'sirchan ifodasidir.

4. Tuz qadim-qadimdan mehmondo'stlik, to'kinlik, rozi-rizolik, rasolik ramzi sifatida barcha xalqlarda ulug'langan va qadrlangan. Turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek xalqining barcha ijtimoiy taraqqiyot bosqichlarida xuddi ana shunday qadriyatlar ifodasi sifatida qaralgan va ana shunday ijtimoiy etnik lisoniy madaniy munosabatlarni ifodalovchi frazeologik va paremiologik birliklarning tug'ilishiga asos bo'lgan.

5. Tuz uzvli frazeologizmlarni o'zbek xalqining duolari, ezgu-tilaklari, olqishlari va o'z navbatida, qarg'ishlari sodda, ta'sirchan, betakror hamda milliy mantiqda ifodalangan.

6. Non, osh, tuz boshqa xalqlar kabi o'zbek xalqining qadimiy, azaliy va bardavom yashovchan kundalik, milliy qadriyatlari bilan bog'liqligi bois ular asosida shakllangan barqaror lisoniy birliklar mazmunan hamda mohiyatan umumiylik kasb etadi. Bizningcha non, osh, tuz xalqning yashash tarziga xos milliy qadriyatlarini ifodalovchi lingvomadaniy triadadir.

7. Non, osh, tuz tarkibli maqol va matallar, birinchidan, xalq og`zaki ijodi mahsuli, ikkinchidan, barqaror paremiologik birliklar, uchinchidan, milliy qadriyatlarni ifodalovchi lingvomadaniy birliklar sifatida ham folklorshunoslik, ham tilshunoslik, ya'ni paremiologiya va lingvokulturologiya sohalarini tutashtiradi hamda ular uchun qimmatli xulosalar va materiallar beradi.

UMUMIY XULOSALAR

1. O'zbek xalqi azal-azaldan taomlarga, oziq-ovqatlarga, xususan, non, osh, tuzga ayricha munosabatda bo'lgan. Ularni muqaddas bilgan, rizq-ro'z, nasiba sifatida e'zozlagan, qadrlagan, ulug'lagan va farzandlarini ham shu ruhda tarbiyalagan. Natijada tilga olingan ne'matlar, yeguliklar borasida xalqona betakror qadriyatlar shakllanib, xalq og'zaki ijodida non, osh va tuz uzvli maqol va matallar, frazeologizmlar yuzaga kelgan hamda yillar davomida bu birliklar shaklan va mazmunan sayqallanib, boyib va mukammallashib borgan, bizgacha yetib kelgan.

2. Maqol va frazeologizmlar eng qadimgi davrlardan hozirga qadar yashab kelayotgan milliy lingvomadaniy birliklar bo'lib, milliy qadriyatlarga doir muhim ma'lumotlarni, xalqning dunyoqarashi, urf-odat, an'analari va turmush tarzini o'zida mujassamlantiradi. Frazeologik va paremiologik birliklar lingvokulturologik birlik sifatida til va madaniyat munosabatini, madaniy qarashlarni ifodalashga xizmat qiladi.

3. *Non, osh, tuz* konseptlarini ifodalovchi frazeologik va paremiologik birliklarning lingvokulturologik tahlili til va madaniyat munosabati, milliy til va milliy madaniyat mushtarakligidan kelib chiqqan holda, kommunikativ, funksional-semantik, emotsional-ekspressiv xususiyatlarni atroflicha yoritish imkonini beradi.

4. *Non, osh, tuz* uzvli parema va frazemalardagi semantika o'xshatishga asoslanadi. O'xshatish barcha xalqlarga xos, lekin uning ifoda shakli, namoyon bo'lish xususiyatlari muayyan xalqning mental xususiyatlari bilan belgilanadi. Non, osh va tuz uzvli maqol hamda iboralar asosidagi o'xshatishlar xalqning milliy mentaliteti, orzu-umidlari, madaniyati, xususiyati, hayot kechirishi, oziqlanishi tarzi asosida yuzaga kelgan.

5. *Non, osh, tuz* konseptlari lug'aviy birlik sifatida barqaror birikmalarning tarkibiy qismini tashkil qilib, xalq dunyoqarashi, madaniy hayoti asosida shakllangan obrazli tasvirni yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

6. *Non* uzvli frazeologizmlar semantik jihatdan ijobiy yoki salbiy ma'no kasb etadi. Ijobiy ma'no bo'yog'iga ega non uzvli frazemalarda *non* konsepti "noni butun", "noni ko'paysin", "non topmoq", "non sindirmoq", "bitta noni ikkita bo'lmoq" kabi birikmalarni hosil qilsa, salbiy ma'noda "non ko'r qilsin", "non ursin", "nonini tuya qilmoq", "noni yarimta", "non yemas", "non bermas", "nondan benasib bo'lmoq" kabi birliklarni hosil qilganki, ular zamirida rizq-nasibasi butunlik, halol mehnat qilish, duo, to'kinlikda yashash va qarg'ish, kambag'allik, ziqnalik, xasislik konseptlarini vujudga keltiradi.

7. Maqollarda sinekdoxa asosidagi ma'no ko'chishi mavjud bo'lib, ular nutqni qisqa, aniq, uslubiy bo'yoqdor va ta'sirchan ifodalashda alohida ahamiyat kasb etadi.

8. *Non, osh, tuz* uzvli paremlar boshqa maqol va matallar kabi shaklan siqiq, mazmunan boy bo'lib, o'zbek xalqining mentalitetiga xos mehnatsevarlik, halollik, tantilik, mehmondo'stlik, bag'rikenglik, sabr va qanoatlilik kabi yuksak insoniy xislatlarni ulug'lovchi hamda yosh avlodni komillik ruhida tarbiyalashga xizmat qiluvchi noyob didaktik manbalardir.

9. O'zbek adabiy tili va uning sheva, lahjalari hamda folkloriga xos variantlilik hodisasi non, osh, tuz uzvli frazeologik va paremiologik birliklarda ham yorqin kuzatiladi. Buni o'zbek tilining lahjalari o'ziga xos fonetik, leksik, grammatik xususiyatlarga egaligi va shevalarining ko'pligi bilan izohlash mumkin.

10. Umummilliy konseptlarni ifodalovchi maqol va matallar sintaktik jihatdan qo'shma gap shaklida bo'lib, hayotiy voqea-hodisalar, ijtimoiy munosabatlar, metaforik qiyoslar va pandnoma mazmunidagi sodda gaplar parallelizmi asosida shakllantirilgan.

11. *Non, osh, tuz* boshqa xalqlar kabi o'zbek xalqining qadimiy, azaliy va bardavom yashovchan kundalik, milliy qadriyatlarini bilan bog'liqligi bois ular asosida shakllangan barqaror lisoniy birliklar mazmunan hamda mohiyatan umumiylik kasb etadi. Bizningcha *non, osh, tuz* xalqning yashash tarziga xos milliy qadriyatlarini ifodalovchi lingvomadaniy triadadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 173 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 13 майдаги «Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиш тўғрисида»ги ПФ-4797 сонли Фармони.
3. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 80 б.

II. Ilmiy adabiyotlar:

5. Jamolxonov N. Hozirgi o`zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. – 272 b.
6. O`zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2016. – 511 b.
7. O`zbek xalq maqollari. – Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. – 127 b.
8. O`zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2013. – 509 b.
9. Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Barkamol fayz mediya nashriyoti, 2016. – 190 b.
10. Абдурахимов М. Ўзбекча-русча афоризмлар луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986. – 216 б.
11. Авесто. Тарихий адабий ёдгорлик // Асқар Маҳкам таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 384 б.
12. Алматова Ш.Т. Ўзбек тили фраземаларининг компонент таҳлили: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент, 2008. – 22 б.
13. Аристотель. Риторика. Поэтика. – М.: Лабиринт, 2000.

14. Арутюнова Н.Д. Введение // Логический анализ языка: Ментальные действия. – Москва: Наука, 1993.
15. Аскольдов С.А. Концепт и слово / Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Москва: Академия, 1997.
16. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – Москва: Ком.Книга, 2007.
17. Ашурова Д.У. Связь вузовских курсов с современными направлениями лингвистики // Филологиянинг долзарб муаммолари: Маъруза тезислари. – Тошкент, 2008.
18. Бафоев Б. Кўхна сўзлар тарихи. – Тошкент: Фан, 1991. – 152 б.
19. Бердиёров Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984.
20. Болотов В.И. Из истории науки. А.А.Потебня и когнитивная лингвистика // Вопросы языкознания. – Москва, 2008. – №2.
21. Валиева Г.Х. Ўзбек халқ мақолларида миллий менталитет ифодаси // Лингвист. – Тошкент, 2014.
22. Воркачев С.Г. Лингвоконцептология и межкультурная коммуникация: истоки и цели // Филологические науки, 2005. – № 4.
23. Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки, 2001. – №1. – С.64-72.
24. Гумбольдт В.Фон. Язык и философия культуры. – М., 1985.
25. Жўраева Б. Мақол ва матал орасидаги муносабат // Тил ва адабиёт таълими. 2001. – № 2. – Б. 88-92.
26. Жўраева Б. Мақолларда синонимия ҳодисаси // Ўзбек тили ва адабиёти. 2000. – № 5. – Б. 58-61.
27. Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий кўлланилиши: Филол.фанлари номзоди.... дисс. – Тошкент, 2002. – 136 б.
28. Жўраева Б. Мақолнинг ёндош ҳодисаларга муносабати ва маъновий хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 2007. – 66 б.

29. Залевская А.А. Психологический подход и проблеме концепта // Методологические проблемы когнитивной лингвистики. – Воронеж: ВГУ, 2001.
30. Зиатдинова Г.И. Концепт “сугыш (война)” в татарской языковой картине мира: АКД. – Казань, 2009.
31. Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. – Самарқанд: СамДУ, 1999. – 200 б.
32. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007. – Б.70-71.
33. Йўлдошев М., Ядгоров Қ. Бадиий матннинг лисоний таҳлили. – Тошкент, 2007.
34. Каримов У.Н. Концепт тушунчаси ва унинг бадиий адабиётдаги моҳияти // ЎзМУ хабарлари, 2017. – №1/5. – Б. 416-417.
35. Комаров Е.В. Метафорическое взаимодействие концептуальных полей “человек” и “природа” в современном английском языке: Дис. ...канд.фил.наук. – Спб.:1998.
36. Корнилов О.А. Языковые картины мира как производные национальных менталитетов. – М.: ЧеРо, 2003.
37. Кубрякова Е.С. Об установках когнитивной науки и актуальных проблемах когнитивной лингвистики. – Москва, 2004.
38. Мамажоноав А., Шукуров Ш. Пареллелизм – нотиклик санъатининг муҳим омили // Ҳозирги ўзбек тилшунослиги ва адабиётшунослигининг долзарб муаммолари (Ўзбекистон Республикасининг 10 йиллиги ҳамда АндДУнинг 70 йиллигига бағишланган аюбғуломхонлик анжумани материаллари). – Андижон, 2001.
39. Маматов А.Э. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада? / Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари (проф. А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағишлаб ўтказилаётган илмий-амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2012. – Б. 212;

40. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1960-1963. I – III – томлар.
41. Маҳмудов К. Ўзбек тансиқ таомлари. – Тошкент: Меҳнат, 1989. – 352 б.
42. Маҳмудов Н. Термин, бадий сўз ва метафора // Ўзбек тили ва адабиёти, 2013. – №4 – Б.3-8.
43. Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб // Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. – №5. – Б. 3-16.
44. Маҳмудов Н. Ўзбек тилида ўзлашма сўзлар: меъёр ва миллийлик // Ўзбек тили ва адабиёти, 2010. – №6. – Б.3-8.
45. Маҳмудов Н., Худойбергана Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – 318 б.
46. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – 284 б.
47. Навоий асарлари учун қисқача луғат. – Тошкент: Фан, 1993.
48. Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. – М.: АСТ: Восток-Запад, 2007. – 314 с.
49. Попова З.Д., Стернин И.А. Понятие «концепт» в лингвистических исследованиях. – Воронеж: Изд-во Воронежского Ун-та, 1999.
50. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 405 б.
51. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2009. – 284 б.
52. Сайидрахимова Н., Қобулова У. Лингвокультурология – тилшуносликнинг алоҳида соҳаси // Ўзбек тили ва адабиёти, 2015. – №4. – Б. 87-91.
53. Саттор Маҳмуд Ўзбекнинг гапи қизиқ. – Тошкент: Фан, 1994. – 173 б.
54. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006.
55. Соатов Б. Мақолларда структурал барқарорлик ва семантик эволюция // Ўзбек тили ва адабиёти, 1989. – № 2. – Б. 42-44.

56. Содиқова М. Русча-ўзбекча фразеологик луғат. – Тошкент: Фан, 1972. – 192 б.
57. Темирова М. Ўзбек ва қирғиз халқ мақолларининг типологик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2017. – №1.
58. Тошева Д. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори дис. автореф., 2018. – 50 б.
59. Узбекские народные пословицы. – Ташкент: Фан, 1983. – 230 с.
60. Узбекские пословицы и поговорки. – Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1988. – 223 с.
61. Улуқов Н., Солихўжаева Х. Ҳабиб Саъдулла шеърларининг лингвопоэтикаси. – Наманган: “Наманган” нашриёти, 2017. – 80 б.
62. Худайберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2015. – 50 б.
63. Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2015. – 41 б.
64. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Нега шундай деймиз: Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 352 б.
65. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. – Тошкент, 1990. – 524 б.
66. Юсупов Ў.Қ. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультурема атамалари хусусида // Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида: Илмий амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2011.
67. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – I ж. – 679 б.
68. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – II ж. – 671 б.

69. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – III ж. – 687 б.
70. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – IV ж. – 606 б.
71. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – V ж. – 591 б.
72. Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – 286 б.
73. Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – 510 б.
74. Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент: Фан, 1987. I. – 365 б.; 1988. II. – 370 б.
75. Ўзбек халқ мақоллари: (Тўплам). / (Редкол.: К.Имомов ва бошқ.; Тўпловчилар: Т.Мирзаев, Б.Саримсоқов, А.Мусоқулов). – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашр., 1989.
76. Қаландаров Ш. Мақолларнинг бадиий матндаги вазифалари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2017. – № 4.
77. Қобулжонова Г. Метафоранинг системавий талқини: Автореф. дис.... канд. филол. наук. – Тошкент, 2000. – 23 б.
78. Қобулова У. Метафорик матнда интеграл ва дифференциал семалар муносабати (ўзбек халқ топишмоқлари мисолида): Филол. фан. ... диссер. автореф. – Тошкент, 2007. – 24 б.
79. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 164 б.
80. Ҳомидий Ҳ., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати / Н.Маллаев таҳририда. – Тошкент: Ўқитувчи, 1967. – 300 б.

Osh uzvli paremiyalar

A

Amirning oshidan faqirning mushti yaxshi.
 Arpa dema osh bo`lsa, yaqin dema qasd bo`lsa.
 Arpa-bug`doy osh bo`lur, oltin-kumush tosh bo`lur.
 Arpa-bug`doy osh ekan, tanga-tilla tosh ekan.
 Asl qushning bolasi oldiga qo`ymay osh yemas.
 Ayron – osh bo`lmas, nodon – bosh bo`lmas.

B

Ba'zilar sherikdir ichgan oshingga, to`yib kosang bilan urar boshingga.
 Bardoshliga yog`liq osh, sabrsizga osh ham tosh.
 Bardoshliga yog`liq osh.
 Baxildan tosh so`raguncha, gadoydan osh so`ra.
 Baxmal kiydim – egnimda yo`q, palov yedim – og`zimda yo`q.
 Bermas qizning oshi pishmas.
 Bermasning oshi pishmas, pishsa ham o`choqdan tushmas
 Betashvish bosh qayda, mehnatsiz osh qayda.
 Bilimsiz kishiga ish yo`q, ilmsiz kishiga osh yo`q.
 Bilmas kishiga ish yo`q, ishsiz kishiga osh yo`q.
 Bir qoshiq oshim – g`alvasiz boshim.
 Birovga bersam – esiz oshim, uyda tursa, sasir oshim.
 Birovning oshiga qaragan och qolar.
 Boshi yo`qning oshi yo`q.
 Boshning yugurugi – boshga, qo`lning yugurugi – oshga.
 Boy bir qo`li bilan osh beradi, bir qo`li bilan tosh beradi.
 Boy buvaning oshi bor, ichi to`la toshi bor.
 Boyning oshi – ko`zning yoshi.
 Boyning oshini boytevat qizg`anadi.
 Boyning oshini yeyishga temirdan tish kerak.

Boyning yog`liq palovidan o`zingning quruq qatirmoching yaxshi.
Buyurgan oshga tish tegar, yoz tegmasa qish tegar.

D

Dangasaning fikr-u yodi – yoz bo`lsa-yu, qish bo`lmasa,
Osh bo`lsa-yu, ish bo`lmasa, salqin bo`lsa-yu, oftob bo`lmasa.
Dil og`ritgan – do`st emas, ich og`ritgan – osh emas.
Do`sting bemor bo`lsa, ko`nglini ol, osh qilayotgan bo`lsa, qo`lini ol.
Do`sting bergan oshni ham puflab ich.
Do`stingning oshini qasdingdan ich.
Do`stsiz boshim – tuzsiz oshim.
Dosh qozonda pishgan osh xom bo`lmas.
Dushman oshingni yer, so`ngra boshingni yer.
Dushmanga osh berma, qo`liga tosh berma.
Dushmanga oshingni berma!
Dushmanga oshingni bersang, boshingga chiqar.
Dushmanni musht bilan urma, osh bilan ur.

E

Eldan osh yesang, elga osh ber.
Erga bersang oshingni, erlar silar boshingni. Itga bersang oshingni, itlar g`ajir
boshingni.
Eringanning oshi pishmas.

G

Gap bilan osh pishmas.

H

Halol oshga it tegsa ham – tegmaganday, eliksa ham – elikmaganday.
Har kuni yema palovni, har kuni yoqqil olovni.
Hunar oshxo`rga osh berar, nonxo`rga – non.

I

Ichgani oshi yo`q, itining oti “Boytevat”.
Ichib turgan oshimga, chivin yetdi boshimga.

Illat yo oshda, yo moshda.
Ilmsiz kishiga osh yo`q.
Ilmsizda osh yo`q.
Insofli odam oshini yer, insofsiz odam – boshini // Insofli oshini yer, insofsiz – boshini.
Intizorlikning oshi – shirin.
Ish bor yerda – osh bor.
Ish deganda – nofarmon, osh deganda – jon qurbon.
Ish desa – ayyor, osh desa – tayyor.
Ish desa, og`rir oshiq-moshig`im, osh desa, tayyor katta qoshig`im.
Ish oshga tortar, yalqovlik – boshga.
Ish oshga tortar, yalqovlik boshga tortar.
Ish qolsa – mehnat, osh qolsa – davlat.
Ish vaqtida – ayyor, osh vaqtida – tayyor.
Ishchan oshini yer, dangasa – boshini.
Ishdan qochding – oshdan qochding.
Ishga – cho`loq, oshga – qo`noq.
Ishga – no`noq, oshga – o`rtoq.
Ishi to`g`ri bo`lgan oshini minbarda yer.
Ishi yo`qning oshi yo`q.
Ishimning boshi yo`q, oshimning moshi yo`q.
Ishlab topganing – osh, ishlaymay topganing – tosh.
Ishlab topganning oshi – lazzatli.
Ishlagan osh tishlar, ishlamagan tosh tishlar.
Ishlaganning og`zi oshga tegar, ishlaganning boshi toshga tegar.
Ishlamasdan osh yegan dardga yo`liqar.
Ishsiz boshim – oshsiz boshim.
Ishtoni yo`q qasavaga zo`rlar, oshi yo`q moshovaga zo`rlar.
Ishyoqmasga ish buyursang, also bajarmas, shirin oshing tamom bo`lmay, uyqusi kelmas.

Ishyoqmasga osh berma.

Ishyoqmasga osh yoqmas.

It ichmas oshidan umid qilar.

J

Jon bo`lsa, jahon topilar, osh bo`lsa – qozon // Jon bo`lsa jahon topilar, osh bo`lsa qozon topilar.

Jon bo`lsa, jonon bo`lar, osh bo`lsa – qozon.

K

Kambag`al osh topsa, qo`ygani idish topmas.

Kambag`alning og`zi oshga tekkanda, burni qonar.

Kambag`alning og`zi oshga yetganda, boshi toshga tegar.

Kambag`alning osh ustida burni qonar.

Kambag`alning suygan oshini kim beradi.

Kamtar bo`lsang, osh ko`p, manman bo`lsang, tosh ko`p.

Kasal – oshdan, davo – qarindoshdan.

Kelin kelsa uzoqdan, arba-arba osh kelar. Kelin kelsa yaqindan, arba-arba so`z kelar.

Kelinoyimning oshini shirin qilgan akamning zira-piyoz.

Kishining qo`lidan ishini olsang, og`zidan oshini olasan.

Ko`ngil tortgan osh – halol.

Ko`pga osh bermaydi, Qo`rg`onga yot bormaydi.

Ko`rdingki – osh, ko`tarma bosh, ko`rdingki – yog`liq, uraver vaqtliq.

Ko`rdingki osh, ko`tarmagin bosh.

Ko`rgan oshning kuyugi yomon.

Kuningdan bir kuning qolsa – bedov min, pulingdan bir puling qolsa – palov ye.

L

Loyqa – boshdan, og`riq – oshdan.

M

Maqtov osh bilan non bo`lmas.

Mard ish ustida bilinar, nomard – osh ustida.
Maslahatli osh totli bo`lur.
Mehmon kelsa, pastga tush, palov bermoq ahdga tush.
Mehmon osh deb kelmas.
Mehmonga osh qo`y, ikki qo`lini bo`sh qo`y.
Mehnatli osh – osh bo`lur, mehnatsiz osh – tosh.
Mehnatsiz osh qayda.
Mehnatsiz topilgan oshdan mehnatda topilgan tosh yaxshi.
Mehnatsiz turmush – tuzsiz osh.
Minnatli osh tatimas.
Minnatli oshdan beminnat musht yaxshi.
Minnatli oshdan beminnat tosh yaxshi.
Minnatli oshdan minnatsiz musht yaxshi.
Minnatli oshdan minnatsiz yovg`on yaxshi.
Mol yig`sang, qo`nishin top, osh yesang, idishin top.
Moxov qoshdan gapirar, mechkay oshdan gapirar.
Mulla palovga o`ch, bangi – olovga.
Mungli ishing bo`lmasa, bug`li oshni tashlama.

N

Nima solsang oshingga, shu chiqar qoshig`ingga.
Nodon bosh bo`lmas, ko`pik osh bo`lmas, qarilik qaytib, qayta yosh bo`lmas.
Nomard oshda, mard ishda bilinar.
Nomardning palovidan mardning yovg`on oshi yaxshi.

O`

O`g`irlik osh badanga yuqmas.
O`ldirsa ham, osh o`ldirsin!
O`n kunlik oshing bo`lguncha, bir kunlik eshing bo`lsin.
O`zbekka osh yaxshi, qozoqqa – go`sht.

O

Och kishiga osh qo`ysang, betingga qaramas.

Och oshi bilan, tegirmon toshi bilan.
Ochiq qolgan oshni pashsha talaydi.
Ochiq til osh yedirar, achchiq til tosh yedirar.
Ochlik osh tanlatmas, oshilik yosh tanlatmas.
Ochning ko`zi ekmakda, to`qning ko`zi hikmatda.
Ochotqi ko`z osh axtarar, ishchan qo`l ish axtarar.
Odam so`zi bilan sinalar, osh – tuzi bilan.
Og`a-ini totuv bo`lsa, ot ko`p, opa-singil totuv bo`lsa, osh ko`p // Og`a-ining totuv bo`lsa, ot ko`p, opa-singling totuv bo`lsa, osh ko`p).
Og`ayni biriksa, bosh ko`payar, ovsin biriksa, osh ko`payar.
Og`izga solar oshni og`izga sig`archa ol.
Og`izga solgan oshni yuta bilmoq kerak, qo`lga kirgan davlatni tuta bilmoq kerak.
Og`riq – oshdan, da`vo – qarindoshdan.
Og`zi bordan – osh, tishi bordan – qoch.
Og`zimda oshim, ko`zimda yoshim.
Oldingga osh tortsa, otasining xunidan kech.
Oltin, kumush tosh bo`lar, tomoqdan o`tsa, osh bo`lar.
Oltmishga kirgan otadan osh so`rama.
Omon bo`lsang, osh yersan, yomon yursang, musht yersan.
Omon yursang, osh yersan, yomon yursang, tosh yersan.
Oq qo`l – osh egasi, kuch qo`l – ish egasi.
Ortiqcha tuz oshni buzar, ortiqcha so`z boshni uzar.
Osh – tuz bilan, tuz – o`lchov bilan.
Osh – avliyo, non – payg`ambar.
Osh – egasi bilan, gul – bargi bilan.
Osh – mehmon bilan aziz.
Osh – oshga, tovoq – boshga.
Osh bergan oshini olar, tosh bergan – toshini.
Osh berganga osh ber, tosh berganga – tosh.

Osh berganga yosh bersin, qozon to`la osh bersin, ketmas davlat, keng fe`l,
yostiqlik to`la bosh bersin.
Osh bo`lsa, qozon topilar, jon bo`lsa – jahon.
Osh bo`lsa-yu, ish bo`lmasa,
Osh degan joyga qoqvosh yugurar.
Osh degan yerga quruqlik kalla yugurar.
Osh deganda – och biqiniga, go`sht deganda – to`q biqiniga!
Osh desang – botir, ish desang – yotir.
Osh egasi bilan shirin.
Osh ham qarzi, tosh ham qarzi.
Osh har yerda bor, kayvoni bir yerda bor.
Osh kattadan, suv kichikdan.
Osh kelsa, yegin, so`z kelsa, degin.
Osh ko`p bo`lsa qa`da ko`p.
Osh kutsa ham, ish kutmas.
Osh o`rniga ayron, kundoshli uy – vayron.
Osh oshligini qilsin, choy choyligini.
Osh ozga qoldi, bosh tozga qoldi.
Osh qadrini och bilar, kiyim qadrini – yalang`och.
Osh qilayotgan bo`lsa, qo`lini ol.
Osh qolsa – davlat, ish qolsa – mehnat.
Osh qolsa, tansiq bo`lar, ish qolsa, sassiq bo`lar.
Osh quli – ish kasali.
Osh totig`i – tuz.
Osh yeganda ot kuchi bor, go`sht yeganda toy kuchi bor.
Oshga – qatiqlik, betga – soliq.
Oshga – qo`noqlik, ishga – no`noqlik.
Oshga borgan – otidan ko`ngli qolar, to`yga brogan – xotinidan ko`ngli qolar.
Oshi ko`pning tani semirar, do`sti ko`pning joni semirar.
Oshi yo`q ashavasiga zo`r beradi, lachagi yo`q – qasavasiga zo`r beradi.

Oshim qolsa – berdi xudo, ishim qolsa – urdi xudo.
Oshing halol bo`lsa, ko`chada ich.
Oshing oz bo`lsa ham, fe`ling soz bo`lsin.
Oshingga to`yg`azmasang ham, oq niyatingga to`yg`ay!
Oshingni bermasang berma, toshing bilan urma!
Oshingni ichirmay maqtama, qizingni chiqarmay maqtama.
Oshingni ye, ishingni qil.
Oshiqqan oshga yetguncha, boshi toshga yetadi.
Oshni ayasang – oshga, nonni ayasang – nonga.
Oshni issiq ichma.
Oshni katta oshasang ham, gapni katta gapirma.
Oshni xo`rlama – qustirar, erni xo`rlama – sustirar.
Oshning – sozi, gapning – ozi.
Oshning sochig`i – non.
Oshning ta`mi tuz bilan, odamning ta`mi so`z bilan.
Oshning ta`mi tuz bilan, suvning ta`mi muz bilan.
Oshsiz uy boru urushsiz uy yo`q.
Osh-tovog`ing kerak emas, qosh-qovog`ing kerak.
Oson yerda osh qayda?
Ovchining oshi – oyog`ida, qo`ychivonning baxti – qo`yida.
Oyga yetmas oshingni ovuldoshingdan ayama.
Oyoq yugurigi – oshga, til yugurigi boshga.
Oz qayg`uni osh bosar, ko`p qayg`uni do`st bosar.
Oz oshga indov yo`q.
Oz oshga yasovul bo`lma.
Oz oshim – g`avg`osiz boshim.
Oz qayg`uni osh bosar, ko`p qayg`uni do`st bosar.
Ozgina oshim – g`avg`osiz boshim.

P

Palov desang, payshanbaga, do`lma desang, dushanbaga.

Palov yesang moyi bilan, yo`rg`a minsang shoyi bilan.

Palovdan qaytganning qo`li sinsin!

Palovning qamchisi – choy.

Pishsa ham o`choqdan tushmas.

Q

Qalqonbozlik qiladi to`ppa oshi, nayzabozlik qiladi ugra oshi.

Qarindoshingni oshga chaqir, choshga¹ chaqirma.

Qashshoq osh topgan kuni og`zi kuyar.

Qo`lidan ishini olsang, og`zidan oshini olasan.

Qo`liga tosh berma.

Qo`lning yugurugi – oshga.

Qor – osh bilan non.

Qor yog`di – don yog`di, yomg`ir yog`di – osh yog`di.

Qoshingga kelgan oshni puflab ich.

Qoshiq bilan osh berib, sopi bilan ko`z chiqarma.

Qoshiq bilan osh berib, sopi bilan ko`z chiqarma.

Qozon to`la osh bo`lsin, yostiq to`la bosh bo`lsin.

Qudaning oshi bilan qudag`ayni siylabdi.

R

Rizqli mehmon osh ustidan chiqar.

Ro`zg`or tushdi boshga, qo`l tegmadi oshga.

S

Salqin bo`lsa-yu, oftob bo`lmasa.

So`ngak osh bo`lmas, nodon bosh bo`lmas.

T

Tek turmaganga osh ber, ikki qo`liga ish ber.

Til yugurigi – boshga, oyoq yugurigi – oshga.

To`g`ri oshini yer, egri boshini.

¹ Чош – хирмон.

To`y oshi – to`polon oshi.

To`yar oshni ko`z taniydi, oshnani ko`ngil taniydi.

To`yib kosang bilan urar boshingga.

To`ymay ichgan oshing qursin, xo`rlukda yashagan yoshing qursin.

Tor yerda osh yeguncha, keng yerda musht yegan yaxshi.

Tosh otganga osh ot.

Tushlik oshga tushlik yerdan kishi kelar.

Tushning oshi – tishga dori.

Tuzsiz oshning epi oson, tuzsiz gapning epi qiyin.

U

Umringdan bir kun qolguncha, osh ye, pulingdan bir tiyin qolguncha, osh ye.

Uyda tursa, sasir oshim.

Uyida oshi yo`qning – ko`nglida xushi yo`q.

Y

Yalqovning oshi – yovg`on.

Yaxshi mehmon osh ustiga, yomon mehmon bosh ustiga.

Yaxshi og`izga – osh,

Yaxshi osh berguncha, yaxshi so`z ber.

Yaxshi oshini yer, yomon – boshini.

Yegan oshga Baraka.

Yerga oshatsang osh bitar, oshatmasang – tosh // Yerga oshatsang, osh bitar, oshatmasang tosh bitar.

Yetim kimniki – osh berganniki.

Yetim o`z oshini ichar, kishi minnatini tortar.

Yetim yetti uydan osh ichar.

Yetimning og`zi oshga yetganda boshi toshga yetadi.

Yetimning og`zi oshga yetsa, burni qonar.

Yeyar og`izga osh berar, yig`lar ko`zga yosh berar.

Yeyar oshingdan yemas oshing ko`p bo`lsin

Yig`lagan ko`zga – yosh, tilagan og`izga – osh.

Yigit kelsa – ishga, qari kelsa – oshga.
Yo`qcha guruch osh bo`lur, mehmon ko`ngli shod bo`lur.
Yo`xcha guruch osh bo`lur, mehmon ko`ngli xush bo`lur.
Yolg`on boshga – tayoq, oshga – suyak.
Yomon og`izga – tosh, yaxshi og`izga – osh.
Yomon og`izga – tosh.
Yomon og`riqqa – yaxshi osh.
Yomon oshga o`rtoq, boshga – to`qmoq.
Yomon qiliqdan – ko`zga yosh, yaxshi qiliqdan – og`izga osh.
Yomon xotin oshga o`rtoq, boshga – to`qmoq.
Yomon yo`ldosh oshingni yer, oshingni emas, boshingni yer.
Yomonga osh berguncha, yaxshiga bosh ber.
Yomonga osh tortguncha, boshiga besh tort.
Yomonni oshingga yo`latsang yo`lat, qoshingga yo`latma.
Yomonning bergan oshidan – yaxshining otgan toshi yaxshi.
Yomonning oshiga borguncha, yaxshining ishiga bor.
Yosh kelsa – ishga, qari kelsa – oshga.
Yot oshingga qaraydi, do`st – boshingga.
Yoz bo`lsa-yu, qish bo`lmasa,
Yoz bo`lsa-yu, qish bo`lmasa, osh bo`lsa-yu ish bo`lmasa.
Yoz tegmasa, qish tegar.
Yozda boshi pishmaganning qishda oshi pishmas.
Yozda boshi qaynamaganning qishda oshi qaynamas.
Yozning yuvindisi – qishga osh-qatiq.

Z

Zolim oshi osh bo`lmas, yomon yig`ilib bosh bo`lmas.

Non uzvli paremiyalar

A

Avatiga chavati, Qum qozonga – loy tuvoq.

Avval – non, keyin in'om.

B

Baxildan pul chiqmas, patirdan qil chiqmas.

Bedavlatning noni yarim.

Beli og`rimaganning non yeyishini ko`r.

Bir boshq don – bir savat non.

Birovning yog`liq nonidan, o`zingning zog`arang yaxshi.

Bitta non bilan to`yadigan qorin yarimta non bilan ham to`yadi.

Bolalik ona nonga to`ymas, bolalik g`oz – donga.

Bor-bor, ishda bor, Ishlamagan nonga zor.

Borning bolasi mol deb turar, Yo`qning bolasi – non deb.

Boy boyni deydi, kambag`al nonni yeydi.

Boyning bug`doy nonidan, Kambag`alning bug`doy so`zi yaxshi.

Boyning bug`doy nonidan, O`zingning zog`arang yaxshi.

Boyning jon bergani bilinmas, kambag`alning – non bergani.

Boyning ko`zi – xonda, G`aribning ko`zi – nonda.

Boyning ko`zi – xonda, Yo`qning ko`zi – nonda.

Boyning ko`zi nonda, kambag`alniki – imonda.

Bug`doy noning bo`lmasa ham, Ochiq yuzing bo`lsin.

Bug`doy noning bo`lmasin, Bug`doy so`zing bo`lsin.

Butun non – azobi jon, Yarim non – huzuri jon.

Buzoq somonxonani bo`shatar, Bola – nonxonani.

D

Dashnom yeganim – besh non yeganim.

Dehqon emas, ketmon chopib non bermasa, Oshiq emas, ishq yo`lida jon bermasa.

Dehqon odam don sochar, El-yurtiga non sochar.

Don ayagan donga yetar, Non ayagan – nonga.

Dushmanga sotsang doning, Og`zingda qolmas noning.

G`

G`ayratliga – buyuk o`lja, g`ayratsizga kuyuk kulcha.

Gado non topsa, to`rva topmas.

Gapni gapir joyi bilan, Nonni yegin moyi bilan.

H

Har narsaga g`am yema, Parcha nonni kam yema.

Har supradan bir kulcha.

Har supradan bir kulcha.

Har supraning noni boshqa.

Har supraning noni boshqa.

Hunar bo`lsa qo`lingda, non topilar yo`lingda.

Hunar oshxo`rga osh berar, nonxo`rga – non.

Hunari yo`q – non gadoyi.

Hunarmandning noni butun.

Hunarni o`rganib qo`ysang, sendan osh-non tilamaydi.

I

Ishi yo`q nomoz o`qir, Noni yo`q ro`za tutar.

Ishlab yegan zog`arang tanangga yog`dek yoqar.

Ishlab yegan zog`orang Tanangga yog`dek yoqar.

Ishlasang, nonni katta tishlaysan, Ishlamasang, kesak tishlarsan.

J

Javdar non – kimning ko`ngliga tegibdi.

Javdar non – nonlarning noni.

Jon jonga kuyar, Ishkamba – nonga.

Joying kappa bo`lsin, Noning katta bo`lsin.

K

Kambag`al non deb bosh ko`tardi, Boy – qon deb // Kambag`al non deydi, Boy – qon.

Kambag`alning ko`ziga kepchik non bo`lib ko`rinar.

Katta gap gapirma, Katta non tishla.
Katta-katta gapirguncha, Katta burda non tishla.
Ketmon chopdim – non tishladim.
Ketmon chopmoq – olmoq-solmoq. Qo`sh haydamoq – bormoq-kelmoq.
Ko`pdan quyon qutulmas, Mechkaydan non ortmas.
Kolxoz bilan el boy bo`ldi, Yegani non-u moy bo`ladi.
Kulchali bola – suyumli.
Kulchali bola suyumli kelar.
Kulni o`z ko`mochingga tortma.
Kulni o`z kumochingga tortma.

M

Maqtov osh bilan non bo`lmas.
Mardning noni – butun.
Mehnatli non – shakar, mehnatsiz non – zahar.
Mehnatning noni – mazali, o`g`rining umri – azali.
Mehnatning noni – shirin, yalqovning joni – shirin.
Molsiz uy bor, nonsiz uy yo`q.
Mulladan jon chiqsa chiqar, non chiqmas.
Mullaga ang, dehqonga non, tentakka dong kerak.

N

Nasiya nonning ham kuyugi bo`lar, ham kesagi.
Nomard non ustida ham nolishini qo`ymas.
Non – asli don.
Non – asli don.
Non – avliyo, osh – mashoyix.
Non – avliyo, osh payg`ambar.
Non – har bir xonadonning joni.
Non – nonda, kaliti – osmonda
Non bo`lsa bas, o`zgasi – havas.
Non bo`lsa kifoya, dasturxon shart emas.

Non bo`lsa, chaynashga tish topilar.
Non bolasi – non ushoq.
Non bor uyda – shodlik bor.
Non chopon emas, ammo issiq tutadi.
Non gadosi bo`lsang ham, Yurt gadosi bo`lma.
Non ham non, ushog`i ham non.
Non hidida hayot bor.
Non mo`lligi – el to`qligi.
Non oyoqqa turg`izadi, vino yiqitadi.
Non oyoqqa turg`izadi.
Non pishguncha, kulcha kuyar.
Non qadrini bilmagan, o`z qadrini bilmaydi.
Non qadrini och bilar, kiyim qadrin – yalang`och.
Non qadrini och bilar, kiyim qadrini yalang`och.
Non qiyshiq emas, bug`doyi qiyshiq.
Non qiyshiq emas, bug`doyi qiyshiq.
Non qo`yilgan dasturxon – taxt, baxtning o`zginasidir.
Non qo`ynimda, quvvat ilkimda.
Non qon bo`lsa, qon – jon.
Non tiqilsa, suvga chop, Suv tiqilsa, go`rga chop.
Non va suv bor ekan – g`am yema.
Non yemasning ishiga boq.
Non yemoqchi bo`lsang o`tin tashishdan erinma.
Non yemoqchi bo`lsang, o`tin tashihsdan erinma.
Nonga e`tibor – elga e`tibor.
Nonga hurmat – elga hurmat.
Nonga tuyilsang, suv ich, Suvga tuyilsang, kafan bich.
Noni halolning – o`zi halol.
Noning borida el tani, Kuching borida yo`l tani.
Noning borida el tani, oting borida yo`l tani.

Nonni e'zozlasang, el e'zozlaydi.
Nonni katta tishlasang ham, Gapni katta gapirma.
Nonni mehnat topgan, mehnatni non topgan.
Nonni tovaning qizig`ida yop.
Nonni uvatma, qadrini otma.
Nonni xor qilma, ushog`iga zor bo`lasan.
Nonning ikki kunligini ye, go`shtning – bir kunligini.
Nonning nomi ulug`, nomidan o`zi ulug`.
Nonning uvog`i ham non, burdasi ham non.
Nonning xomi gard paydo qilar, go`shtning xomi dard paydo qilar.
Nonsiz dasturxonning ko`rki yo`q.
Nonsiz yashab bo`lmas, gapni oshab bo`lmas.
Nonsiz yashab bo`lmas, quruq gapni oshab bo`lmas.
Nonsiz, tuzsiz hech kim ovqatlanmaydi.
Nonvoyga non aziz, Tegirmonchiga – un.
Noshukurda shukur bo`lmas, Nonko`rda – uzr.

O`

O`gay ota non bermas, non bersa ham, jon bermas.
O`gay ota non bermas, non bersa ham, jon bermas.
O`lgan o`zbekning qo`ynida noni bo`lar.)
O`roq o`rmoq – o`ynamoq, Hay-hay ishning og`iri, Xamir qilmoq, non yopmoq.
O`z kumochingga kul tortma.

O

Och o`lganning qo`ynidan to`q to`qoch qidirar.
Och qolgan nondan gapirar.
Och qolib yegan so`ng, Zog`ora non ham qand bo`lar .
Och qolib yegan so`ng, Zog`ora non ham qand bo`lar.
Och qorinda non turmas.
Och uxlasa, tushi – non; uyg`onsa, esi – non.
Ochga bir non – qalqon.

Ochko`zga bir non qalqon bo`lib ko`rinar.
Ochlik azobini chekmagan non qadrini bilmas.
Ollo – ollo degan bilan osmondan chalpak yog`ilmas.
Omoch chiqdi – ko`moch chiqdi.
Omoch chiqdi – ko`moch keldi.
Oppoq bo`lgan oq uyim, Osh-noni yo`q qoq uyim.
Oppoq bo`lgan oq uyim, Osh- noni yo`q qoq uyim.
Oro kirmasa joningga, sherik bo`lmasin noningga.
Oshni ayasang – oshga, Nonni ayasang – nonga.
Oshning sochig`i – non.
Otasini og`ritgan el ichida xor bo`lar, onasini og`ritgan parcha nonga zor bo`lar.
Ovchi non qidirar, Konchi – kon.

P

Patirdan qil chiqmas, baxildan pul chiqmas.

Q

Qo`li hunarsiz – non gadoyi.
Qo`ynida noni borning qorni to`q.
Qor yog`di – non yog`di.
Qorin nonsiz kun kechira olmaydi.
Qorni ochga non bo`lsa bas, ko`zi ochga dunyo yetmas.

S

Sen ishni quvsang, non seni quvar.
Son tegmaganga son tegdi, Zog`ora tegmaganga – non.
Son tegmasga son tegdi, savat-savat non tegdi.
Sovut kiyib ma`raka¹ da jon bergan, ketmon urib kecha-kunduz non bergan.

T

Ter to`ksang, don to`kasan, Don to`ksang, non to`kasan.
Tilab olgan non qorin to`ydirmas.

¹ Ma`raka – bu yerda jang-u jadal ma`nosida.

Tilaganga ne berar, qatti-qutti non berar.

To`yganda to`qlining go`shti ham tatimas, och qolgan so`ng zog`ora non ham ortmas.

U

Uy noni bilan chiroyli, ombor – doni bilan.

Uying kapa bo`lsin, noning katta bo`lsin.

V

Vaqtida yoqqan yomg`ir – osh bilan non, vaqtsiz yoqqan yomg`ir – ilon bilan chayon.

X

Xasisdan don tilaguncha, Gadoydan non tila.

Xo`jadan qiz olish – Patirdan qil olish.

Y

Yalqov bo`lsa o`g`loning, Yerdan non termas, Abjir bo`lsa o`g`loning, cho`ldan don terar.

Yarimta non – rohati jon.

Yarimta nonim – oromi jonim // Yarimta non-rohati jon.

Yaxshi joningga o`rtoq, yomon – noningga.

Yaxshi qiz erta turib soch tarar, yomon qiz erta turib non so`rar.

Yetimcha – yetti kulcha.

Yetimcha yetti kulchaga to`ymas.

Yotar qursoqqa – yorti non.

Yovga noningni bersang ham, siringni berma.

Yozni qo`yib qish dema, qishga yarasha ishing bor. qotgan ekan non dema, og`zing to`la tishing bor.

Z

Zog`aradan to`ydi yetim, Zarra-zarra qo`ydi yetim.

Ch

Chiroyga non botirib yeb bo`lmas.

Tuz uzvli paremiyalar

A

Ahmoq so`zining tuzi bo`lmas.

B

Baxilning tuzi tatimas.

Bir kun tuz berganga qirq kun salom ber.

Bir kun tuz ichgan joyga, qirq kun salom ber // Bir kun tuz ichgan joyga, qirq kun salom qil!

Bor yerda bol ham arzon,

Bugun oyog`ing to`rtta bo`lsa, ertaga tuzli xalta yelkangda.

D

Do`stsiz boshim – tuzsiz oshim.

E

Ertaga tuzli xalta yelkangda.

M

Mehnatsiz turmush – tuzsiz osh.

Moy aynisa tuz solar, tuz aynisa ne solar.

O`

O`zi yuzsizning so`zi tuzsiz.

O

Odam so`zi bilan sinalar, osh – tuzi bilan.

Ovqatni tuz mazali qilar, odamni – so`z.

Ortiqcha tuz oshni buzar, ortiqcha so`z boshni uzar.

Osh totug`i – tuz.

Oshning ta`mi tuz bilan.

Oshning ta`mi tuz bilan, suvning ta`mi muz bilan.

Oshning ta`mi tuz bilan, odamning ta`mi so`z bilan.

Oshning ta`mi tuz bilan.

Ot tuz deydi, yigit – qiz.

Ovqat ta'mi tuz bilan, yigit g`ami qiz bilan.

Q

Qiz asrama quv bo`lar.

Qiz puli – tuz puli.

Qiz saqlaguncha, bir siqim tuz saqla.

Qizim uyda, qilig`i tuzda.

Sh

Shamolimni so`kma, tuzimni yerga to`kma.

T

Taom tuz bilan, tuz o`lchov bilan.

Tuya tuz deb yig`lar, yigit – qiz deb.

Tuya tuzni sevar, yigit qizni.

Tuz asrama, suv bo`lar,

Tuz aynisa, ne solar.

Tuz o`lchov bilan.

Tuzdagi bilan emas, uydagi bilan bo`l.

Tuzdagi cho`ponga, uydagi xotinga o`zi insof bersin.

Tuzimni yerga to`kma.

Tuzini yeb tuzlig`iga tupurma.

Tuzluqqa tushgan tuz bo`lar.

Tuzsiz oshni it ichmas.

Tuzsiz oshning epi oson, tuzsiz gapning epi qiyin.

Tuzsiz qazi tez sasir.

Tuzsiz xamir tandirda turmas.

Tuzsizni ko`zsiz ham biladi.

Y

Yemak tuz bilan, tuz o`lchov bilan.

Yer tuzi eldan, suv xatari eldan.

Yo`q yerda tuz ham qimmat.

Yolg`iz qiz – yalama tuz.

Yomonga tuz tugul qiz ham berma.

Yomonning tuzga kelgani – qizga kelgani.

Yuzsiz xotin – tuzsiz xotin.

Yuzsiz, yuzsizning so`zi – tuzsiz.